

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK 171: 371

ATAQULOV JASUR ZIYADULLAYEVICH

“ABU NASR FOROBIYNING “FOZIL ODAMLAR SHAHRI ” ASARIDA
MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLAR”

5A 111601 – Ma'naviyat asoslari

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A S I Y A

“Himoyaga ro'xsat etilsin”
magistratura bo'limi boshlig'i
_____ **M. Esonov**

«Milliy g'oya va ma'naviyat
asoslari» kafedrasi mudiri
dotsenti, f.f.n
_____ **M.Sobirova**

“ ” _____ 2013 yil

Ilmiy rahbar: _____ M.Sobirova

Toshkent- 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I. BOB. ABU NASR FOROBIY MA'NAVIY MEROSINING MARKAZIY OSIYO XALQLARI MA'NAVIYATIGA TA'SIRI	
1. Abu Nasr Forobiyning jahon ilmi va ma'naviy merosiga qo'shgan hissasi.....	11
2. Abu Nasr Forobiy asarlaridagi ma'naviy qarashlar va ularning Markaziy Osiyo xalqlari milliy merosi bilan uyg'unligi.....	26
1 – bob bo'yicha xulosa.....	43
II. BOB. FOZIL SHAHAR AHOLISINING AXLOQIY FAZILATLARI VA UNING MA'NAVIY BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA AHAMIYATI	
1. Forobiy ta'limotida johillik va ommaviy madaniyatga munosabat masalasi.....	44
2. Yosh rahbar kadrlarni ma'naviy tayyorlashda “Fozil odamlar shahri” asarining o'rni va ahamiyati.....	52
2 – bob bo'yicha xulosa.....	69
III. BOB. FOROBIYNING ILMIY MEROSINI AKADEMIK LITSIY VA KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNALOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH	
1. Forobiyning ilmiy merosini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning metodlari.....	70
2. Mavzu yuzasidan dars ishlanmasi.....	86
3. Tajriba sinov natijalari.....	95
XULOSA.....	98
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	101
ILOVALAR.....	110

KIRISH

Forobiyning o'sha mashhur "Fozil odamlar shahri" asarini esga olaylik. Bundan ming yilcha muqaddam yaratilganiga qaramasdan, bugungi o'quvchi ham bu asardan hozirgi hayotning murakkab muammolarini hal qilishda asqotadigan muhim fikr va yo'l-yo'riqlarni topa oladi¹.

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq xalqimiz tarixiy-madaniy merosini qayta tiklash va undan jamiyatni ma'naviy yangilashda unumli foydalanish zarurati to'g'ildi. Chunki, jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo, asriy an'analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma'rifiy muhit mavjud bo'lmog'i kerak. Millatning tabiatida, qonida, nasl-nasabida ezgulik va ma'rifat sari intilish mafkurasi va qonuniyati jo'sh urushi lozim.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov, "Nazarimda o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi, o'zligi ma'naviyati haqida gapirayotganda, bizda chuqur ilmiy asosga tayangan tahlil, muayyan masalalarda aniq yondashuv yetishmayapti. Ilmiy tilda aytganda, yaxlit konsepsiya yo'q²", - deb ta'kidlaydi, - "biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz³". Yurtboshimizning fundamental ahamiyatga ega ushbu ko'rsatmasi sharq mutafakkirlari hayoti va ijodini yanada chuqurroq o'rganish va yangi jamiyat asoslarini yaratishda ulardan unumli va o'rinli foydalanishga zamin yaratdi.

¹ Karimov I.A. "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz". 7-jild. Toshkent, O'zbekiston. 1997, 97-bet

² Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", Toshkent, O'zbekiston. 1998, 134-bet

³ Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", Toshkent, O'zbekiston. 1998, 144-bet

Qadimgi zamonlardan oq Turon, Turkiston xalqi o'zining ko'hna boy merosi, rang-barang va yuksak madaniyati, urf-odati va an'analari bilan ajralib turgan. Bu xalqning buyuk siymolari milliy va jahon ilm-fani madaniyatining barcha sohalari rivojiga salmoqli hissa qo'shib kelganlar.

Ana shunday allomalardan biri Abu Nasr Forobiyning davlat va jamiyat, odob – axloq, siyosat va huquq haqidagi qarashlarini o'rganish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Forobiyning ilmiy merosini o'rganish orqali biz insoniyat tarixi davomida vujudga kelgan o'tkir ijtimoiy – axloqiy muammolarga javob topamiz.

Tadqiqot ishining dolzarbligini yana quydagi omillar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, Forobiyning ilmiy faoliyati, boy, madaniy va ma'naviy merosini chuqur o'rganish orqali bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo qilish, ma'naviy hayotni yuksaltirishda, avvalo yosh avlodni barkamol avlod qilib tarbiyalashda, undan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, davlat boshqaruv ishlariga yosh rahbar kadrlarni tayyorlashda, ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda buyuk allomalarimizning boy ma'naviy merosidan imkon qadar kengroq foydalanish, ayniqsa, Forobiyning asarlaridagi ijtimoiy – falsafiy g'oyalarni singdirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Uchunchidan, xalqimizning madaniy merosi, yuksak ma'naviy qadriyatlarini chuqur va atroflicha o'rganib, ularni Respublikamizda yashovchi har bir insonning ongiga singdirish, ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy yetuk, fidoyi kishilar etib tarbiyalash hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

To'rtinchidan, Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarini chuqurroq o'rganish va tatbiq etish orqali rahbar kadrlarning ma'naviy va kasbiy salohiyatini yuksaltirish, ularni vatan tuyg'usi, mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Ayniqsa, yoshlarni xalqimiz turmish tarziga, ma'naviyatiga yod illatlardan asrashda Forobiyning ma'naviy merosi beqiyos ahamiyatga ega.

Istiqlol tufayli diyorimizda tub o'zgarishlar sodir bo'lib, o'zligimizni angladik. Ma'naviy merosimizni o'rganish, ayniqsa, buyuk allomalarimizni kishilik fani, madaniyati va ma'rifatiga qo'shgan ulkan hissalarini nafaqat avlodlar, balki butun jahon e'tirof etmoqda.

Prezident I.A.Karimov aytganlaridek, "Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz¹".

Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mutafakkirlar, shular qatorida Forobiy yaratgan fan va madaniyatning barcha sohalariga taalluqli nodir asarlar, qimmatbaho fikr-mulohazalar hozirgi kunda ham jahon xalqlari ma'naviy dunyosini boyitib, ularning ma'naviy kamolotiga xizmat qilib kelmoqda.

Shuni alohida aytish kerakki, o'zbek xalqining uzoq tarixiy taraqqiyoti davrida madaniy va ma'naviy madaniyati bir tekisda rivojlangan emas. Unda biz uyg'onish, yuksalish bilan bir qatorda deysinish, turg'unlik holatlarini ham kuzatishimiz mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlari o'tgan ming yillar mobaynida Xitoy, yunon, arab, mo'g'ul, rus istilochilari tomonidan zabt etilgan. Istilochilar xilma-xil bo'lsa ham ularning hududimizdagi biron-bir ko'chamiz, shahrimiz, katta-kichik daryomiz, baland-past tog'imiz yo'qki, u bir necha nom bilan atalgan. Bu istilochilarning manfur siyosati, o'z xalqining tili va madaniyatini ustun qilib ko'rsatish, mahalliy xalqning tarixi va ma'naviyatini kamsitib, soxtalashtirib yoki inkor etish oqibati edi, "hatto milliy libos ham qoralandi²".

Xalqni o'z ma'naviyati va madaniyatidan mosuvo qilib, xotirasiz manqurtlarga aylantirib, so'nggi qariyb bir yarim asr mobaynida chorizm va bolshevizm mustamlakatchilarining ham bosh siyosati bo'lib kelganligi hammaga ayon.

¹ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent, O'zbekiston, 2008, 48-bet.

² Karimov I.A "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida", Toshkent, O'zbekiston. 2012, 178-bet

Mazkur siyosat oqibatida biz tilimiz, madaniyatimiz, tariximizga bepisandlik bilan qaradik, o'tmishimizni zo'r berib qoralash va kamsitish yo'lini tutdik. Bir necha ming yillik madaniy merosimizni, milliy tariximizni, milliy ana'analar, urf-odatlarimizni unuta boshladik. Jahon xalqlari madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan islom ta'limotini ko'r-ko'rona inkor etdik. Dindorlar ma'naviy tahqirlandi, ularning huquqlari cheklab qo'yildi, bayramlar oyoq osti qilindi, tariximiz bir tomonlama va yuzaki o'rganildi.

Mustaqilligimiz tufayli, bularning hammasiga barham berildi, ma'naviy hayotimizda uyg'onish yuz berdi. Xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori, ma'naviy dunyosi kundan-kunga boyib bormoqda. Bu esa mustaqil davlatimizning ma'naviy asosini yanada mustaqil mustahkamlashga xizmat qilmoqda, lekin shuni alohida qayd etishimiz kerakki, milliy o'z-o'zini anglash, o'zbekchilik – millatchilik degan ma'noni bildirmaydi. Milliy uyg'onish, milliy g'urur, milliy tuyg'uning tiklanishi – bu milliy rivojlanish bilan uzviy bog'liq bo'lgan tabiiy qonuniy jarayondir¹.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimiz qayta tiklanib yanada rivojlangandagina jamiyatimizda o'tkazilayotgan islohotlar muvaffaqiyatli amalga osha oladi, chunki ma'naviy barkamol, ma'rifatli, ruhan bardam, yangicha tafakkurlash qobiliyatiga ega insongina istiqlol va taraqqiyot yo'lini sharaf bilan o'tay oladi. Shunday ekan, xalqimizning madaniy merosi, yuksak ma'naviy qadriyatlarini chuqur va atroflicha o'rganib, ularni Respublikamizda yashovchi har bir insonning ongiga singdirish, ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy yetuk, fidoyi kishilar etib tarbiyalash hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti va predmetining belgilanishi.

Tadqiqot ob'ekti - Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ma'naviy, axloqiy qarashlarini o'rganish.

Tadqiqot predmeti - Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asari insoniyat ma'naviyati olamida tutgan o'rnini o'rganish jarayoni.

¹ Karimov I.A “Ijobiy ishlarimizni oxiriga yetkazaylik”, Toshkent, O'zbekiston. 1994, 5-bet

Tadqiqot maqsadi va vazifalari: Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarini jahon ma'naviyati olamida tutgan o'rnini ko'rsatib berish.

Buning uchun o'z oldimimga quyidagi vazifalarni qo'ydik:

— Abu Nasr Forobiyning hayoti, ijodi va uning ma'naviy qarashlarini o'rganish;

— Abu Nasr Forobiyning jahon ilmi va ma'naviy merosiga qo'shgan hissasi o'rganish;

— Abu Nasr Forobiy asarlaridagi ma'naviy qarashlar va ularning O'rta Osiyo xalqlari milliy merosi bilan uyg'unligini o'rganish;

— Abu Nasr Forobiyning ijodiy faoliyatida fuqarolik jamiyati asoslarini aks ettiruvchi g'oyalarni ilmiy-nazariy tahlil qilib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish;

— Forobiy ta'limotida johillik va ommaviy madaniyatga munosabat masalasini ko'rsatib berish;

— Yosh rahbar kadrlarni ma'naviy tayyorlashda “Fozil odamlar shahri” asarining o'rni va ahamiyatini o'rganish;

— Asrlar mobaynida shakllanib kelgan xalqimizning yuksak ma'naviyati va ma'rifiy tizimini o'rganish, O'zbekistonda xalq ma'naviy merosi namunalari orqali adolatli jamiyat orzusi haqidagi g'oya va qarashlarni o'rganish va ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati mavzusida yangicha qarashni shakllantiradi.

Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarini o'rganish, uning ma'naviyat olamida tutgan o'rnini ko'rsatish jamiyatni tadrijiy rivojlanishi uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini chuqur falsafiy va ilmiy farazlar asosida isbotlab berish zarurligini belgilaydi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar va islohotlar natijasida, jahon sivilizatsiyasi talablariga mos keladigan hamda sharqona ma'naviyatga asoslanadigan, yangicha yashash tamoyillari ustivorligini ta'minlash vazifalari hal qilinmoqda. Respublikamiz jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida o'z taraqqiyot yo'lini mustaqil belgilab oldi. O'tgan davrning sinfiy-partiyaviy mezonlari va hukmron mustabidlik mafkurasining

tamoyillari o'tmishga aylandi. Ularning o'rniga yangi jamiyatni qurish, ya'ni demokratik tamoyillarga asoslangan fuqarolik jamiyatini qurish, jamiyat a'zolarining maqsad muddaolarini, orzu-intilishlari va kelajak niyatlarini ifodalovchi milliy g'oya va axloqiy strukturasi omillari shakllanmoqda. Bugun bu omillarning samaradorligini oshirishga mazkur jarayonlar asnosidagi turli muammolarni hal qilish, turli vazifalarni yechish bilan bog'liq bo'lgan masalalar dolzarbligi bilan ajralib turibdi. Bu esa fuqarolar uchun milliy ma'naviy merosimizni o'rganish va keng jamoatchilikka tatbiq etish orqali milliy g'oyani shakllantirish bilan bog'liq ehtiyojlar, talablar, intilishlar va amaliy faoliyatning yo'nalishlarini uyg'unlashtirishni zaruriyatga aylantiradi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari, shundan iboratki, O'rta asr Sharq mutafakkirlarining ma'naviy-axloqiy qarashlarini o'rganish axloqiy meros manaviyatning muhim sohasi sifatida barkamol avlodni tarbiyalashda asosiy omillardan biri rolini bajaradi, ayni paytda bunda vorisiylik qonuniyatidan ijodiy foydalanish milliy mustaqillikning manaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili: Forobiyning falsafiy qarashlari, uning inson tarbiyasi, ma'naviy olamida tutgan o'rni, jamiyat va davlat muammolariga doir fikrlarini tahlil etishda qadimgi sharq mutafakkirlarining bebaho asarlari, olimlarimiz qarashlari, shuningdek, Prezident I.A.Karimovning asarlaridan keng foydalanildi.

Tarixiy taraqqiyot davomida insoniyat Abu Nasr Forobiy ijodiga hurmat bilan qarab, uning merosini chuqur o'rgangan va o'rganmoqda. Yevropo olimlaridan B.N.Shtrenishneyder, Karra de Vo, T.U.Buur, R.Xammond, R.de Erlanje, F.Deteritsi, G.Farmer, N.Rishar, G.Ley, Sharq olimlaridan Nafisiy, Umar Farrux, Turker, M.Maxdi, Zahiriddin al-Bayhaqiy, Jamoluddin al-Kiftiy va boshqalar Abu Nasr Forobiy merosini o'rganishga muayyan hissa qo'shdilar. Keyingi yillarda uning ijodi va ta'limotiga bag'ishlangan bir qancha ta'limotlar, asarlar yuzaga keldi.

Forobiy ilmiy merosini ayniqsa, uning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlarini o'rganishda, tahlil qilishda katta ilmiy izlanishlar, amalga oshirilgan. Jumladan, M.M.Xayrullaev, T.I.Raynov, I.Mo'minov, T.N.Qoriniyozov, S.N.Grigoryan, A.Baxovuddinov, F.Muhiddinova Forobiy ta'limotini o'rganishga salmoqli hissa qo'shganlar¹.

Tadqiqotda qo'llaniladigan uslublarning qisqcha tavsifi: Jahon fani olamiga buyuk hissa qo'shgan olimlarning fikrlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning buyuk allomalar qarashlari haqidagi asarlari. Tadqiqot ishida quydagi metodlardan foydalanildi: induktiv, deduktiv, analiz, sintez, tarixiylik va mantiqiylik, analogiya, kuzatish, taqqoslash, oddiydan murakkabga, umumlashtirish.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati: Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi ma'naviy – axloqiy qarashlari jamiyat ma'naviy hayotini rivojlantirishda, shuningdek, rahbar kadrlar va yosh avlodni axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Shu sababli undan milliy g'oya va ma'naviyat asoslari bo'yicha ma'ruzalar o'qishda, seminar darslarida, magistrlik dissertatsiyalari, kurs ishlari, o'quv adabiyotlarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi. Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosi avval xam o'rganilgan, keyin ham o'rganilishi zarur deb o'ylayman. Lekin Abu

¹Qarang:

Xayrullayev M.M. Forobiy va uning falsafiy risolalari. Toshkent .1963.281-bet.

Хайруллаев М. Мировоззрение Фараби и его значение в истории философии. Тошкент. 1967;

Хайруллаев М. Фараби. Эпоха и учение. Тошкент. 1975;

Хайруллаев М. Абу Наср Фараби. Тошкент. 1961;

Хайруллаев М. Об изучении научного наследия Абу Насра Фараби в Узбекистане // Общественные науки в Узбекистане., 1961, №4.;

Хайруллаев М. Абу Наср ал-Фараби .Москва. 1982;

Хайруллаев М. Фараби и его философские взгляды. Москва. 1975, Фараби - крупнейший мыслитель средневековья. Тошкент. 1973;

Хайруллаев М. Ikkinchi muallim. G'G' Guliston. Tpshtkent. 1975, №9; Xayrullaev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. T. 1971;

Хайруллаев М. Sharq renessansi va Forobiy. Fan va turmush, Toshket. 1975, №10;

Григорян С.Н. Средневековая философия народов Ближнего и Среднего Востока. Москва. 1966, 352-бет;

Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана ВИИ-ХИИ вв. Москва. 1960;

Григорян С.Н. Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока IX-XIV в. Москва. 1961; Григорян С.Н. Великие мыслители Средней Азии. Москва. 1958, серия ИИ, №77.

Бурибойев М.С и.д. Социально-этические и эстетические взгляды Ал-Фараби. Алма-Ата. 1984, 176-бет;

Бурибойев М.С., Иванов А.С., Харенко Е.Д и.д. О логическом учении ал-Фараби. - Алма-Ата. 1982.

Nasr Forobiyning ijtimoiy – huquqiy, siyosiy qarashlari o'rganilgan bo'lsada, asarlaridagi ma'naviy qarashlari borasida kam o'rganilgan. Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ma'naviy – axloqiy qarashlarni o'rganish borasida amaliy takliflarni tavsiya etish, oliy ta'lim muassasalarida bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni ilmiy jihatdan asoslash, mavzuning ilk bor ish darajasida talqin etish tadqiqotning ilmiy yangiligini tashkil etadi.

Tadqiqotni olib borish bosqichlari:

Tadqiqot davri: 2011-2013 yillar.

1-bosqich – 2011-2012 yil; tadqiqot mavzusini tanlash va ilmiy rahbarning belgilanishi.

Tadqiqot rejasini tuzib chiqish tanlangan mavzu dolzarbligini aniqlash. Tanlangan mavzu bo'yicha hozirgi kungacha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining qisqacha tahlili. Mavzu bo'yicha maqola tayyorlash. Tadqiqot maqsad va vazifalarini belgilab olish va to'g'ri bayon etish. Tadqiqot metodini tanlash. Magistrlik dissertatsiyasi asosiy qism materiallarini tayyorlash. Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan metodik tavsiyalarni tayyorlash. Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan kafedra ilmiy seminarida ma'ruza qilish. Tadqiqot mavzusi yuzasidan ilmiy-metodik maqola tayyorlash. Ilmiy Tadqiqot ishi bo'yicha hisobot tayyorlash.

II bosqich – 2012-2013 yil; ilmiy ish bo'yicha Tadqiqot olib borish, ilmiy maqola chop ettirish, dissertatsiyani ichki himoyaga tayyorlash va himoya qilish.

Ilmiy ishning kompyuter nusxasini ilmiy rahbarga topshirish. Ilmiy rahbar mulohazalarini hisobga olib tuzatish va kafedra jamoasi muhokamasiga topshirish. Muhokamada bildirilgan fikrlarni e'tiborga olib ilmiy rahbar bilan hamkorlikda dissertatsiyaning oxirgi, mukammal nusxasini taqrizchilarga topshirish. Nihoyat, uni himoyaga havola etish.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi: Ish uchta bob, har bir bob 2 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

I. BOB. ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY MEROSI MARKAZIY OSIYO XALQLARI MA'NAVIYATIGA TA'SIRI

1. Abu Nasr Forobiyning jahon ilmiga va ma'naviy merosiga qo'shgan hissasi

Abu Nasr Forobiyning jahon ilm – fani va ma'naviyat olamiga qo'shgan hissasini gapirishdan oldin, uning hayoti hamda u haqida muarrixlarning bergan ma'lumotlariga to'xtalib o'tishni joiz topdik. Forobiy 873 yilda Aris suvining Sirdaryoga quyiladigan joyidagi Forob qishlog'ida tavallud topgan. 950 yilda Damashqda vafot etgan. Tadqiqotlarga ko'ra, bu joy Shosh (Toshkent)dan shimolroqda joylashgan bo'lib, u yerda asosan turkiy qabilalar yashaganlar va bu joy keyinchalik O'tror deb ham yuritilgan¹. Bu haqida Zahiriddin Abulhasan Ali ibn Abulqosim Zayd al- Bayhaqiy (vafoti 565\1169 yil) o'zining “Hikmat sandig'iga qo'shimcha” (Tatimat sinov al-hikma) asarida yozishicha: «Shayx Abu Nasr al- Forobiyning oti Muhammad Ibn Tarxon bo'lib, asli Turkistonning Farob degan joyidan. “Ikkinchi muallim” deb taxallus olgan. Islom o'lkalari olimlari orasida undan oldin bunchalik o'tkir odam bo'lmagan edi.

Aytishlariga qaraganda, hakimlar aslida to'rtta bo'lgan, ikkitasi islomdan oldin chiqqan, ular Arastu va Iskandar bo'lishgan, ikkitasi islom davrida yetishgan, ular Abu Nasr bilan Abu Ali ibn Sinodir. Abu Nasrning vafoti bilan Abu Alining to'g'ilishi orasida o'ttiz yil farq bor. Abu Ali bo'lsa Abu Nasrning kitoblari orqali unga shogird sanalgan. Abu Ali ibn Sino, Men “ Mo ba'da at tabia” (Tabiatdan tashqari narsalar)-kitobining maqsadlarini tushunolmay, diqqat bo'lib yurardim, bir kuni Abu Nasrning bu boradagi kitobini topib qoldim, bunday kitob topganimdan xursand bo'lib, xudoga shukr qilib, ataylab ro'za tutdim, faqrlarga xayr-sadaqa ulashdim, - deydi²».

¹ Xayrullayev.M. “Forobiy va uning falsafiy risolalari”, Toshkent., 1963. 353-bet.

² Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri”. Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993, 192-193-betlar

Forobiyning jahon ilmiga qo'shgan hissasi haqida Abu ul-Hasan Ali ibn Yusuf al-Qiftiy o'zining "Tarix al-hukamo" (Hakimlar tarixi) asarida shunday yozadi: "Abu Nasr al-Forobiy Movarounnahrdagi turk shaharlaridan biri bo'lmish Farobdan chiqqan faylasuf. Bu kishi musulmonlardan yetishib, tan olingan hakim sanaladi, Iroqqa boradi va Bog'dod shahrida turib qoladi. Abu Nasr bu shaharda Yuhanno ibn Xiylondan hikmat ilmlarini o'rganadi. Faylasuf Yuhanno ibn Xiylon xalifa al-Maqtadir zamonida Madinat as-Salom shahrida vafot etgan. U yerda Abu Nasr bu kishidan ilm o'rganadi va o'sha davrda tengi yo'q olim bo'lib yetishdi. Mantiqqa oid kitoblarni tatqiq qildi va sharhlashda ko'p ish qildi. Mantiqning qiyin joylarini oydinlashtirdi, ko'pchilikka noma'lum bo'lgan yashirin sirlarini ochdi va undan foydalanishni osonlashtirdi. Nihoyat, u o'z asarlarida mantiqdan foydalanish uchun tushunarli iboralar, nozik ishoralar qolladi, hatto mantiqni sharhlash, o'rganish va tahlil qilishdagi al-Kindiy va boshqalar yo'l qo'ygan xatolarni ham ko'rsatib o'tdi.

Abu Nasr mantiqni izohlashda har bir so'zni undagi beshta modda asosida tahlil qiladi, shu yo'l bilan uni foydalanib bo'ladigan darajada ketradi, ularni ishlatish yo'llarini tushuntirib beradi. Shuning uchun ham al-Forobiy kitobi fanda g'oyatda yetuk, barkamol asar sanaladigan bo'ldi¹."

Undan tashqari, Abu Nasrning "Ihso al-ulum va at-ta'rif" (Ilmlarni hosil qilish va uning maqsadlarini tushuntirish) to'g'risida yozilgan qutlug' kitobi bor. Bunday asar yozishda shu mahalgacha Abu Nasrdan hech kim o'zib ketolmagan, hatto bu xil fikr – mulohazalarni ungacha hali hech kim ayta olmagan, u kishi yetishgan darajaga erisholmagan ham, tolibi ilmlarning hammasi ham uning bu tutgan to'g'ri yo'lidan foydalanmay qolmagan.

Abu Nasrning Aflotun va Arastu falsafasidagi g'oyalariga bag'ishlangan kitobi uning falsafa sohasida peshqadamligidan va hikmat fanlarini chuqur tahlil qilishidan darak beradi. Bu kitob hikmatdagi nazariy yo'llarni o'rganishda juda katta dastak bo'ldi va u orqali muallif barcha ilm sirlari va uning natejalarini alohida-alohida egallash yo'llarini bildirdi. Ilmlar qanday qilib soddalikdan

¹ Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri". Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993, 193-bet

murakkablik darajasiga o'sib rivojlanib yetganini bayon qildi. Keyin shu vosita bilan Aflotun falsafasidagi g'oyalarni bildirishga kirishdi, bu yerda uning ta'riflarini bir-bir sanab o'tdi. Keyin u shu yo'lni Arastu falsafasini izohlashda davom ettirdi, unga kattagina muqaddima yozdi va tadrijiy ravishda u yerda uning falsafasini bayon qilib berdi.

Ibn al- Qiftiy Forobiyning bu asari haqida shunday yozdi: "Men falsafani o'rganuvchilar uchun undan foydaliroq biror kitob borligini bilmayman¹". Bu asar barcha ilmlarga mushtarak bo'lgan hamda u orqali bilingan ilmlarning o'ziga xos ma'nolarini ham bildiradi. Oldinlari mantiqdagi kategoriyalarning ma'nolari nimadan iborat ekanini tushunib bo'lmas edi, qanday qilib - u ma'nolar barcha ilmlarga eng dastlabki asos bo'lishi mumkinligini xuddi mana shu al- Forobiy asarlaridangina bilish mumkin bo'ldi. Bundan keyin u kishi ilohiyot va shaharlarni boshqarish to'g'risida tengi yo'q ikkita kitob yozdi. Ularning biri «Siyosat al-madaniya» nomi bilan mashhur, boshqasi esa «Siyrat al-Fozila» - «Fozila hulqlar» nomi bilan ma'lum.

Bu ikkala asarda Abu Nasr masalani Arastu yo'li bilan ajoyib usulda ilohiyotda ishlatiladigan oltita ruhoniylar boshlanma – asoslarni tushuntirib berdi. U o'zidagi nizom va hikmatga bog'langan holda jismoniy javharlarning qanday topilishi yo'l-yo'riqlarini ta'riflagan. Mana shu ikkita kitobida Abu Nasr insonning darajalari va nafsoniy quvvatlarini ta'riflagan va vahiy bilan falsafa orasini ajratgan, fozil bo'lmagan shaharlar turlarini va shahar boshqarishda malakiy fazilatlar va payg'ambarlik qonunlariga ehtiyoj borligi tasvirlangan.

Abu Nasr al-Forobiy Abu Bishr Matto ibn Yunusga zamondosh edi. Ammo Abu Nasr undan yosh jihatidan kichik edi, ilmida esa undan ustun edi.

Matto ibn Yunusning mantiqqa oid kitoblari asosiy manbalarga yaqinligi va sersharh bo'lganligi jihatidan Bog'dod va undan boshqa Mashriqdagi musulmonlar turadigan katta shahar olimlari unga murojaat qilardilar.

Abu Bishr Bog'dodda ar-Roziy xalifaligi davrida vafot etdi. Abu Nasr Halab shahriga borib, o'sha yerda amir bo'lgan Sayfuddavla Abu-l-Hasan Ali

¹ Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri". Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993, 198-bet

Abu-l-Hijo Abdulloh ibn Hamdon huzuriga tasavvuf ahli kiyimida kirib, uning dargohida hurmat va e'tibor qozonadi. Shunda Sayfuddavla uni taqdirlab, izzat-ikrom qiladi. Amir uni ilmdagi darajasi va masalalarni tushunishdagi o'rnini bilib, hatto o'zining Damashqqa qilgan safarida u bilan birga suhbatlashib ketadi.

Abu Nasr al-Forobiy uch yuz o'ttiz to'qqizinchi yili vafot etdi – deb yozadi.

Buyuk olim va faylasuf Abu Nasr Forobiy haqida qimmatli ma'lumotlarni Ibn Xallikon bergan. Ibn Xallikon Abu Nasr Forobiy haqida dastlabki berilgan ma'lumotlar bo'lganligi uchun har bir satri bebaho. Shuning uchun Forobiy ijodi yoki uning davriga oid ma'lumotlar bilan tanishmoqchi bo'lganlar, albatta, bu borada Ibn Xalikon yozgan «Va foyot al-ayon va anbu az-zamon» (“Ulug'lar vafotlari va zamon o'g'lonlari”) asariga murojat qilmay qo'ymaydilar. Zeroki, bu kitob bundan rosa yetti yuz yil muqaddam yuzaga kelgan. Yetti yuz yil olimlar Forobiyni qanday taqdirlaganlar, uning o'zi qay darajada yozilgan – bularni o'qib olimning fikr doirasi, mavqei va asarlari ahamiyatini bilish mumkin bo'ladi. Chindan ham o'sha davrdagi ahli ilm uning qadriga yetib, iloj boricha undan foydalanganlar, asarlarini mutolaa qilishni orqaga surmaganlar.

Ibn Xallikon yozadi: “Abu Nasr Forobiy mantiq, musiqa ba bu ikkala fandan tashqari yana bir qancha sohalarga oid asarlar muallifi hamda u musulmonlarning eng yerik faylasuflaridan sanaladi. Hech kim bu kishichalik ilmfan darajasiga erisholmagan. Yuqorida zikr qilib o'tilgan Abu Ali ibn Sino uning kitoblaridan ko'p narsa o'rgangan. Abu Ali ibn Sinoning so'ziga qaraganda, u Forobiy asarlaridan bahramand bo'lgan. Bu kishi aslida turk bo'lgan, o'z yurtida tug'ilib o'sgan. Dastlabki ta'lim-tarbiyani O'tror shahrida olgan Forobiy, o'z yurtidan chiqib, boshqa o'lkalarga sayohat qilishga tushadi, hatto Bog'dod shahriga yetib keladi. Shu yerda turk tili bilan bir qatorda, arab tilidan tashqari, bir necha tillarni bilardi. Abu Nasr Bog'dodda arab tilini o'rganishga kirishib, uni juda mukammal bilib oladi. Keyin bu til orqali u hikmat – falsafiy ilmlarni o'rganishga tushadi¹”.

¹ Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri”. Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993, 201-bet

Abu Nasr Bog'dod shahriga borgan kezlarda mashhur hakim Abu Bishr Matto Yunus o'sha yerda ekan. Bu kishi mo'tabar ulug' olim bo'lib, undan odamlar mantiq ilmini o'rganar edi. Bu paytda uning shon-shuhrati baland, tevarak-dong'i ketgan edi. Uning davrasida har kuni yuzlab mantiq ilmiga kirishganlar ta'lim olishardi. U Aristotelning mantiqqa oid kitobini o'qir va shogirdlariga uni sharhlab yozdirardi. Hatto u Arastu asarlari sharhiga oid yetmishta kitob yozdi. U mahallarda bu fanda unga teng keladigan birorta odam bo'lmagan. U o'z fikrlarini chiroyli va ravshan qilib yozar, ishoratlarini esa nazokat bilan bitardi, o'ziyam soda ifodali, lo'nda fikrli kishi edi. Shuning uchun ham hatto bu fan ahlidan bo'lmish bir faylasuf: "Menimcha Abu Nasr Forobiy iboratlarida o'z fikrlarini soda va lo'nda qilib ifodalashni faqat o'sha zikr qilingan Abu Bishrdangina o'rgangan", deydi Ibn Xallikon.

Abu Nasr doimo o'z shogirdlari davrasida bo'lar, ular yig'inlarida qatnashar edi. Shu tariqa bu yerda bir muncha vaqt hayot kechirib, keyin Harron shahriga yo'l oladi. Chunki, bu yerda nasroniylardan bo'lmish faylasuf Yuhanno ibn Xiylon bor edi. Abu Nasr u yerda kelib, o'sha olimdan mantiq ilmi usullarini o'rgangan. Keyin u Bog'dod tomonga qaytadi va u yerda falsafa ilmlarini o'rganadi. Arastuning barcha kitoblarini mutolaa qiladi, ulardagi nuqtalar ma'nolarini yechishda va muallifning bu boradagi maqsadini ifodalashda benihoyat mahorat qozonadi.

Aytishlariga qaraganda, Aristotelning «Jon haqida» asarining Abu Nasr Forobiy mutolaa qilgan nusxasi topilgan. Ana shu kitobda Forobiy o'z qo'li bilan "men shu kitobni yuz marta o'qidim" deb yozib qo'ygan ekan. Bu olim to'g'risida naql qilganlarning gapiga qaraganda, Abu Nasr Forobiy Arastuning «Fizika» asarini qirq marta o'qidim-u, lekin uni yana qayta o'qishim kerak, der ekan.

Abu Nasr Forobiydan haqida rivoyat qilishlaricha,

Bir gal undan:

- Falsafa sohasida kim o'tkir – Sizmi yo Arastumi?
- deb so'rashadi.

Shunda Abu Nasr savol berishga javoban:

- agar men u kishining qo'lida ta'lim olishga muyassar bo'lganimda edi, u holda men uning eng katta shogirdlaridan biri bo'lgan bo'lardim, - degan ekan.

Abu-l-Qosim Soid ibn Ahmad ibn Abdurahmon Soid al-Qurtubiyning «Taboqot al-Hukama kitobi» (Hakimlar darajasi haqida kitob)da Abu Nasr Forobiyni eslab shunday yozadi:

“Al-Forobiy musulmonlardan chiqqan chin faylasuf edi, u mantiq san'atini Yuhanno ibn Hiylondan o'rganadi. Bu kishi Bog'dod shahri mutavallisi bo'lib, al-Maqtadir davrida Madinat as-Salom (Tinchlik shahri)da vafot etgan edi. U barcha islom dunyosida yakkayu yagona bo'lib ajralib chiqib, o'z asarlarida mantiq ilmining yashirin sirlarini ochdi, undagi atama va iboralarni osonlashtiradi, odamlarning mantiqdan foydalanish uchun tushunarli iboralar, nozik ishoralar qo'lladi, hatto mantiq san'atini sharhlash, o'rgatish va tahlil qilish ishida al-Kindiy va boshqalar yo'l qo'ygan beparvoliklarni ham ko'rsatib o'tgan”.

Abu Nasr mantiqdagi besh moddani o'z asarlarida ochiq – oydin qilib ifodaladi va ularni ishlatish yo'llarini tushuntirib berdi. Mana shu besh moddaning har birida qiyos suvrati – shaklini qanday ishlatish kerakligini anglatdi. Mana shunday bo'lgani uchun uning kitobi bu fan sohasida g'oyat yetuk, nihoyatda (yagona) sanaladi.

Undan tashqari Abu Nasrning «Ilmlarni hosil qilish va uning maqsadlarini tushuntirish» to'g'risida qutlug' kitobi bor. Bunday asar yozishda undan hech kim o'zib ketalmagan, hatto bu xil fikrlarni ungacha hech kim aytoilmagan va u yetishgan darajaga yetisholmagan, tolibi ilmlarning hammasi ham uning bu tutgan to'g'ri yo'lidan foydalanmay qolmagan.

Mana shu xabar bilan Ibn Soid so'zi tugaydi. So'ngra bu kishi Forobiy ta'lif(asar)lari va ulardagi maqsadlarga to'xtab o'tadi.

Abu Nasr Bog'doddagi chog'larida mantiqni chuqurroq o'rganishga kirishadi. Natijada u bu sohada zamondoshlari orasida tengi yo'q darajaga yetishadi. Abu Nasr o'zining ko'pchilik asarlarini xuddi mana shu yerda yozadi. Keyin u yerdan Damashq tomon safar qiladi. U yerda ham ko'p turmay, Misrga yo'l oladi.

Abu Nasr Forobiy «Siyosat al-madaniya» (“Shaharlar ustida siyosat yurgizish”) deb atalgan kitobida eslashicha, u bu kitobni Bog’dodda yoza boshlagan, uni Misrda tugatib, mukammal holga keltirgan. Keyin yana Damashqqa qaytib kelgan va shu yerda turib qolgan. O’sha paytlarda amir Sayfuddavla ibn Hamdon Abu Nasr bilan yaxshi munosabatda bo’lgan ekan.

Abu Nasr Damashqqa kelgach, Sayfuddavlaning huzuriga kiradi. Amir, odatga ko’ra, tevaragiga olimu fozillarni to’plab, suhbatlashib o’tirgan ekan, Abu Nasr amir dargohiga kirib kelganida u o’zining turk kiyimida yurar edi. U asta ichkariga kirib keladi-da, amirga yuzlanib tippa-tik turib qoladi. Shunda amir unga qarab:

- O’tir ! – deydi.

Abu Nasr:

Qaysi joyga, o’z darajamga qarabmi yo sen aytgan joygami?- deydi.

- O’z darajangga qarab o’tir, - deydi Sayfuddavla.

U dadil yurib, to’rga ravona bo’ladi, to’g’ri, Sayfuddavla o’tirgan kursi oldiga kelib to’xtaydi. Hatto amirni o’tirgan joyidan sal nariga surib ham yuboradi.

Odatda Sayfuddavlaning huzurida mamluklar – xizmatkorlari hoziru nozir bo’lguvchi edi. Amir bo’lsa ko’pchilik odamlar oldida gapirib bo’lmaydigan bekitiqchi gaplarini o’zi va o’sha xizmatkorlari biladigan maxsus tilde gaplashardi. Bu tilni ulardan boshqa hech kim bilmas edi. Shunda amir o’sha tilda o’z odamlariga qarab:

- Qanday beodob chol ekan! Hay mayli, men undan ba’zi narsalarni so’rayman, agar to’g’ri javob berolmasa, boplab adabini berib qo’yasizlar, - deydi.

Amir shunday deyishi bilan Abu Nasr o’sha tilde unga qarab:

- E amir, biroz sabr qil, - chunki, har bir ishning oqibatiga qarab hukm chiqariladi, - deydi.

Abu Nasrning bu gapidan Sayfuddavla dahshatga tushadi, keyin unga:

- Bu tilni bilasmi? – deydi.

Abu Nasr unga javoban,

- Ha, - deydi, - men yetmishdan ortiq til bilaman.

Abu Nasr shu gapini aytishi bilan amir unga boshqacha qaray boshladi va hozir bo'lgan olimlar bilan har xil fanlardan gaplashib ketdi. Shunda Abu Nasrning har jihatdan ustunligi ayon bo'ladi, bora-bora yig'ilganlarning ko'pchiligi suhbatni to'xtatib, jim qoladilar, faqat Abu Nasrgina suhbatni davom ettirar edi. Uning og'zidan chiqqan har bir gapni majlis ahli yozib olar edilar. Oxiri Sayfuddavla olimlarni jo'natib yuborib, Abu Nasr bilan yolg'iz qoladi. Amir o'z suhbatdoshiga qarab:

- Biror narsa yeyishga qalaysan? – deydi.

Abu Nasr unga:

- Hech narsa yemayman, - deydi.
- Biror narsa ichishga-chiq – deydi amir.
- Yo'q, - deydi Abu Nasr.
- Bo'lmasa, biror shirin kuy eshitishga rag'bating borki? – deydi amir.
- Xa, bor, - deydi Abu Nasr.

Sayfuddavla mutribu mashshoqlarni chaqirtiradi. Chorlangan mashshoqlar qaysi kuyni mashq qilsa, Abu Nasr, sen falon joyda piston xatoga yo'l qo'yding, deb uning kamchiligini ko'rsatib turardi. Buni ko'rib, Sayfuddavla Abu Nasrdan,

- Bu san'atdan ham xabaring bormi, deyman, - deb so'raydi.

- Ha, - dedi Abu Nasr, u shunday dedi-yu, belidagi to'rvasini ochib, undan bir necha cho'p oldi, ularni bir-biriga uladi, so'ng chalib mashq qila boshlagan edi, davrada o'tirganlar o'zlarini tutolmay kula boshlashdi. Keyin olim o'sha cho'plarini boshqacha qilib biriktirib chalgan edi, yig'ilganlar piq-piq yig'lashga tushishdi. Olim cho'plarni boshqacha tartibga solib chalgan edi, amirdan tortib darvozabongacha hamma dong qotib uxlab qoladi, Abu Nasr esa fursatdan foydalanib, saroydan chiqib ketadi¹.

Rivoyatlarga ko'ra, «Qonun» (chang) degan musiqa asbobini Abu Nasr ixtiro qilgan. Abu Nasr doimo yolg'iz yurar va yo'g'iz yashar edi. Bir qancha vaqt Abu Nasr Damashqda yashaydi. U bog'-rog'li, bahavo yerlarni xush ko'rar va o'shanday joylarda o'tirib, kitob mutoala qilar edi.

¹ Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri". Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993, 204-bet

Abu Nasrning oldiga tez-tez ilm ahllari kelib turar edilar, olim o'z mutoalalarini katta daftarlarga yozmas, yozsa ham bunday hol hol kamdan-kam yuz berar ekan. Uning ko'pchilik asarlari ma'lum fasllardan iborat ekanligi sababi ham shunda.

Abu Nasr mol-dunyoga sira havas qo'ymagan, u na tirikchilikka van a uy-joy qilishga e'tibor bergan. Sayfuddavla uning uchun o'z xazinasidan kuniga to'rt dirham ajratib turgan. Shu tariqa u g'aribona hayot kechirib, uch yuz o'ttiz to'qqizinchi yili (950-yil) sakson yoshida Damashqda vafot etdi.

Ibn Soid al-Qurtubiy o'zining «Tabaqot al-atibbo» (Tabiblar darajasi kitobi) da Forobiyning vafoti va ko'milishi haqida bunday deydi:

Men bir majmuada Forobiya nisbat berilgan bir necha baytlarni uchratdim. O'sha baytlarda shunda yozilgan edi:

Uzoq yur bo'lsa botil, so'zi yolg'on,
Haqiqat tarqatib ket, bo'lsa imkon.
Bo'ladimi dunyo biz uchun abad uy,
Bas kelmayin o'linga hech bir inson.
Kurraga tushgan chiziqlar bismikan?
Elsa el sal yo'q bo'larmiz shul zamon.
Shul ekan hol bu muxoliflik nechun,
Arzimasga bir-biri birlan hamon?
Jondan ajralganlik a'lomaskukan,
Aylamakdan bunchalik to's-to'polon?!

Bu baytlarni al-Imod o'zining «al-Xarida» kitobida Shayx Muhammad ibn Abdulmalik al-Forobiy al-Bog'dodiy al-Dorga tegishli degan gapni ham ko'rganman deb yozadi¹.

Tarxon va O'zlug' turk nomlari bo'lib, Forobiy – bu kishining taxallusidir. Bu taxallus esa o'sha Farob degan joyga nisbatan aytilgan. Bu joyni hozir O'tror deb atashadi. Bu nom adabiyotlarda ko'proq ishlatiladi. Bu shahar Shosh (Toshkent) dan yuqorida, Balosog'un shahriga yaqindir. Bu o'lka aholisining

¹ Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri". Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993, 205-bet

hammasi ham Imom Shofiy mazhabida bo'lgan. Balosg'un shahri IX-XII asrlarda turkey xalqlarning yerik markazlaridan biri (Qoroxoniylar, Qoraxitoylar) hisoblangan. Bu shaharni hatto "Ichki Farob" ham deyishgan (ularda "Tashqi Farob" ham bo'lgan). Balosog'un turkey yerlarining chegarasida, Qashg'ar shahriga yaqin joyda, Sayhun (Sirdaryo) daryosining narigi tamonida joylashgan. Qashg'ar shahri esa Chin (Xitoy) diyorining katta shaharlaridan biri hisoblangan.

Abu Nasr Forobiyning hayoti va o'sha davr ma'naviy olamida tutgan o'rni haqida Ibn Abi Usaybia shunday yozadi:

"Bu kishining to'la oti Abu Nasr Muhammad ibn Uslug' Tarxon bo'lib, tug'ulgan shahri Farobdir. Bu joy Xuroson yerlaridagi turk o'lkasiga tegishli bir shahar. Uning otasi qo'shin sarkardasi edi".

Abu Nasr tibbiyotdan ham durustgina xabardor bo'lgan. Bu sohada Forobiy nazariy qismini yaxshi bilgan. Ammo tibbiyotning amaliy – tajriba qismi va juz'iy bo'laklariga kelganda, unga chuqur kirisholmagan.

Sayfuddin Abul – Hasan Ali ibn Abu Ali al- Omadiyning xabar berishiga qaraganda, al-Forobiy Damashqqa dastlab brogan kezlarida bir boqqa qorovul bo'lgan ekan. U o'sh bog'da doimiy hikmat falsafiy bilimlar bilan mashg'ul bolgan. Abu Nasr bu yerda qadimgi yunon olimlarining qarashlari – asarlari va ularga yozilgan sharhlarni mutolaa qilgan. U bechorahol kishi bo'lib, hatto kechalari uxlamay kitoblarni tasnif bilan mashg'ul bo'lar, kambag'alligidan kechalari qorovullikka berilgan chiroqdan foydalanar ekan.

Birmuncha vaqt Abu Nasr shu tariqa hayot kechirgan. Keyin tevarakka ovozasi ketib, obro'si ortadi, yozgan asarlari ham mashhur bo'lib ketadi. Shu bilan uning shogirdlari ham ko'payadi. Natijada Abu Nasr o'z davrining yagona allomasi darajasiga yetishadi. Sayfuddavla boshchiligida tashkil etilgan yig'inlarda Abu Nasrning ishtiroki yig'inlarning qiymati oshirgan, o'zi ham undan bahramand bo'lgan ekan.

Ba'zi mashoyixlarning naql qilishlariga ko'ra, Abu Nasr qo'zi yuragi va rayhon sharbati bilan ovqatlanar ekan. Abu Nasrni dastlabki vaqtlarda qozi bo'lgan

deyishadi. Ilm-ma'rifatga chuqurroq kirishgach Abu Nasr, u bu ishini tashlab, diqqat-e'tiborini bilim o'rganishga qaratadi, mol-dunyoga hech qiziqmas edi.

Aytishlaricha, olim, qorovullik qilish uchun kechasi manziliga bir chiqib kelar ekan-da, chirog'ini yoqib, mutolaaga tushar ekan. Mutolaadan bush hollarda musiqa san'ati bilan shug'ullangan. Bu sohada ham shu darajada barkamol ekanki, hech kim Abu Nasrdan o'tib ketolmagan ekan.

Aytishlaricha, Abu Nasrning hikmat-falsafani o'qishiga bir kishi sabab bo'lgan ekan. O'sha kishi unga Arastuning bir necha kitobini, shu yerda tura tursin, keyin olib ketaman, deb qo'yib ketgani sabab bo'lgan, deyishadi. Kitoblarga ko'zi tushib, ular Abu Nasrning ko'ngligi ma'qul bo'lib qoladi va o'qishga kirishadi natijada yetuk faylasufga aylanadi.

Abu Nasr al-Forobiy falsafa so'zining ma'nosi haqida shunday yozadi: "falsafa so'zi yunoncha bo'lib, arab tiliga chetdan kirgan so'zlardandir". Bu so'z ularning tillarida filosof deb aytiladi. Uning lug'aviy ma'nosi – hikmatni yoqtirish demakdir. Bu so'z yunon tilida «filo» bilan «so'fiyo» so'zlaridan tarkib topgan. «Filo» deganda yoqtirish, sevish tushuniladi: «so'fiyo» deganda esa hikmat, donolik tushuniladi. Faylasuf so'zi falsafadan olingan, bu yunonlarning tilida «filasufus» deyiladi¹. Ularning tilida bu so'zning ma'nosi hikmatni sevish demakdir. Ular bu ibora bilan hayotdan va umr ko'rishdan maqsad hikmatni takidlashdan iboratdir, deyishadi.

Abu Nasr al – Forobiy falsafaning paydo bo'lishi haqida quyidagicha hikoya qilgan:

Yunonlar podshohlari davrida falsafaning ishi yurishib, mashhur bo'lib ketdi. Arastuning Iskandariyada vafotidan to xotin podshohning oxirgi davrigacha shunday bo'ldi.

Arastu vafot etgach, uning ta'limoti qanday bo'lgan bo'lsa, o'sha holda qoldi va shu alfozda o'n uch podshohlik davrigacha yetib keldi. Bunda falsafa muallimlarining o'n ikkitasi ketma-ket keldi. Bularning biri Andronikus nomi bilan mashhurdir. Bu podshohlarning eng oxirgisi xotin kishi bo'lib, uning ustidan Rim

¹ Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri". Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993, 207-bet

podshosi Avgustus g'alaba qozongan, malikani o'ldirib, mol-mulkiga ega bo'lgan edi. Vaqt-soati kelib podshohning nazari kitob xazinalariga tushgan, natijada u bu borada bir qarorga kelgan, o'sha yerdan Arastu zamonida va Teofrastus davrida ko'chirilgan nusxalar edi. U yerda muallimlar va faylasuflar toplanib, ular Arastu yozgan kitoblarga o'xshash ma'noli kitoblar tuzib chiqdilar, so'ng o'sha podshoh buyruq berib, o'rgatish uchun ulardan foydalanish niyatida Arastu va uning shogirdlari davrida ko'chirilgan kitoblarning nusxalari ko'paytirilgan.

Avgustus bu ishlarning chorasini ko'rib qo'yish, ulardan nusxa ko'chirib o'zi bilan birga Rumiya olib ketishni, boshqa bir ko'chirilgan nusxasini esa kitoblar makoni bo'lmish Iskandariya qoldirishni buyurib: bunday ishni bajarishga Andronikus o'rnini bosadigan bir muallim topib quyishni buyurdi. Olim Andronikus esa Avgustus bilan birga Ruma borib, u yerda falsafani o'rgata boshladi. Shu bilan falsafa ikki yerda – Iskandariya va Ruma o'rganila boshlandi va bu boradagi ish shu ikki yerdagina dastlab rivojlandi. Ahvol shu tariqa bo'lib, bu ish to nasroniy – masixiy dini yuzaga kelgunga qadar davom etadi. Keyin falsafani o'rgatish Rumiya inqirozga uchradi, bu ish faqat Iskandariyadagina qoldi. Shu tariqa holat to nasroniylar podshohi o'ylab bir fikriga kelgunga qadar davom etdi. So'ng masixiy usquf – ruxoniylari yig'ilishib, bu ta'limni bekor qilish borasida maslahat qilishdi. Ana shunda bularni tark qilishdan oldin ular falsafaning mantiqqa oid kitoblardan to vujudiya bo'limi – oxirigacha o'rgatishni, undan boshqa qismlarini o'rgatmaslikni lozim topishdi. Chunki ular shunday qilmasa nasroniy diniga zarar yetadi, deb gumon qilishdi. Bu fanning o'rgatilishiga olib qoldirilgan qismidan dinning kuchayishiga foyda tegar, degan umidda bo'lishdi. Foydalanishga loyiq topilgan qismi oshkor ma'lum bo'ldi, qolgan qismi esa uzoq vaqtga qadar, hatto islom dini Movarounnahrda kirib kelgungacha o'rganilmasdan qolib ketgan¹. Yunon falsafasini qaytadan jonlantirishda va tavsif etishda Forobiygacha hech kim shuhrat topmagan edi.

¹ Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri". Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993, 209-bet

Ijtimoiy fanlar taraqqiyotini belgilab bergan olimlardan biri bo'lgan Abu Nasr Forobiy haqida professor B.D. Petrovning yozishicha, “Ovruponi Arestoyel ta’limoti bilan tanishtirish xizmati Forobiyga ta’luqli....¹”

Forobiyning otasi Vasij shahrining Forob tumanidan yer olib, joylashib qolgan, o’g’uz va qarluq qabilasidan chiqqan turk-harbiy boshliqlaridan biri bo’lgan, degan tadqiqot xulosalari mavjud². Mutaakkirning bolaligi shu hududlarda o’tgan bo’lib, u yoshlik chog’idayoq savodini chiqargan va mavjud ilmlardan saboq olgan. Tadqiqotlarga tayanib qayd etish lozimki, O’rta Osiyoda (Movarounnahrda) bolalarni 5 yoshdan boshlaboq savod chiqarish va ilmga o’rganishga berganlar³. Shubhasiz, Abu Nasr iste’dodli, zehni o’tkir bo’lgani bois uning ilmga qiziqishi juda kuchli bo’lgan. Bu ishtiyoqni qondirish maqsadida dastlab Forob, Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida tahsil olgan, keyinchalik u o’z yurtini tark etib, ilm-fan bilan bog’liq hayot qaynab-toshgan shaharlar Bog’dod, Qohira, Damashq, Aleppo va boshqa joylarga safar qiladi. Forobiy ushbu yurtlarda odamlar va jamiyat hayoti bilan tanishadi, turli millat va diniy e’tiqodga mansub olimu-fuzalolardan ilmning turli sohalari (falsafa, tib, musiqa va boshqalar) bo’yicha ta’lim oladi, o’zi uchun juda muhim bo’lgan ilmiy va, ayniqsa, hayotiy xulosalarni chiqaradi. Bu uning qator ilmiy risolalari va falsafiy- huquqiy qarashlarida o’z aksini topgan.

Forobiy o’rta asr sharoitida ilm-fan, insonparvarlik g’oyalarining tantanasi uchun kurashib, butun insoniyat madaniyati uchun katta xizmat qildi.

Uning fozil shahar va ma’rifatli hokim nazariyasi hayoliy bir nazariya bo’lsada, Yevropada paydo bo’lgan Tomas Mor, T.Myuntser va T.Kampanellaning utopik g’oyalaridan deyarli 600 yil muqaddam paydo bo’lganligi diqqatga sazovordir⁴.

¹ Петров. Б.Д. Ибн Сина – великий среднеазиатский ученый – энциклопедист, Т, 1981. Ст. 22

² Xayrullayev.M. “Forobiy va uning falsafiy risolalari”, Toshkent., 1963. 37-bet.

³ Xayrullayev.M. “Forobiy va uning falsafiy risolalari”, Toshkent., 1963. 38-bet.

⁴ Shermuhammedov Y. “Ikkinchi muallim” insoniy komolot haqida. Fan va turmush. Toshkent, 1975.10-son.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'tmish milliy davlatchiligimizning g'oyaviy asoslarini o'rganish faqat ilmiy ahamiyat kasb etmay, balki siyosiy, ma'naviy, axloqiy, amaliy ahamiyatga ham ega bo'lmoqda.

Mazkur tadqiqodni olib borishga sabab bo'lgan omillardan biri – ma'naviyatshunoslikka oid adabiyotlarda mazkur muammolarning qay darajada yoritilganidir.

Forobiyning ilmiy merosi yoki falsafiy ta'limoti, uning turli ilm sohalaridagi fikrlari hozirgi kungacha ko'p tadqiq qilingan. Akademik M.M. Xayrullaevning ta'kidlashicha, Forobiy ilmiy merosini o'rganish, asosan, ikki yo'nalishda olib borilmoqda:

1) Forobiyning hayoti, faoliyati va tabiiy-ilmiy hamda ijtimoiy-falsafiy qarashlari to'g'risida bevosita tadqiqot olib borish, turli asarlar yaratish orqali;

2) Forobiy asarlarini ko'chirish, nashr etish, ularni turli tillarga tarjima qilib, o'quvchilarga tanishtirish va tadqiqotchilarning diqqatini jalb etish, Forobiyning turli risolalariga izoh-sharhlar yozish orqali o'rganilmoqda¹.

Forobiy ilmiy merosini ayniqsa, uning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlarini o'rganishda katta ilmiy izlanishlar, amalga oshirilgan. Jumladan, M.M.Xayrullaev, T.I.Raynov, I.Mo'minov, T.N.Qoriniyozov, S.N.Grigoryan, A.Baxovuddinovlar Forobiy ta'limotini o'rganishga salmoqli hissa qo'shganlar². Ayniqsa, bu borada O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida olib borilgan tadqiqotlar katta e'tiborga loyiq. Ushbu tadqiqotlarda,

¹ Xayrullayev.M.M. "Forobiy va uning falsafiy risolalari", Toshkent., 1963. 281-bet.

² Xayrullayev M.M. Forobiy va uning falsafiy risolalari. Toshkent .1963.281-bet. Xayrullaev M. Mirovozenie Farabi i ego znachenie v istorii filosofii. Toshkent.1967; Xayrullaev M. Farabi. Epoxa i uchenie. Toshkent.1975; Abu Nasr Farabi. Toshkent.1961; Forobiy va uning falsafiy risolalari. Toshkent.1963; Xayrullaev M. Ob izuchenii nauchnogo naslediya Abu Nasra Farabi v Uzbekistane G'G' Obhestvenno'e nauki v Uzbekistane., 1961, №4.; Xayrullaev M. Abu Nasr al-Farabi .Maskva.1982; Xayrullaev M. Farabi i ego filosofskie vzglyado'. Maskva.1975, Farabi - krupneyshiy mo'slitel srednevekovya. Toshkent. 1973; Xayrullaev M. Ikkinchi muallim. G'G' Guliston.Tpshkent.1975, №9; Xayrullaev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. T.1971; Xayrullaev M. Sharq renessansi va Forobiy. Fan va turmush, Toshket. 1975, №10; Grigoryan S.N. Srednevekovaya filosofiya narodov Blijnego i Srednego Vostoka. Maskva.1966, 352-bet; Grigoryan S.N. Iz istorii filosofii Sredney Azii i Irana VII-XII vv. Maskva.1960; Grigoryan S.N. Velikie mo'sliteli Sredney Azii. – Maskva.1958; Grigoryan S.N. Izbranno'e proizvedeniya mo'sliteley stran Blijnego i Srednego Vostoka IX-XIV v. Maskva. 1961; Grigoryan S.N. Iz istorii filosofii Sredney Azii i Irana VII-XII. Maskva. 1960; Grigoryan S.N. Velikie mo'sliteli Sredney Azii. Maskva. 1958, seriya II, №77. Bo'riboyev M.S. va boshqalar. Sotsialno-eticheskie i esteticheskie vzglyado' Al-Farabi. Alma-Ata.1984, 176-bet; Bo'riboyev M.S., Ivanov A.S., Xarenko E.D. va boshqalar. O logicheskoy uchenii al-Farabi. - Alma-Ata. 1982.

Forobiyning jamiyat, davlat va axloq haqidagi qarashlari tarixiy, ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etilgan.

Men ushbu tadqiqot ishimda Forobiy ta'limotining ma'naviy-axloqiy jihatlarini yoritishga harakat qildim.

Forobiyning falsafiy, ijtimoiy – axloqiy qarashlarini o'rganishda, jamiyatning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishining sabablari borasidagi Forobiyning fikrlarini o'rganish ahamiyatlidir.

2. Abu Nasr Forobiy asarlaridagi ma'naviy qarashlar va ularning Markaziy Osiyo xalqlari milliy merosi bilan uyg'unligi.

IX-XV asrlarda Yaqin Sharq mamlakatlari, birinchi navbatda, Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy-ma'naviy taraqqiyotida, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, diniy, falsafiy ta'limotlari rivojlanishida keskin o'zgarish, tub burilish davri bo'ldi. Bu madaniy jonlanish va yuksalish jamiyat hayotining barcha sohalarida kirib boradi, ma'naviy hayotni qamrab oladi. Ijtimoiy taraqqiyotning ana shu davrlarda Markaziy Osiyo xalqlari dunyo madaniyati taraqqiyotining eng oldingi, yetakchi sohalarida turish darajasiga ko'tarila oldilar. Markaziy Osiyoning jahon madaniyati taraqqiyotining eng yirik va markaziy o'choqlaridan biriga aylanishi xuddi shu davrga to'g'ri keladi.

Ana shu davrlarda Markaziy Osiyo xalqlari safidan o'zining aql-idroki va tafakkuri, qomusiyligi bilan insoniyatni lol qoldirgan fan va madaniyatning so'nmas yulduzlari, jahonga mashhur bo'lgan matematik, astronom, kimyogar, minerolog va tibbiyotchilar, shoir, yozuvchi va san'atshunoslar, tasviriy san'at va naqqoshlik ilmiy arboblari, dunyo tan bergan faylasuf va tarixchilar, so'z san'atining toji hisoblangan adabiyotchi va tilshunoslar, g'azal mulking sultonlari "Muallimi soniy" va "Shayx ur-ra'is"lar saf-saf bo'lib yetishdilar.

Buyuk tafakkur egalarining butun bir avlodli yetishib chiqqan, olam uzra dovrug' taratgan, jahonni ilm, ma'rifat va ma'naviyat nuri bilan yoritgan davr, adolat talabi bo'yicha, Sharq tarixida oltin asr yoki Uyg'onish davri deb ataladi.

Uyg'onish davri mutafakkirlari o'zlarining qomusiyliliklari, ayni bir paytning o'zida ham faylasuf, musiqashunos, ham mantiqshunos, jamiyatshunos, adabiyotchi, tarixchi, shoir, matematik, xullas, ilmning hamma sohasidan xabardorliklari, ijodining bir necha sohalarida o'zlarini ko'rsatganliklari bilan ajralib turadilar. Sharq ulug' siymolarining kishini lol qoldiradigan jihatlaridan biri sifatida bir necha tilda bemalol gaplasha olganliklari, o'sha tillardagi ilmiy manbalar, asarlardan bekamu ko'st foydalana olganliklarini ham aytib o'tishga

to'g'ri keladi. Ilm-fan va madaniyatda ular shug'ullangan sohalarini sanab chiqishdan ko'ra shug'ullanmagan sohalarini sanasak, aniq aytib berish osonroqdir.

Ilmning qaysi masalasi bilan shug'ullangan bo'lsalar, o'sha sohada buyuk kashfiyotlar qilishdi, o'tmishdoshlaridan hech bir alloma zabt eta olmagan fanning nurafshon cho'qqilarini zabt eta oldilar. Bundan tashqari, ularning ko'pchiligi fanda yangicha yo'nalishlarni, yangicha tafakkur uslubini ixtiro qildilar, ilgari hech kim aytmagan tamomila yangi ta'limotlarni maydonga tashladilar va ilmiy asoslab berdilar. Buyuk mutafakkir allomalari tomonidan chuqur ilmiy asoslangan g'oya va ta'limotlar faqat ular yashagan davr ko'zgusigina emas, balki kelajakni oldindan bashorat qilish, tabiiy, ijtimoiy voqea va jarayonlarni oldindan aytib berish nuqtaiy nazaridan ham bebahodir. Donishmand bobolarimizning ilmiy-falsafiy ta'limotlari – umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan ta'limotlardir. Shu narsa e'tiborga sazovorki, Sharq mutafakkirlari o'z davri dolzarb hayotining markazida bo'ldilar, xalq va Vatan manfaatini himoya qildilar. Bu ularning haqiqiy barkamol inson, otashin vatanparvar, xalqparvar va buyuk alloma ekanliklarining belgisi va bosh sababidir. Ushbu buyuk zotlar qomusiy aql egalari yashagan va ijod qilgan davrlardan boshlab Sharqda, Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniyat, falsafa yanada rivojlana boshladi. Bu rivojlanish, to'xtovsiz takomillashib borish bir necha yuz yillarni o'z ichiga qamrab oldi va bizning davrimizga yetib keldi.

O'rta Osiyo Uyg'onish davrining allomalaridan, yirik namoyondalaridan biri sifatida Al-Forobiy ilmiy merosini o'rganadigan bo'lsak, u deyarli fanning barcha sohalarini egallab, kelajak – avlodlarga turli fan sohalariga oid 160 dan ortiq asarlari orqali buyuk ma'naviy meros qoldirdi. Forobiy riyoziyot, falakiyot, tabobat, musifa, falfasa, tilshunoslik va adabiyotga oid buyuk asarlar, risolalar yozib o'sha davrdayoq butun musulmon olamida mashhur bo'lgan. U yozgan Aristotel (Arastu)ning “Metafizika asari maqsadlari haqida”, “Tarik mavjudot a'zolari haqida”, “Musika kitobi”, “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Fozil odamlar shahri”, “Qonunlar haqida kitob” va boshqalar buyuk olimning ilm va dunyoqarash darajasini beqiyos darajada kengligi va chuqurligidan dalolat beradi.

Forobiy ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi uchun "Al-muallim as-soniy" "Ikkinchi muallim", "Sharq Aristoteli" degan mo'tabar unvon oldi.

Forobiyning "Inson tanasining a'zolari haqida "gi risolasi tibbiyot ilmining maqsad va vazifalarini aniqlashga bag'ishlangan bo'lib, qomusiy alloma Ibn Sino ham bu asarga ko'plab mirojat qilgan. Shu ma'noda bu asar Forobiyni buyuk qomusshunos bo'lganligini isbotlaydi.

Forobiy "Astrologiyaning to'g'ri va noto'g'ri qoidalari haqida " risolasida astrologlarning ruhiy va ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni osmoniy jismlar haqidagi ilmiy taxminlarga asoslangan faoliyatlarini yolg'on tasavvurlar va uydirmalardan farqlash zarurligini ta'kidlaydi.

Olimning ko'p jildlik "Musika haqidagi katta kitob" asari musiqa ilmining katta bilimdoni bo'lganliginigina emas, ayni zamonda Forobiyning taniqli musiqashunos sozanda va ajoyib bastakor ham bo'lganligini dalillaydi. U yangi musiqa asbobining ixtirochisi ham bo'lgan.

Forobiy yirik mantiqshunos olim sifatida ham nom chiqargan. Bu borada u yunon olimlarining ijobiy an'alarini davom ettirib, mantiq ilmining turli muammolariga oid bir qator risolalar ijod qilgan.

O'rta asr fanining rivoji va taraqqiyoti Forobiyning ilmlar tasnifi bo'yicha olib borgan ilmiy ijodiy ishlari g'oyatda qimmatlidir. U "Ilmlarning kelib chiqishi haqida " va "Ilmlarning tasnifi haqida " va boshqa risolalarida o'sha davrda ma'lum bo'lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tartibi, tasnifi va tafsilotini beradi. Umuman, Forobiy ilmning beshta asosiy turkumini ko'rsatadi:

1. Til haqidagi ilm (grammatika, poetika, to'g'ri yozuv va boshqalar. Jami ettita bo'limdan iborat).
2. Mantiq. Sakkiz bo'limdan iborat.
3. Matematika, yetti mustaqil ilm: arifmetika, geometriya, optika, sayyoralar, musiqa, og'irlik, mexanika.
4. Ilm at-tabiiy va ilm al-iloxiy – tabiiy va ilohiy ilmlar yoki metafizika.

5. Siyosat ilmi (ilm al-madaniy, shahar haqidagi ilm, shaharni boshqarish ilmi), yurisprudentsiya (fiqh) va musulmon teologiyasi (kalom)¹.

Forobiy shug'ullangan har bir soha, u yozgan har bir asar, yangi davr va hozirgi zamon olimlari tahsini va e'tiboriga sazovor bo'lgan. Forobiy yozgan asarlar o'rta asr ilmining qariyb barcha sohalarini o'z ichiga qamrab olgan. O'zining asarlarini shuning uchun ham o'z davrining ko'zgusi, qomusi deyish mumkin.

Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari va tabiatshunoslari yirik asarlarining umumiy mazmuni va yo'nalishini ilmiy tahlil qilib maxsus asarlar yaratdi. Arastuning "Metafizika", "Ritorika", "Poetika", "Kategoriyalar", "Analitika", "Etika" va boshqa ko'plab asarlarini izohlab berdi.

Forobiy o'rta asr falsafasi rivojiga katta hissa qo'shdi, birinchi bo'lib o'z davridagi ilmlarni tasnif qildi, ya'ni turlarga bo'ldi. O'zining ona tili – turk tilidan tashqari, fors, yunon, suriya, arab va yana bir necha tillarni mukammal bilgan. Sharqning mashhur tarixchi olimi Ibn Hallikon (1211-1282 yillar) fikricha, til bilishda hech kim Forobiy erishgan darajaga erisha olmagan. Uning so'zi bilan aytsak, Forobiy yetmishdan ortiq til bilgan².

Forobiy o'z bilimi, ma'rifati, fikr doirasining kengligi, qomusiyligi, jahon fani taraqqiyotiga qo'shgan bebaho hissasi bilan shu darajada katta shuhratga erishdiki, oqibatda u hayotligidayoq Arastudan keyingi yirik mutafakkir, "Al-muallim as-soniy" – "Ikkinchi muallim", "Sharq Arastusi" nomlari bilan ulug'langan.

Uyg'uniy davrining mashhur faylasufi Forobiy xudoni "birinchi sababi, "birinchi mohiyati" deb izohlaydi. Forobiy barcha mavjudotni, olamni, birinchi sabab – falsafa xudodan keltirib chiqaradi. Uning ta'kidlashicha, dunyoning moddiy asosi tuproq, suv, havo, olov va osmondan iborat bo'lib, Forobiy ta'limoticha, osmon jismlari ham, yerdagi jismlar ham ana shu unsurlarning

¹ Xayrullayev.M.M. "Forobiy va uning falsafiy risolalari", Toshkent., 1963. 277-bet.

² Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri". Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993, 201-bet

birikuvidan vujudga keladi. Forobiy, hamma narsaning umumiy jinsi olamdir, olamdan tashqari hech nima yo'qdir, deydi¹.

Forobiy olamdagi har bir narsa materiya va shakldan iboratligiga, materiya va shakl biri ikkinchisiga sabab bo'lishi mumkin emasligi, aksincha, har ikkalovi o'zaro dialektik birlikda mavjudligi xususida ham o'z fikrini bayon etadi.

Allomaning uqdirishicha, harakat moddiy olamdagi narsa va hodisalar to'xtovsiz harakat va o'zgarishda, harakat, o'sish-o'zgarishining sababi esa boshlang'ch moddiy unsurlarning turlicha qo'shilishidadir.

Forobiyning bilish haqidagi fikrlari ham e'tiborga loyiq. Bilish masalasiga u inson mohiyatini tushuntirib berishning tarkibi sifatida qaraydi. U, inson taraqqiyotning mahsuli bo'lib, hayvonot olamidan farq qiladi, tabiat esa uning ob'ekti deb biladi. Ob'ekt sub'ektga qadar mavjud bo'lgani kabi bilinuvchi narsa bilishga qadar mavjuddir, deydi. "Ilm va san'atning fazilatlari" risolasida tabiatni bilishning cheksizligini, bilishning bilmaslikdan bilishga, sababiyat bilishdan oqibatni bilishga qarab borishni ta'kidlaydi.

Forobiy bilishni ikki bosqichga hissiy va aqliy bilishga bo'ladi. Hissiy bilishni borliqning tashqi xossalari haqida bilim berish manbai deb qaraydi. Shu bilan birga u aqliy bilish hissiy bilishsiz vujudga kela olmasligini uqdiradi².

Inson o'zini qurshab turgan moddiy olamni, materiyani sezgi a'zolari, aql-idroki orqali bila boradi. Forobiy asarlarida insonning bilish, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi, yurak esa barcha a'zolarni hayot uchun zarur bo'lgan qon bilan ta'minlaydi, bu quvvatlardan birortasi ham materiyadan ajralgan holda yashay olmaydi, degan g'oyani ilgari suradi. Forobiyning xizmatlar dialektika atamasining kelib chiqishi, uning mohiyati, falsafiy tafakkurlash san'atini shakllantirishda, ilmiy bilishdagi ahamiyati, uning sofistika tafakkurdan farqi sinshari jiddiy masalalarni asoslab berishda nihoyatda kattadir.

Forobiyning yozishicha, dialektika, ya'ni "al-Jadval" atamasi Qadimgi yunon faylasuflari Suqrot va Aflotun tomonidan qo'llanilgan bo'lib, ma'nosi bahs,

¹ Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri". Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993, 148-bet

² Haydar Aliqulov. "Gumanistik meros va shaxs ma'naviy kamoloti". Toshkent. 2008. 22 - b

muzokara yordamida haqiqatga erishish demakdir. “Dialektika – deb yozgan edi Forobiy, - haqiqatga yoki falsafaga faqat dialektik bahs orqali erishish mumkin¹”.

Forobiy “Dialektika”, “Sofistika”, “Ritorika” va boshqa asarlarida mazkur falsafiy tafakkur usulining fikrlar kurashi hamda ilmiy bilishdagi ahamiyatini har tomonlama asoslab bergan. Shuningdek, u dialektika tushunchasining shakllanishi tarixini ko’rsatib berdi.

Forobiyning yozishicha, yunon faylasuflari, Geraklit, Zenon “Dialektika” atamasidan foydalanmagan bo’lsalar-da, dialektika tafakkurlash san’atiga asos solgan. Keyinchalik, deydi Forobiy, elatlar va sofistlar dialektik fikrlash san’atini o’zlarining maqsadida haqiqatni yolg’on qilib ko’rsatish uchun foydalanib keldilar.

Sofistika atamasi, Forobiyning ta’kidiga ko’ra, “suf” (donolik) hamda “istiyasi” (yolg’on) so’zlaridan olingan bo’lib, “soxta donolik” ma’nosini anglatadi. “Sofist”, - deb yozgan edi Forobiy, - (borliqqa) teskari bo’lgan (yo’q) narsalarni tasavvur qilishga majbur etish orqali tinglovchini adashtiradi, shunday qilib (tinglovchi) bor narsani yo’q, mavjud bo’lmaganni mavjud, deb tasavvur qiladi”. Sofistik tafakkur o’ziga xos usullardan tashkil topgan bo’lib, o’rganilishi lozim bo’lgan narsalarni bilishda aqlni to’g’ri yo’ldan chalkashtiradi va yolg’onni rost shaklda tasavvur qilishga majbur qiladi, o’rganmoqchi bo’lgan kishini to’g’ri yo’ldan adashtiradi. Forobiy dialektik tafakkurlab hamda mantiq qonunlariga bo’ysunadigan bo’lsa, inson aqli sofistlik tafakkurdan xalos bo’lishi mumkin, deb ta’kidlagan edi. “Sollogizmlarni o’rganadigan bo’lsak, narsalarning bir-biridan farqlarini ishonch bilan topa olamiz va agar biz e’tirof qilsak, munozaralarda anglashilmoqchiliklarga va chalkashliklarga yo’l qo’yamiz”.

Dialektika Forobiyning fikricha, haqiqiy bilimning quroli va xizmatchisidir. Faqat dialektika inson aqliy faoliyatini bilishga yordam beradi. Dialektika san’atining foydasi shuki, - deb yozadi Forobiy, - u haqiqatni bilishga ko’maklashadi.

¹ Tulenov. J., G’ofurov.Z. Falsafa. Toshkent,O’qituvchi, 1991, 23-bet.

Sofistikaga qarshi birinchi bo'lib Aflotun chiqdi. Aflotun dialektikani bahslashish yo'li bilan tafakkurdagi mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni bilishga qaratilgan usul deb hisoblagan edi¹.

Arastu shuningdek, falsafa tarixida birinchi bor dialektika bahslashish san'atining quroligina bo'lib qolmasdan, u ayni vaqtda ilmiy bilishning usuli hamdir, deb hisoblaydi. Uningcha, dialektika borliq va tafakkurning asosiy va umumiy tomonlarini bilishga qaratilgan usul". Uning yozishicha, "dialektika ilmiy tadqiqot usuli sifatida bittagina fanlarga ham daxldordir".

Forobiy imkoniyati va voqe'lik, zaruriyati va tasodif, sabab va oqibat kategoriyalarining o'zaro aloqadorligini asoslab bergan olim. Sabab va oqibat bir-biri bilan uzviy bog'langan, muayyan sabab muayyan oqibatni keltirib chiqaradi, tasodif zaruriyatning namoyon bo'lish shakli, deb ta'kidlaydi. Bundan yaqqol ko'rinadiki, Forobiy tafakkur shakllari va usullari tadqiq etishda asosiy e'tiborini mazkur tushunchalar o'rtasidagi dialektik aloqadorlik va bir-biriga o'tishini ochib berishga harakat qilgan.

Xullas, Forobiyning ilmiy-falsafiy merosi xalqimizning buyuk ma'naviy boyligi sifatida asrlar osha avlodlar uchun ilhom va ijod manbai bo'lib xizmat qilaveradi.

Forobiy inson qobiliyatini ikkiga: tug'ma va keyin erishilgan qobiliyatga bo'ladi. Uning fikricha, tug'ma qobiliyatga biologik, jismoniy va ba'zi ruhiy xususiyatlar kiradi. Uni kamol toptirish jarayoni esa inson o'z hayoti davomida ilm, hunar o'rganishi, axloqiy qonun-qoidalarni egallashi va san'atni hayotiy tajribasi bilan boyitishi orfali sodir bo'ladi. Bunday fazilat, jumladan, estetik fazilatlar inson atrofini qurshagan muhit ta'sirida shakllanadi.

Forobiy insonning o'z-o'zini tarbiyalashida, uni estetik rivojlanishida nazm va musiqa san'atining o'rnini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, san'atning barcha turlari bir-biridan farq qiladi: nazm san'ati so'z bilan, tasviriy san'at esa bo'yoqlar bilan ish ko'radi, lekin ular insonga bir xil ta'sir ko'rsatadi... U Arastu izidan borib,

¹ Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri". Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993, 69-bet

bu san'atlarning har ikkalasi taqlid qilish yordamida kishilarning tasavvurida va hissiyotiga ta'sir ko'rsatishni maqsad qilib qo'yadi, deb ta'kidlaydi.

Forobiy san'at o'z mohiyatiga ko'ra, ruhiy hayotning in'ikosi ekanligini yaxshi tushungan. Uning fikricha, musiqaning kishilar tuyg'usiga ta'siri buyukdir. Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, noqis xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi, deydi u. Forobiy musiqaning shifobaxsh kuchini uqtirib, "bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir", deydi¹.

Forobiy "Musika haqida katta kitob" degan ko'p jildli asari bilan o'rta asrning yirik musiqashunosi sifatida mashhur bo'ldi. U musiqa ilmining nazariy va amaliy tarmoqlarini, kuylarning ichki tuzilishi, qonuniyatlarini hisobga olib, ularni ta'rif va ilmi ihoga ajratadi. U musiqa nazariyasida tovushlar vujudga kelishining tabiiy-ilmiy ta'rifini beribgina qolmay, kuylar ohangdorligining matematik tamoyillarini ochadi, turli jadvallar, geometriya qoidalari asosida ko'plab murakkab chizmalar keltiradi, Sharq Musiqasini uning ritm-zarblari asoslarini dalillar bilan sharqlab beradi.

Mutafakkirning ritm-zarb haqidagi ta'limoti tez yoki sustligi bilan bog'liq, urg'uli-urg'usiz yoki shartli qabul qilingan so'zlarni talaffuz qilishga asoslangan. U ritm-zarblarni tashkil etgan birliklar bo'lmish hakralar, ular birikmasidan hosil etiladigan rukmlarning turli xillari asosida yaratiladigan ritm-zarb o'lchovlari va turlarini yoritib bergan.

"Musika haqida katta kitob" asarida faqat musiqa nazariyasi va tarixi bayon etilmay, Sharqda ma'lum-mashhur bo'lgan rubob, tanbur, nog'aro, ud, qonun, nay kabi musiqa asboblari hamda ularda kuy ijro etish qoidalari tafsiloti berilgan. Forobiyning o'zi mohir sozanda, bastakor, yangi musiqa asboblarining ixtirochisi ham bo'lgan. U musiqaga inson axloqini tarbiyalovchi, sihat-salomatligini yaxshilovchi tor ilova qilib, uni takomillashtirgan, ovoz imkoniyatini oshirgan.

¹ Sher Muhammedov Y. "Ikkinchi muallim" insoniy komolot haqida. Fan va turmush. Toshkent, 1975.10-son.

Forobiyning she'riyat va musiqa nazariyasiga oid asarlari Sharq xalqlari adabiy-estetik qarashlari tarixida alohida o'rin tutadi.

Forobiyning “Baxt-saodatga erishuv haqida ” risolasida san'atning ulkan ta'sir kuchi haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan. San'at uning fikricha, insonda go'zal estetik fazilatlarni tarbiyalashga qadar kuchga egadir. Shu bois mutafakkir inson oldiga alohida talablar qo'yadi. Forobiy mazkur risolasida ta'lim-tarbiya masalalariga alohida to'xtalib, yoshlarning axloqiy fazilati nizomlarini hamda ularning san'atni egallashi uchun amaliy malakalarini tarbiyalash – tarbiyachilarning muqaddas vazifasi ekanligini ko'rsatib beradi.

Forobiy insoniy sifatlarning barchasini odamlar va narsalar go'zalligi tarzida baholab, ularni maqsadga muvofiqlik va foydalilik tomonlari bilan uzviy bog'laydi. U “She'r san'ati haqida ” degan risolasida badiiy faoliyatni o'ziga xos tarzda voqelikka taqlid qilishga qiyos etib, musavvirlik va she'riyat bir-biridan so'z va bo'yoq vositalarida ifodalanishi bilan farqlangan holda odamlar tasavvurlariga taqlid orqali ta'sir o'tkazishni maqsad qilib qo'yadi, deydi. Bu ta'sir, kuch, tasavvur deyiladi hamda u tuyg'u va aql-idrok oralig'ida turadi. Forobiy estetik qarashlarida san'at yaratgan qiyofalar aql va umumiy mushohada qabul qilib olgan holda o'zining yakkaqligini ko'rsotib qo'ymaydi, idrok uchun mumkin bo'lgan aniq hissiy shaklini saqlab qoladi.

Abu Nasr Forobiy ta'lim – tarbiya masalasida xususan aqliy tarbiyaga, ma'rifatli bo'lishga, aqlni mavjud bilimlar bilan boyitish, to'ldirishga katta e'tibor beradi. har qanday tarbiyani, xususan aqliy tarbiyani, ya'ni bilimlarni o'rganishni inson yoshlikdan boshlashligi zarurligi to'g'risidagi fikrni Abu Nasr Forobiy alohida qayd qiladi.

Lekin, Abu Nasr Forobiy «aqli» bo'lishni faqat aqliy tarbiya, bilimdonlik bilangina chegaralab qo'ymaydi. Abu Nasr Forobiy talqinida «aqllilik» insonning butun faoliyati – uning bilimi, axloqi, odobi, harakatlari, qiladigan ishlari majmuasi bilan o'lchanadi, ya'ni aqllilik barcha fazilatlarning bir butun, yaxlit xolda muvofiqligidir.

Abu Nasr Forobiy ta'limotida axloqiy tarbiya ham aqlli, fazilatli inson tarbiyalashning muhim shartlaridan bo'lib, aqliy tarbiya xususan, «Ideal shahar aholisining fikrlari» asarida o'z ifodasini topadi. U qaysi tartibda axloqli qilib tarbiyalash, xususan bolaning qaysi xislatlariga e'tibor berish kabi masalalariga to'xtalib o'tirmaydi, balki ideal, axloqli insonning abstrakt obrazini yaratish bilan, tarbiya sohasida shu obrazni namuna qilib olish zarur degan g'oyani olg'a suradi. Abu Nasr Forobiy bu fazilatlar ichida ayniqsa donolikka, aqllilikka juda katta e'tibor bergan.

Ideal inson tarbiyasida jismoniy va aqliy xislatlar muhim o'rin tutadi. U razil, iflos hislatlarni qoralash, axloqsiz shaxslarni fosh qilish va ularga olijanob axloqiy xislatlarni qarama-qarshi qo'yish bilan ham jismoniy, ham axloqiy, har jihatdan yetuk va mukammal bo'lgan inson idealini yaratadi va uni har qanday ta'lim-tarbiyaning maqsadi sifatida namuna qilib qo'yadi.

Forobiy asarlarida inson, inson tarbiyasi, jamiyat va davlat muammolarini aks etirilgan. Erkin fikr yuritish, ya'ni xurfikrlilik g'oyalaridan ilhomlangan o'rta asr faylasufi: Abu Nasr Forobiy inson borlig'i, xususan, uning tanasi bilan joni jismi bilan uning insoniyligi, insoniyligi bilan u yashayotgan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, insonning insoniyligini namoyon qiluvchi fazilatlar, xislatlar va ularning shakllanish jarayoni muammolarini nazariy jihatdan ochib berishga harakat qildi. Jon va tananing o'zaro aloqadorligi muammolari haqida fikr yuritgan Abu Nasr Forobiy qadimgi yunon faylasufi Platonning insonning ko'chib yurishi haqidagi ta'limotiga qarshi chiqdi. O'zining "Masalalarning mohiyati" ("O'yinul masail") risolasida jon tanadan oldin mavjud bo'lmasligi, bir tanadan boshqa tanaga ko'chib o'ta olmasligi haqidagi g'oyani olg'a surdi.

Abu Nasr Forobiyni fikriga asosan, odamlarning tanasi paydo bo'lishi bilan uning "oziqlantiruvchi quvvat"i vujudga keladi. O'sha quvvat yordamida inson tanasi hamisha oziqlanadi va shu jarayonda insonda sezgi organlari paydo bo'ladi. Inson sezgi organlari tufayli his-tasavvur, xotira birlashib, xayol hosil bo'ladi.

“Xayol quvvati” yordamida inson bilim, hunar egalaydi, faoliyat ko’rsatadi, foyda-zararning farqiga boradi¹.

Forobiy ta’kidlaganidek, inson o’zining aql-zakovati bilan olamdagi boshqa tirik mavjudotlardan tubdan farq qiladi. Undagi aql-zakovat (“Aqliy quvvat”) borliqning turli-tuman ko’rinishlarining aksidir. Inson o’zidagi o’sha aql-zakovat yordamida avval yerda sodir bo’layotgan o’zgarishlarning sabablarini, so’ng esa osmon jismlarining sir-u asrorini biladi. Insonning olam to’g’risidagi to’plagan bilimlari, ya’ni hayotligida yaratgan ma’naviy boyliklari hech qachon yo’q bo’lib ketmaydi, balki “Dunyoviy aql”ni tashkil etadi. Inson aqli olam sirlarini bilishda eng yuksak cho’qqiga ko’tarilganda, “dunyoviy aql”, “dunyoviy ruh” bilan qo’shiladi. O’z navbatida, har bir kishining joni va aqli, ya’ni “individual aql” va “individual jon”ning paydo bo’lishida, “dunyoviy ruh”, “dunyoviy aql” hal qiluvchi rol o’ynaydi². Forobiyning tushuntirishicha, “dunyoviy ruh”, “dunyoviy aql”, “individual jon”, “individual aql” paydo bo’lishi va rivojlanishining sababchisidir. “Individual jon”, “individual aql” inson tanasining o’limi, yo’q bo’lishi bilan qo’yolib ketmaydi, balki “dunyoviy ruh”, “dunyoviy aql” ga qo’shiladi. Insonning joni va aqli abadiylikka ketadi, biroq hech qachon qaytib kelmaydi, qayta namoyon ham bo’lmaydi. Ular tanani tark etgandan so’ng yana bir butun bo’lib, birlashadi, har bir jon va har bir aql inson tanasida yashagan vatda orttirgan barcha ma’naviy narsalar to’planib, hamisha barhayot, “dunyoviy ruh”, “dunyoviy aql”ni tashkil etadi.

Qadimgi yunon falsafasining o’tkir bilimdoni Platon, Aristotel, Zenon, Epikur asarlarining mashhur targ’ibotchisi, “ikkinchi muallim”, “Sharq Aristoteli” nomi bilan mashhur Abu Nasr Forobiy inson aqlining imkoniyatlari cheksiz ekanligini isbotlab, o’rta asr musulmon olamida keng tarqalgan faqat mumtoz shaxslar – payg’ambarlarga xos karomatining sirlarini bilish yo’llari haqidagi diniy-mifologik qarashlarga qarshi chiqdi.

¹ Ал-Фараби. Социально – экономические трактаты. – Алма-Ата, 1973, стр. 34.

² Xayrullayev.M.M. “Forobiy va uning falsafiy risolalari”, Toshkent., 1963. 13-bet.

Forobiy inson o'z taqdirini o'zi o'zgartira olmaydi, degan islom dini qoidalariga qarshi borib, inson o'z taqdirini o'zgartirishi mumkin degan g'oyani ilgari surdi. Xususan, insonning baxt-saodatli bo'lishi ham o'zining qo'lida ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Baxt-saodatga erishish yo'llarini aniqlab berishga intiladi. Uning fikriga ko'ra, inson baxt-saodatga erishmog'i uchun, eng avvalo, baxt haqida bilimga ega bo'lmog'i, so'ngra baxtga erishish yo'llari vositalarini bilmog'i darkor. Shuningdek, inson baxt-saodatga erishmog'i uchun, insonning insoniy fazilatlari mazmun va mohiyatini ham anglab olmog'i zarur. Chunonchi, o'rta asrning mashhur insonshunos allomasining tushuntirishicha, "fazilat" allaqanday mavhum tushunchaga emas, balki insonning inson bo'lib kamol topish jarayonidagi amaliy ishlari bilan o'lchanadigan alohida ma'naviy-axloviy xususiyatidir. Fazilat insonning ezgulikka erishish borasidagi xulq-atvori, xatti-harakatlarining ifodasidir. Forobiyning ta'kidlashicha, insonni yaxshi xayrli ishlar qilishga, go'zal xulq-atvor sohibi bo'lishiga da'vat etuvchi ma'naviy-axloqiy xususiyatlar, fazilatlar deb ataladi. Insonni xunuk xulq-atvori, xatti-harakatlariga da'vat etuvchi ishtiyoqlar razolat deyiladi. Razolat insondagi kamchiliklar yoki nokasliklarning ifodasidir.

Forobiy insonlarni o'zaro hamkorlikka chaqiradi, dunyoda yagona bir butun inson jamoasini tuzish haqida orzu qiladi. "Baxt-saodatga erishuv haqida" risolasida kamolotga bir kishining yolg'iz o'zi (birovning yoki ko'pchilikning yordamisiz) erishuvi mumkin emas. "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki – deydi Forobiy, - u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga erishish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj to'g'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga etkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin¹. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi.

¹ Xayrullaev M. Sharq renessansi va Forobiy. Fan va turmush, Toshket. 1975, 239 –b

Abu Nasr Forobiy asarlari mazmuniga qarab¹;

Falsafaning umumiy masalalariga, ya'ni bilimning umumiy xususiyatlari, qonuniyatlari va turli kategoriyalariga bag'ishlangan asarlar: «Substantsiya haqida so'z», («Kalom fi-l javhar»), «Masalalar manbai» («Uyunul masoil»), «Qonunlar haqida kitob» (Kitob fi-l navomis) «Falak harakatining doimiyligi haqida» («Kitob fi-l harakat al-falaka doimatun») va boshqalarga,

Inson bilish faoliyatining falsafiy tomonlariga bag'ishlangan ya'ni bilishning shakllari bosqichlari usullari haqidagi asarlar: Mantiq(logika)ning turli muammolariga doir asarlari ham shunga kiradi. «Kattalarning aqli haqida so'z» («Kalom fi-l aql al - Kabir») «Yoshlarning aqli haqida kitob» («Kitob fi-l aql as-sahir»), «Mantiq haqida katta qisqartma kitob» («Kitob al-muxtasar al-kabir fi-l mantiq»), «Mantiqqa kirish kitobi» («Kitob al-madxad ila-l mantiq»), «Isbot kitobi» («Kitob sharoit al-qiyos»), «Jon(rux)ning mohiyati haqida risola» («Risola fi mohiyat an-nafs») va b.;

Falsafa va tabiiy fanlarning fan sifatidagi, tematikasi haqidagi asarlar: «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi» («Kitob fi ixso al-ulum va at-tarif», qisqacha nomi «Ihso al-ulum»), «Falsafa tushunchasining ma'nosi haqida so'z» («Kalom fi ma'oniy ism al-falsafa»), «Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida kitob» («Kitob fi ash-yo illati yaxtoju antallama kabl al-falsafa»), «Falsafaga izohlar» («Taolih fi-l xikmat») va b.;

Moddaning miqdori, fazoviy va xajmiy munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan, ya'ni matematika fanlari-arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqaga oid asarlar: «Hajm va miqdor haqida so'z» («Kalom fi-l xiyz va-l miqdor»), «Fazo geometriyasiga kirish haqidagi qisqartma kitob» («Kitob al-madxal ila-l xandasat al-laxmiyati muxtasarsan»), «Astrologiya qoidalari haqida muloxazalarni to'g'rilash usuli haqida maqola» («Maqola fi-il jihat al layati yassexxu alayxo al-havl bi axkom an-nujum»), «Musika haqida katta kitob» («Kitob ul Musika al-kabir»), «Musika haqida so'z» («Kalom fi-l musiqiy»), «Ritmlar turkumlari haqida kitob» («Kitob ul fi-ixso-il-ih»), va b.;

¹ M'anaviyat yulduzlari. Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001 – yil. 74 – 84 – betlar.

Modda xossalari va turlarini, noorganik tabiatning, xayvonlar va inson organizmining xususiyatlarini o'rganuvchi, yani tabiiy fanlar-fizika, kimyo, optika, tibbiyot, biologiyaga bag'ishlangan asarlar: «Fizika usullari haqida kitob» («Kitob fi usul ilm at-tabiat»), «Alkimyo ilmining zarurligi va uni inkor etuvchilarga raddiya haqida maqola» («Maqola fi vujub sanoat alkimyo va-r radd ala mubtilupo»), «Inson a'zolari haqida risola» («Risola fi a'zo al-insoniya»), «hayvon a'zolari haqida so'z» («Kalom fi a'zo al-xayvon») va b.;

Tilshunoslik, she'riyat, notiqlik san'ati, xattotlikka oid asarlar: «She'r va qofiyalar haqida so'z» («Kalom fi she'r va-l qavofi»), «Ritorika haqida kitob» («Kitob fi-l xitoba»), «Lug'atlar haqida kitob» («Kitob fi-l lug'at»), «Xattotlik haqida kitob» («Kitob fi san'at al-kitobat») va b.;

Ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish masalalariga, axloq, tarbiyaga bag'ishlangan, ya'ni huquqshunoslik, etika, pedagogikaga doir asarlar: «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola» («Risola fi-t tanbih ala asbob as saodat») «Shaharni boshqarish» («Al siyosat al madaniyatiya»), «Urush va tinch turmush haqida kitob» («Kitob fi famoyish va-l xurub»), «Fazilatli xulqlar» («As-siyrat al-fazila») kabi turlarga bo'linadi.

Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosi, umuman o'rta asr Sharqining madaniy-ma'naviy hayotidan, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy masalalaridan juda boy ma'lumot beradi. Mutafakkir o'z asarlarini o'sha davrda Sharq mamlakatlarida ilmiy adabiy til hisoblangan arab tilida yozadi.

Abu Nasr Forobiy shuningdek arab va fors tillarida falsafiy mazmundagi she'rlar yozgan. Abu Nasr Forobiy asarlari XII-XIII asrlardayoq lotin, Qadimiy yahudiy, fors tillariga, keyinchalik boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyoga keng tarqalgan. So'nggi asrlarda ko'chirilgan nusxalari ko'p mamlakatlarning kutubxona va muassasalarida saqlanadi. Toshkentda Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida Qadimgi Sharq faylasuflari asarlaridan jami 107 risolani, jumladan, Abu Nasr Forobiyning 16 risolasini (arabcha) o'z ichiga olgan «Hakimlar risolalari to'plami» («Majmuat rasoil al-xukamo» qo'lyozmalar fondi, 2385-in.)bor. Bu noyob qo'lyozma Abu Nasr Forobiy asarlarini o'rganishda

muhim ahamiyatga ega. To'plamdagi Abu Nasr Forobiy risolalari 1975 yili qisman o'zbek tiliga tarjima qilinib nashr etildi.

Abu Nasr Forobiy «Yulduzlar haqidagi qoidalarda nima to'g'ri va nima noto'g'riligi to'g'risida» risolasida osmon jismlari bilan yerdagi xodisalar o'rtasidagi tabiiy aloqalarni, xususan, bulutlar va yomg'irlar paydo bo'lishining quyosh issiqligi ta'sirida bug'lanishga sababiy bog'liqligini yoki Oy tutilishi, yerning quyosh bilan Oy o'rtasiga tushib qolishiga bog'liq ekanini ko'rsatgan edi. Bu bilan u osmon jismlariga qarab «fol ochuvchilar»ni fosh qildi. Abu Nasr Forobiy arzon metallarni qimmatbaxo metallarga aylantirishga urinuvchilar tanqid qilib, kimyoga tabiiy ilmlarning bir qismi sifatida qaradi¹.

Abu Nasr Forobiy tabiblik bilan bevosita shug'ullanmagan bo'lsada nazariy tibbiyotni yaxshi bilgan. Uning tibbiy qarashlari «Inson a'zolari haqida» risolasida bayon qilingan. U inson a'zolarini, turli xil kasalliklar sababini, ularning paydo bo'lish sharoitlarini aloxida-aloxida o'rganishni, organizmni salomatligini tiklash uchun kerakli oziq-ovqatlarga e'tibor berishni qayd etadi. Insonning ruxiy va jismoniy xolati tashqi omillar muhit ta'siriga bog'liqligiga e'tibor beradi. Uning tibbiyot vazifasi, maqsadi haqidagi qarashlari Ibn Sinoning bu haqidagi qarashlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Abu Nasr Forobiy dunyoqarashining shakllanishiga asosan Sharqning Qadimgi ilg'or madaniyati an'analari, arab xalifaligiga qarshi xalq xarakatlari, O'rta asr tabiiy-ilmiy tafakkur yutuqlari, Yunonistonning falsafiy merosi ta'sir ko'rsatdi. Abu Nasr Forobiy avvalombor Aristotel ta'limotini tiklash, asoslash va ilg'or tomonlarini so'nggi ilmiy yutuqlar asosida rivojlantirishga harakat qilib, «Sharq aristotelizm» oqimini vujudga keltirdi. Bu oqimning uslubi, muhim masalalari, kategoriyalarini ishlab chiqdi.

Abu Nasr Forobiyni falsafiy ta'limoti mohiyat-e'tibori bilan an'anaviy ilohiyot-kalomdan tubdan farq qilib, ilmiy g'oyalar bilan yo'g'rilgandir. Abu Nasr Forobiy falsafasiga ko'ra, olam yagona mavjudotdan iborat, yagona vujud-vujudi vojib, ya'ni azaliy vujud-birinchi sabab hamda vujudi mumkin-yaratilgan, kelib

¹ M'anaviyat yulduzlari. Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001 – yil. 74 – 84 – betlar.

chiqqan vujudlar natijalaridan iboratdir. Allox-azaliy vujud hamma narsani ibtidosi, barcha vujudlar-vujudi mumkin undan asta-sekinlik bilan pog'onama-pog'ona kelib chiqadi, buning so'nggi pog'onasi moddadir. Uning fikricha, tabiat moddaning turli shakllarining paydo bo'lishi, sabab-oqibat munosabatlari asosida, muayyan izchillik va zarurat bo'yicha kechadigan tadrijiy jarayondir¹.

Abu Nasr Forobiy uchun dunyo quncha bo'lib, asta-sekin o'zining rang-barang tomonlarini va bitmas-tuganmas boyliklarini tobora ko'proq namoyon qilib ochila boradi. Borliqning bunday talqini tabiiy – ilmiy g'oyalarning yanada rivojlanishi uchun keng yo'l ochdi. Abu Ali Ibn Sino va mutafakkirlar o'zlarining falsafiy qarashlarida shu borliq tizimi asosida ish olib bordilar.

Abu Nasr Forobiy fikricha, insonning bilishini, ruxiy qobiliyatlarini miya boshqaradi, yurak esa barcha a'zolari hayot uchun zarur bo'lgan qon bilan ta'minlovchi markazdir, barcha ruxiy «quvvatlar», jumladan bilish qobiliyati muayyan a'zoga bog'liq.

Abu Nasr Forobiy o'z davridayoq buyuk olim sifatida mashhur bo'lgan. Sharq xalqlarida u haqida turli hikoya, rivoyatlar vujudga kelgan. O'rta asr olimlaridan ibn Xallikon, ibn al-Qiftiy, ibn Abi Usabi'a, Bayhaqiylar o'z asarlarida Abu Nasr Forobiy ijodini o'rganib, uning g'oyalarini rivojlantirganlar. Xususan, ibn Rushd Abu Nasr Forobiy asarlarini o'rganibgina qolmay, ularga sharhlar ham («Sillogizmga nisbatan al- Abu Nasr Forobiyning fikri», «Abu Nasrning mantiqqa doir asarida ifodalangan fikrning bayoni», «Al Abu Nasr Forobiy, xususan, uning «Organon», izohlariga turli sharhlari» va b.) yozdi. Taraqqiyparvar insoniyat Abu Nasr Forobiy ijodiga hurmat bilan qarab, uning merosini chuqur o'rganadi. Yevropa olimlaridan B.N. Shtrenishneyder, Karra de Vo, T.U. Buur, R. Xammond, R. de Erlanje, F. Deteritsi, G. Farmer, N. Rishar, G. Ley, Sharq olimlaridan Nafisiy, Umar Farrux, Turker, M. Mahdi va boshqalar Abu Nasr Forobiy merosini o'rganishga muayyan hissa qo'shdilar². Keyingi yillarda uning ijodi va ta'limotiga bag'ishlangshan bir qancha ta'limotlar, asarlar yuzaga keldi.

¹ Mamatqulov R.U "Markaziy Osiyo falsafasi, uning jahon madaniyatidagi o'rni", Toshkent, 2010, 134-bet

² M'anaviyat yulduzlari. Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001 – yil. 74 – 84 – betlar.

R.Emerson aytganidek: “Taraqqiyotning chinakam belgisi – boylik emas, shaharning kattaligi emas, hosilning mo’l-ko’lligi emas, balki shu o’lka bag’rida tarbiya topgan inson qiyofasidir”.

Abu Nasr Forobiyning dunyoqarashi IX-X asrlarda erishilgan yutuqlar yakuni deyish mumkin. Uning ijtimoiy g’oyalari keyinchalik mutafakkirlar: Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Baxmanyor, Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar ijodini rivojlanishiga asos bo’ldi.

Tarixdan bizga ma’lumki Abu Nasr Forobiy g’oyalari orqali Movarounnahrda sarbadorlar XIV asrning 60-yillarida o’z davlatini parpo etganlar.

1 – bob bo'yicha xulosa

Forobiy asrlari Sharq allomalari, ayniqsa, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Koshifiy, Davoniy, Baxmanyor, Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy asarlari bilan bir qatorda o'rta asrlar Yevropasida keskin tus olgan mafkuraviy kurashda har ikkala tomon vakillari uchun g'oyaviy qirol vazifasini o'taydi. Agar ingliz monaxi Aleksandr (1170 - 1245), Akvinolik Foma (1225 - 1274), Buyuk Albert (1207 - 1280) Arestotel va uning sharqdagi izdoshlari ta'limotini buzub, isaviya dini aqidalarini oqlashga xizmat qildirishga urinsalar, qarama – qarshi tomon vakllari cherkov hukmronligiga qarshi kurash quroli sifatida foydalanadilar. Bu masalada, ayniqsa, Fransiyada Shartr, Parij, Angliyada Oksford, Italiyada Boloniya, Paruya universitetlari katta rol uynadilar.

Forobiy asarlari “Ixvon as – safo” yaratgan ilmiy risolalar jamlamasi paydo bo'lishiga ilmiy zamin hozirladi. Keyinchalik ispan – arab faylasufi, Arestotel asarlarini “sharhlovchi” deb mashhur bo'lgan Yevropada mashhur bo'lgan Ibn Ro'shd duyoqarashi, sharhlari, asrlarini paydo bo'lishiga Forobiy asarlarining ta'siri ta'siri katta bo'lgan. Yevropa olimlari Ibn Ro'shd asarlarida Forobiyga aloqador parchalarni topganlar. Keyinchalik Parij averriostchilari ta'limotining shakllanishida ham Forobiy asarlarining roli katta bo'lgan. Fransuz tadqiqotchilari Parij Milliy kutubxonasida topgan XIII asrning 60 – 70 yillariga oid lotin qo'lyozmalarida Forobiy asarlari ham borligi¹, Parij episkopi tadqiqotlarida olim sharhlari tilga olinishi fikrimizning isbotidir.

Abu Nasr Forobiyning dunyoqarashi IX-X asrlarda erishilgan yutuqlar yakuni deyish mumkin. Uning ijtimoiy g'oyalari keyinchalik mutafakkirlar: Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Baxmanyor, Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar ijodini rivojlanishiga asos bo'ldi.

¹ Конрад Н.И. Среднеи века в исторической науке. Избр. труды, М, 1974, с.217

II. BOB. FOZIL SHAHAR AHOLISINING AXLOQIY FAZILATLARI VA UNING MA'NAVIY BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA AHAMIYATI

1. Forobiy ta'limotida johillik va ommaviy madaniyatga munosabat masalasi

U davlatni fozil va uni ziddi bo'lgan davlatlarga bo'ladi. Fazilatli shaharda ilm, falsafa, axloq, ma'rifat birinchi o'rinda bo'lmog'i lozim, deb biladi. Shunda jamiyat yetuklikka erashadi, deydi. Forobiy insonning komaloti uchun xizmat qilgan, hayr – ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlarni yaxshilik deb hisoblaydi. Insonning komalotiga tusqinlik qiluvchi dangasalik, bekorchilik kabi yomon odotlar, bilimsizlik, ongsizlik, kasb – hunarga ega bo'lmaslik kabi nuqsonlarni yomonlik deb, kishilarni undan ogohlantiradi¹.

Forobiy hayotning oliy maqsadi baxt – saodatga erishuvdan iborat, kishilar bunga olamni o'rganish, kasb – hunar va ilmlarni o'zlashtirish, ma'rifatli bo'lish orqali erishadi deb qaraydi.

Forobiy fozillar shahrining ziddi bo'lgan shahar haqida fikr bildirib, bu shaharlarga (davlatlarga) quyidagilarni kiritadi: johillar shahri, benomuslar shahri, ayirboshlovchilar shahri, adashgan, zalolatdagi odamlar shahridir. Bu shaharlarning vakillari – ayrim odamlar ham fozillarning ziddi bo'lgan odamlardir.

Forobiy johillar shahri haqidagi fikrlarini davom ettirib, “johillar shahrining aholisi baxt-saodatga intilmaydi, baxt-saodat nimaligini bilmaydi ham – deb yozadi – chunki, jaholatdagi odamlar hech qachon baxt topmagan va baxt saodatga ishonmaydi ham”².

Johillar shahri aholisi farovonlik haqidagi tushunchalari to'g'risida shunday yozadi, – “Jaholatdagi odamlar (haqiqiy obodlikni bilmasdan) ba'zilar nazarida baxtu-davlat bo'lib ko'rinadigan o'tkinchi, yuzaki narsalarni, mol-dunyoni,

¹ S.Otamurodov, S.Hasanov, J.Ramatov “Ma'naviyat asoslari”. Toshkent, “A.Qodiriy” nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002, 160 – bet

² Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri”. Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993

jismoniy lazzatlarni, xirsu-shahvatni, obro', amal, shon-shuhratni haqiqiy baxt, farovonlik deb o'ylaydilar. Shu ne'matlardan har biri jaholatdagi odamlar nazarida hayotdan maqsad, baxt-saodat bo'lib ko'rinadi. Albatta, bu dunyoda halol va pok yashashni o'zi uchun hayotiy e'tiqod, oliy maqsad deb biladigan odamlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Aynan ana shunday insonlar va ularning ezgu ishlari tufayli bu yorug' olamda ma'naviyat hamisha barqaror bo'lib keladi¹.

Lekin, bunday olijanob fazilatlardan butunlay uzoq bo'lib yashaydigan, hayotning ma'nomazmunini o'zicha talqin qiladigan shaxslar ham oz emas. Ming afsuski, ular o'zini xuddiki dunyoning haqiqiy egasidek, bekamu ko'st, boshqalarning havasini tortadigan umr kechirayotgandek, baxt qushi boshiga qo'ngandek his qilishga urinadi.

Tabiiyki, bunday holatlarni ko'rib-kuzatib, o'zi uchun ezgu niyatlarni yuksak maqsad qilib ko'ygan insonlar qalbida qandaydir ikkilanish va shubha paydo bo'lishi mumkin. Odamlarni o'ylantirib qo'yadigan bunday holatlar hayotda ko'p uchraydi. Bunga qanday izoh berish mumkin?

Hammamizga ma'lumki, muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqiradi, lekin, shu bilan birga, hayotda bu kabi da'vatlarga amal qilishga intiladigan odam ko'pincha turli qiyinchiliklar, hatto azobu uqubatlarga duch kelishini kuzatish qiyin emas. Tan olish kerakki, yuksak ma'naviy tushunchalar bilan yashashga harakat kiladigan odamning bugun ham ko'p mashaqqatlarni, og'ir sinov va to'siqlar, muammolarni yengib o'tishiga to'g'ri keladi².

Zotan, (moddiy va ruhiy) ne'matlarning hammasi birgalikda uyg'unlashgan chog'dagina haqiqiy baxt – saodatga erishish mumkin. Bu ne'matlarning teskarisi – tan kasalliklari, kambag'alchilik, zavq, lazzatlar va hurmat, obro'ning yo'qligi — baxtsizlik bo'lib ko'rinadi).

Forobiy johillar shahrining bir qancha turlarini keltirib o'tadi. Shulardan biri **zaruriy ehtiyojlar shahridir**. Bunday shahar aholisi faqat badan uchun zarur

¹ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent, O'zbekiston, 2008

² Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent, O'zbekiston, 2008

bo'lgan narsalar: oziq-ovqat, ichimlik, kiyim-kechak, turar joy, jinsiy aloqa hamda shularga erishish uchun bir-birlariga yordam berish bilangina cheklangan odamlardir¹.

Johil shahrlardan yani biri **ayrboshlovchilar shahridir**. Ayirboshlovchilar shahrining aholisi — to'qchilik va mol-dunyoga erishuvda bir-birlariga o'zaro yordam berishni hayotning asosiy maqsadi deb biladilar.

Johil shahrlardan yani biri **razolat (tubanlik) va badbaxtlik shahridir**. Bunday shahar aholisi faqat yeyish, ichishdan, jinsiy aloqadan huzur-halovatga erishishga, hissiy lazzatlar, ishrat, kayf-safoning barcha turlariga intiladilar.

Forobiy johil shahrlardan yani biri sifatida **yevroparastlar shahrini** keltiradi. Bunday shahar aholisi o'zaro bir-birlarini maqtashni, ko'kka ko'tarishni yaxshi ko'radilar. Ularni o'zga xalqlar so'zda ham, ishda ham ulug'lashlarini istaydilar. Bir – birlarining oldida yoki begonalar ko'ziga ulug'vor, shon-shavkatli bo'lib ko'rinishni xohlaydilar. Forobiy shunday shaharlarga namuna sifatida butun dunyoni bosib olishga intilgan Rumo (Rim) imperiyasi poytaxti keltirib o'tadi.

Johil shahrlardan yani biri **amalparastlar, hokimiyatparastlar shahri**. Bunday shahar aholisi - barcha xalqlar ularga bo'ysunishini, o'zlari hech kimga bo'ysunmaslikni xohlaydilar. Ularning fikru – zikri g'alabalar, futuxatlar nashidasini surishga qaratilgandir. Bunday shahar (davlat)larga biz hozirgi kunda dunyoni boshqarishga intilgan AQSH, Rossiya, Yevropa davlarini kiritishimiz mumkin.

Johil shahrlardan yani biri **shahvatparastlar shahri**. Bunday shahar aholisining har biri ehtirolari tizginini jilovlamay, istalgancha shahvat nafslarini, tuban mayllarini qondirishga intiladi.

Jaholatdagi shaharlarning hokimlari ham xuddi shu shaharlar aholisi kabi. Ular o'zi hukmronlik qilgan shaharlarda yuqorida sanab o'tilgan shaxsiy istaklarini tinimsiz qondirishga intiladilar.

Jaholatdagi shaharlar aholisining mashg'ulotlari ham yuqorida aytilgan maqsadlarga xizmat qiladi¹.

¹ Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri". Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993

Agarki e'tibor bersak, tilimizda halollik va nopoklik haqidagi ibratli hikmatlar bilan birga, «Yo'lini topibdimi, qandini ursin», «Uzumini yeng-u, bog'ini surishtirmang» degan maqollar ham borligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Albatta, bunday maqol-matallar bejiz paydo bo'lmagan, ular ham ma'lum bir haqiqatning ifodasi. Binobarin, biz hayotning ma'no-mazmunini shunday tushunib, shu asosda yashashga intiladigan kishilar ham borligini inkor etolmaymiz².

Lekin, mening nazarimda, bunday gaplar odamning boylik va mol-dunyoni qanday yo'llar bilan topayotganiga loqayd va beparvo qaraydigan, manfaatparast shaxslar tomonidan to'qib chiqarilganlek tuyuladi. Ularning fikricha, inson o'z boyligini peshona teri to'kib, Olloh bergan aql-idrok va tafakkurini ishlatib topyaptimi yoki qing'ir-qiyshiq, harom-xarish yo'llar bilan orttiryaptimi — bu go'yoki hech kimni qiziqtirmasligi kerak.

Shu bois biz ma'naviyat haqida fikr yuritar ekanmiz, bu masalani atroflicha va chuqur tahlil etishimiz, uning faqat o'zimizga ma'qul, ijobiy tomonlari bilan cheklanib qolmasdan, ana shunday murakkab jihatlarini ham nazardan chetda qoldirmasligimiz lozim.

Lo'nda qilib aytganda, bu o'rinda gap bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan, bir-birini inkor qiladigan ikki xil hayotiy qarash haqida bormoqda.

Birinchisi — o'z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf yetkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo'lishi haqida o'ylab yashaydigan insonlarga xos hayotiy qarashlar.

Ikkinchisi — bunga mutlaqo qarama-qarshi bo'lgan yondashuv, ya'ni, hayotning ma'no-mazmuni haqida bosh qotirmasdan, bunday savollar bilan o'zini qiynamasdan, faqat nafs qayg'usi va o'tkinchi hoyu havasga, huzur-halovatga berilib, yengil-yelpi umr kechiradigan, o'zining ota-ona va farzand, el-yurt oldidagi burchiga umuman befarq bo'lib yashaydigan odamlarning fikr-qarashlari.

¹ Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri". Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993

² Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent, O'zbekiston, 2008

Mana shunday ikki xil dunyoqarash asosida paydo bo'ladigan og'ir savollar odamzot ongli yashay boshlagan zamonlardan buyon uni o'ylantirib, qiynab keladi¹.

Benomuslar shahrining odamlari fozillar shahri odamlariday baxt-saodatni, haq-taoloni, u yaratgan hilqatlarni, aqlni va boshqa narsalarni biladilar, va ularga ishonadilar, ammo ularga amal qilmay, yuqorida aytganimiz jaholatdagi shaharlarning aholisiga o'xshab yashaydilar.

Beqaror shahar. Bunday shahar aholisining nazariy qarashlari va amaliy ishlari avvallari fozillar shahri aholisining qarashlari va ishlariga o'xshash bo'lgan, ammo keyinchalik bu yurtga begona g'oyalar asta kirib olib, uning aholisi qarashlarini butunlay o'zgartirib yuborgan.

Adashgan shahar aholisining fikricha, baxt-saodatga faqat o'lgandan keyin yetishish mumkin. Ammo, bu shahar xalqining Alloh-taolo azza va jalla haqida, uning yaratgan hilqatlari va faol aqlga doir fikr-mulohazalari, tasavvurlari shu qadar chalkashib ketganki, bunday tasavvurlar halol yashash uchun asos bo'lolmaydi, bu (chalkash) tasavvurlar Alloh yaratgan hilqatlarning suvratlarini ham aslini ham aks ettirmaydi².

Bunday shaharning birinchi boshlig'i o'zini ilohiy nur sohibi qilib ko'rsatadi, ammo aslida bunday emas; u o'zining ilohiyligini isbotlash uchun aldov, riyo, kibru-havo bilan ish tutadi.

Bunday shaharlarning hokimlari fozillar shahri hokimlarining teskarisidir. Shaharni boshqarish usullari ham mutlaqo qarama-qarshidir. Bu fikr shu shaharlar aholisiga ham taalluqlidir. Fozii shaharlarning bir-biriga izdosh bo'lgan imom-boshliqlari yagona abadiy boshliqning yagona ruhini mujassam etadilar. Mabodo bir zamonda ko'pchilik shunday shaharlarning hokimlari yashasalar ular ham birgalikda yagona abadiy hukmdorni, ularning ruhlari esa yagona abadiy hukmdor ruhini mujassam etadilar. Fozillar shahri odamlaridan ba'zilari hamma uchun mushtarak — umumiy bo'lgan bilimlarni o'rganib ish yuritadilar, ba'zilari esa faqat muayyan mavqedagi odamlar bilishi zarur bo'lgan bilimlarni o'rganish va ish

¹ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent, O'zbekiston, 2008

² Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri". Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993

yuritish bilan shug'ullanadilar. Bu odamlarning har biri, shunday umumiy va xususiy bilimlar va faoliyatlar orqali saodatga erishadilar. Har bir shaxs baxt – saodatga eltuvchi faoliyat bilan qancha uzoqroq va avvalgidan yanada yaxshiroq shug'ullanaversa uning ko'ngli, ruhiy holati ham shunga muvofiq komilroq, fozilroq bo'lib boradi¹.

Forobiy jaholatdagi va adashgan shaharlar ahli qarashlari haqida so'z yuritib shunday yozadi, “Aholilarining diniy e'tiqodlari xurofiy, xato dunyo-qarashlarga asoslangan shaharlarni jaholatdagi yoki adashgan shaharlar deymiz”.

Ularning ba'zilari bunday fikrlashadi: ba'zi mavjudotlar bir – biriga qarshidir va bir-birlarini yo'q qilishga intiladilar. Mazkur mavjudotlarning har biri yashash sharoitida shunday quvvat maxfuzga egaki, shu narsa vositasida u qarama – qarshi mavjudotdan o'zini himoya qiladi va o'z zotini yo'qolib ketishdan asrab qoladi. U, yashash sharoitida yana shunday quvvatga egaki, shu narsa vositasida u o'ziga qarshi narsani yo'qotib, o'rnida o'ziga o'xshash mavjudotni paydo qiladi.

Va nihoyat, unga shunday bir qobiliyat beriladiki, shuning yordamida u turli narsalardan foydalanib, yashash uchun doimiy yaxshi sharoit vujudga keltirishga intiladi.

Mazkur mavjudotlarning ko'pchiligi o'zlariga ato etilgan qobiliyat tufayli qarshi ish ko'ruvchi (tug'dirgan mashaqqatlarni) yengib o'ta oladilar. Shu tarzda olamdagi har bir mavjudot o'ziga qarshi va umuman boshqa mavjudotlarni yo'qotib, o'z yashash sharoitini yaxshilashga intiladi. Bizga shunday ko'rinadiki, olamdagi barcha mavjudotlar faqat o'z yashash sharoitlarini yaxshilash uchun, o'ziga foyda keltirmay zarar keltiradigan boshqa barcha mavjudotlarni yo'qotish uchun, faqat o'zining yaxshiroq yashashini ta'minlash uchun dunyoga kelgan. Biz hayotda juda ko'p hayvonlarga tashlanib, o'zlariga tuzukroq foyda chiqmasa ham ularga zarar yetkazish va yo'q qilish uchun hamla qiladigan juda ko'p hayvonlarni ko'ramiz. Go'yo ularning har biri dunyoda faqat o'zi yashashi kerakday, boshqa mavjudotlarning yashashi unga zarar keltiradiganday, shu hayvon borligining o'zi uning uchun zararday, tabiatda boshqalarni yo'q qilishga intiluvchi hayvonlarni

¹ Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri”. Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993

uchratamiz. Mabodo, biror mavjudot boshqa mavjudotlarni yo'q qilishni ko'zlamaganida ham, o'z foydasi uchun ularni qiynab ishlatishga intiladi. Ba'zi navdagi mavjudotlar boshqa navdagi mavjudotlar bilan xuddi shunday munosabatdadir. Hatto bir navdagi mavjudotlar o'zaro ham shunday munosabatdadir. Bu mavjudotlar shunday yaralganki, doimo bir-biriga qarshi kurashib, birlariga dushmanlik qiladilar. Eng kuchlilari boshqalariga nisbatan mukammalroq tuzilgan bo'ladi. G'olib kelganlar ham bir – birini yo'qotishga urinadilar, go'yo boshqa mavjudotlar nomukammalday, ularning borligi bularga zarar keltiradiganday, yoxud boshqalar ularga faqat (qulday) xizmat qilish uchun yaralganday, barchasi bir – birini ezib ishlatishga intiladi.

Mana shu hodisalarda hech bir tartib, izchillik yo'q, deb o'ylashadi; mavjudotlarning shu fe'l – atvorlarida turli darajalari yo'q deb o'ylaydilar: bu mavjudotlarning turli xususiyatlari ularning o'z fe'l-atvoridan kelib chiqmasdan, tartibsiz yuzaga chiqaveradi, deb o'ylaydilar. Biz kuzatgan ma'lum mavjudotlarda ham shu va shunga o'xshash hodisalarni ko'ramiz.

Ba'zilarining o'ylashicha, mavjudotlarning tug'ma fe'l – atvori shunday. Bu mavjudotlar o'zlarining aqlsiz yoxud aqli hayvonlarga o'xshash tabiatlariga ko'ra, o'z bilganlaricha, erkin holda harakal qiladi. Shundaylarning fikricha (tabiatan) shaharlar bir biriga qarshi kurashishlari, o'zaro dushmanlik qilishlari zarur. Ularning (fazilatlik) darajalari yo'q, birlari boshqalariga nisbatan hurmatga sazovorroq emaslar, ularning xatti-harakatlarida izchillik, tartib yo'q, deb o'ylaydilar. Ular har bir odam o'zidagi barcha noz-ne'matlardan o'zi foydalanishi, shaxsiy manfaati uchun boshqalarga qarshi kurashishi kerak, eng baxtli odam shu kurashda dushraanlarni yengib chiqqan odamdir, deb o'ylaydilar.

Mana shu (sabab)larning hammasi tufayli ko'pchilik shahariarda jaholatdagi shaharlar aholisining qarashlariga xos fikr-aqidalar kelib chiqadi. Ba'zilar, odamlar o'rtasida tabiiy yoki ixtiyoriy bog'lanishlar yo'q, har bir odarni o'z manfaati uchun boshqalarning manfaatiga zarar etkazishi, biri boshqasiga begona bo'lishi zarur, mabodo ular birlashsalar ham zarurat, majburiyat tufayli birlashadilar, o'zaro murosaga kelishsalar harn faqat biri g'olib chiqib, boshqalari mag'lub bo'lganida

kelishadilar, deb o'ylaydilar. Bunda ular tashqaridan ta'sir etuvchi bir kuch tazyiqida o'zaro kelishuvga majbur bo'ladilar, agar ana shu kuch yo'qolsa kelishuv ham yo'qoladi, yana begonalashuv paydo bo'ladi va ular tarqalib ketadilar, deb hisoblaydilar. Insoniyatga xos hayvoniy aqidalardan biri mana shu aqidadir.

Boshqa ba'zilar esa, odamlar ayrim holda yashaganlarida yordamchilar va xizmatchilarsiz o'zlarining hayotiy ehtiyojlarini qondirolmagani uchun, shularning g'amxo'rligisiz yashay olmaganlari uchun birlashib yashash foydalidir, deb o'ylaydilar.

Ba'zilar fikricha, bunday birlashuv majburlash, zo'rlik ishlatish bilan amalga oshadi, yordamchilarga ehtiyoji bor odam boshqa odamlarning bir guruhini o'ziga bo'ysundiradi va o'sha guruhni o'zi uchun ishlatadi.

2. Yosh rahbar kadrlarni ma'naviy tayyorlashda "Fozil odamlar shahri" asarining o'rni va ahamiyati.

Sharq Uyg'onish davrining yetuk qomusiy olimi, faylasuf Abu Nasr Forobiyning davlat va huquq haqidagi ta'limoti u qoldirgan ilmiy merosning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mutaфakkirning jamiyat va davlatshunoslik sohasidagi qarashlarining shakllanishi va rivojlanishi u yashab, ijod qilgan davr – O'rta Osiyo hududlarining arab xalifaligiga bo'ysundirilgan davrlariga to'g'ri keladi, hamda o'sha vaqtdagi kishilik jamiyatining ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy rivojlanishi muammolarini o'zida aks ettiradi. Shunisi diqqatga sazovorki, bu Sharq olimining ko'pgina fikrlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Ayniqsa, turlicha tarixiy davrlarda o'ziga xos tarzda talqin qilinishi mumkin bo'lgan qator muhim fikrlar mavjud.

Forobiy davlatni har tomonlama yetuk o'zida eng yaxshi insoniy fazilatlarni jo qilgan kishilar yordamida idora etish zarurligini qayd etadi. Shuningdek, u har tomonlama yetuk aholini ilm-ma'rifatga olib boruvchi ideal jamoa haqidagi hayolotini olg'a suradi. Forobiy davlatni boshqaruvchi Oллоhdan boshqa hech kimga bo'ysunmasligi kerak, u tabiatan o'n ikkita xislat – fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur, deydi va ularni birma-bir sanab ko'rsatadi¹.

Abu Nasr Forobiy e'tiqodicha, «O'zida o'n ikki tug'ma xislatlarni birlashtirgan inson axloqli bo'la oladi», - deydi². Bu xislatlar majmuasi fozil inson kontseptsiyasiga asos bo'ladi.

Birinchidan, bunday odamning barcha organlari shu darajada taraqqiy etgan bo'lishi kerakki, u bu organlari bilan bajarmoqchi bo'lgan ishlarini osonlik bilan bajarsin;

Ikkinchidan, barcha masalani tezda anglaydigan, so'zlovchining maqsadi va aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo'lsin;

Uchinchidan, xotirasi juda baquvvat bo'lsin;

¹ Muhiddinova F. "Forobiy siyosiy – huquqiy ta'limotida qonun va qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi". Toshkent, 2005, 55-bet

² Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri". Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993, 159-160-betlar

To'rtinchidan, zehni o'tkir bo'lsin;

Beshinchidan, so'zlari aniq bo'lsin, fikrini ravon va ravshan bayon eta olsin;

Oltinchidan, bilish va o'qishga muxabbati bo'lsin;

Yettinchidan, ovqatlanishida, ichimlik iste'mol qilishda ochko'z bo'lmasin, qimor o'ynashdan yiroq bo'lsin;

Sakkizinchidan, haqiqatni haqiqat tarfdorlarini sevadigan bo'lsin;

To'qqizinchidan, ruhi g'ururli va o'z vijdonini qadrlaydigan bo'lsin;

O'ninchidan, dirham dinar va shu kabi turmush bid'atlariga jirkanish bilan qarasin;

O'n birinchidan, o'z tabiati bilan adolatli va adolat uchun kurashuvchilarni sevadigan, adolatsizlik va jabr zulmga kurashuvchilarni sevadigan bo'lsin;

O'n ikkinchidan, adolatli bo'lsin, lekin qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o'zbilarmonlikka berilmasin.

Forobiy ana shu fazilatlarining hammasi bir kishida bo'lmasligini hisobga olib, davlatni bir kishi emas, balki bir necha kishi boshqarishi kerak, degan fikrni olg'a surgan.

Shuningdek, Forobiy adolat tamoyillari, fuqarolarning o'zaro tenglik va umumiy baxtiyorlikni amalga oshirish zaruratini hukmdorning quyidagi 6 ta xislat va sifat ko'rsatkichlariga bog'liqligini alohida ta'kidlaydi:

- birinchisi, donishmandlik;
- ikkinchisi, avvalgi imomlar o'rnatgan qonunlar va tartiblarni xotirada yaxshi saqlab qolish va ularga amal qilish uchun quvvati hofizga ega bo'lish;
- uchinchisi, agar avvalgi imomlar davridan biror (yoki bir qancha) sohaga taalluqli qonun qolmagan bo'lsa, bunday qonunni o'ylab topish uchun ijod, ixtiro qilish quvvatiga ega bo'lish;
- to'rtinchisi, hozirgi haqiqiy ahvolni tez payqab olish va kelgusida yuz beradigan avvalgi imomlar ko'zda tutmagan voqealarni oldindan ko'ra bilish uchun bashoratgo'ylik xislatiga ega bo'lish. Bu xislat unga xalq farovonligini yaxshilash yo'lida kerak bo'ladi;

- beshinchisi, avvalgi imomlar o'rnatgan qonunlarga, shuningdek, avvalgilaridan ibrat olib, o'zi to'qib chiqargan qonunlarga xalq amal qilishi uchun so'zlash - notiqlikka ega bo'lishi;

- oltinchisi, zarur hollarda harbiy ishlariga mohirona rahbarlik qilishi uchun yetarli jismoniy quvvatga ega bo'lish, ham jang qilishni, ham sarkarda sifatida janggu-jadalga rahbarlik qilish uchun harbiy san'atni yaxshi bilishi kerak, - deydi Forobiy¹.

Abu Nasr Forobiy kimlar rahbarlik qilishga munosib bo'lishi mumkin degan masala xususida o'z fikr – mulohazalarini davom ettirib, ta'kidlaydiki, mobodo shu olti xislatning barchasini o'zida jamlagan bir odam topilma-sa, fozillar shahriga rahbarlikka ana shunday fazilatli ikki kishini (biri – donishmand, ikkinchisi qolgan xislatlar sohibi bo'lsa) qo'yish zarur. Agarda qayd etilgan xislatlar bir emas, bir necha kishilarda bo'lsa (ya'ni, birida u, ikkinchisida bu, uchunchisida yo to'rtinchisida boshqa xislatlar mujassam bo'lsa), yana shu fozil insonlar guruhini yurt rahbarligiga ko'tarish ma'qul deb maslahat beradi. Uning fikricha, ana shu guruh insonlar hamjihat bo'lib, o'zaro bamaslahat, kelishib ish tutsa, shahar yaxshi boshqariladi, har bir fozil hokim bo'lishi mumkin. Lekin, fozillar shahriga hokimlik qilayotgan kishilar barcha zarur xislatlarga ega bo'lsa-yu, ammo, donishmandlik bo'lmasa, fozillar shahri yaxshi hokimsiz qoladi, bunday shahar halokatga yuz tutadi².

Shunday qilib, Abu Nasr Forobiy rahbar uchun eng muhimi – bu donishmandlik degan g'oyani hamma fazilatlardan ustun qo'yadi. U o'z zamonasining hokimi, imomi, boshlig'i, rahbari barcha kishilardan har jihatdan mukammal, komil inson bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Faqat shunday inson bosh – qosh bo'lgan, rahnomalik qilayotgan shahargina chinakam fozil kishilar shahri bo'lishi mumkin.

¹ Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri". Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993, 160-bet

² E.Xoliqov, X.J.Xudoyqulov, M.Q.Isoqov "O'zbek g'ururi – uning odobi". Toshkent, "Fan" nashriyoti. 2008, 238-b

Abu Nasr Forobiyning rahbar va rahbarlik haqidagi bu fikr – mulohazalari uzoq yillar davomida ko'pchilik podsho, xon, amir, sulton, bek, hokimlar uchun bir uslubiy qo'llanma, dasturulamal bo'lib kelgan bo'lsa ajab emas.

Ko'rinadiki, fozillar shahri hokimi ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan mukammal, qobiliyatli, har tomonlama yetuk bo'lishi bilan bir qatorda dono ham bo'lishi zarur. «Dono bo'lmasa, fozillar shahri yaxshi hokimsiz qoladi, bunday shahar halokatga yuz tutadi, fuqarolari esa jabr-zulmga muhtalo bo'ladi», deydi Forobiy.

Insonlarda adolat, vijdon, or – nomus, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi ko'plab ajoyib his – tuyg'ular rivojlangan.

Qisqasi, insonning komil, yetuk, barkomol bo'lib yetishishida milliy qadriyatlarning ta'siri benihoya kattadir.

Abu Nasr Forobiy bu hususda shunday deb yozgan: “Kishilar tug'ilganida kamolotli bo'lib tug'ilmaydi, ularning orasida aslidafarqlar bo'lmaydi, xulqi, faoliyati, hayoti istagancha bo'labermaydi. Bular keyinchalik o'zgaradi, ya'ni jamiyat orasida o'sa boshlagandan keyin, bu yerdagi qarama – qarshiliklarni o'ziga singdira boshlaydi, har xil mushkulotlarga duchor bo'ladi. Uning adolatga yaqinligi yoki uzoqligi xulqiga, yashagan jamiyatiga bog'liq¹. ”

Abu Nasr Forobiyning fozil jamoa haqidagi ta'limoti, uning komil inson haqidagi g'oyalari bilan uzviy bog'langan. Umuman olganda fozil jamiyat-komil inson, baxt-saodat, o'zaro yordam, dono boshliq, tenglik haqidagi g'oyalari o'z davri uchun hayoliydir.

Abu Nasr Forobiy fozil jamiyat va fozil shahar shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunar bilan shug'ullanadi, ular orasida yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi. Fozil jamoani boshqaruvchi podshoh doimo g'amxo'r bo'lishi, o'z manfaatidan boshqalar manfaatini yuqori qo'yishi zarur².

¹ I.Xoliqov, M.Sobirova, M.Rustamov. Ma'naviyatning axloqiy asoslari. Toshkent – 2013, Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi. 83 – b

² Haydar Aliqulov. “Falsafiy meros va ma'naviy – axloqiy fikr rivoji”, Toshkent. 2009. Falsafa va huquq institute, 34 – 36 – betlar

Abu Nasr Forobiy fikricha davlatni boshqarish ikki xil bo'ladi. Insonlarni haqiqiy va hayoliy, soxta baxtga eltuvchi davlat tuzish, davlatni boshqarish san'ati va boshqarishning umumiy qonunlariga binoan nazariy bilim va talablarga asoslanadi. Abu Nasr Forobiy din erkinligi tarafdoridir. Abu Nasr Forobiy davlatni boshqaruvchisining zaruriy fazilatlaridan biri, mulohazali bo'lish, adolatparvar, kamtar, haqiqatgo'y va aql bilan ish ko'rishdir. Abu Nasr Forobiy inson aqlining bilish qobiliyatlarini aniqlashga intiladi.

Rahbarda bilishi zarur bo'lgan qoida va axloqiy hislatlar haqida Farbiy quydagilarni alohida zikr etadi.

- Shahar (davlat) tartibotida eng asosiy narsa mulk, noz-ne'matlarni to'g'ri taqsimlashdir; ko'pchilik odamlarning ishi jo'nlashib, bema'nilashib ketmasin, zarur narsalarning ozayib ketishi odamlarni faqir ahvolga solib qo'ymasini.

- Avvalo yer va joylarning miqdori, keyin ularning egalari va tutgan o'rinlari, so'ngra nihoyatda zarur narsalar bo'lgan oziq-ovg'at ekiladigan yerlar, saroylar va shaxsiy uylarning miqdori hisobga olinishi kerak.

- Taqsimot ishiga hokimlar g'oyat katta e'tibor berishi kerak. Bu qiyin, lekin juda zarur ish.

- Bolalar, o'smirlar hamda johil odamlarni boshqarishga katta e'tibor berishlari kerak.

- Mulkni oshirish masalalsiga katta e'tibor berish kerak. Mulkni befoyda jamg'arishdan farqli ravishda mulk egasi bo'lishi yomon odat emas, chunki mulk halollik bilan to'planadigan bo'lsa, qashshoqlikda yashashga qaraganda badavlatlik afzal, boshqalarga zarar etkazmaslik ham mol-mulk orttirishning muhim yo'lidir. Sayohat va tijorat ham mulk orttirishning muhim yo'lidir. Tarbiya va qonunlarning maqsadi - odamlarni yomon ishlardan tiyishdir.

- Hokim faqirlar va boylarga bir xil e'tibor berishi, ularning ruhlarini tuzatuvchi va yaxshi qonunlar yaratishi lozim.

- Rahbar yana og'irlik o'lchovi, don-dun va shunga o'xshash narsalar o'lchovi haqida ham hech kimga zarar keltirmaydigan savdo haqida qonunlar chiqarishi kerak.
- Hokimlar va hokimiyat tabiiy tartibga keltirilishi zarur, bunday tartib bo'lmagan taqdirda davlatda ham tartib bo'lmaydi.
- Hokimlar va hokimiyat o'rtasida tartib bo'lmasa, ko'p o'tmay ular masxara bo'ladilar va davlat inqirozga yuz tutadi.
- Hokim va hokimiyatga hayot tajribasiga ega xushxulqli odamlarni jalb etish kerak, ammo aslo bu ishga go'l va johil odamlarni qo'shmaslik darkor.
- Hokimiyat kengashlari o'tkazilayotganda vazirlar, savdogarlar va mansabdorlarning bajarayotgan ishlariga, ularning o'zaro munosabatiga ahil yoki noahil ekanliklariga katta e'tibor berish zarur va shu yo'l bilan birga shahar (davlat) aholisining yaxshi fazilatlarini e'tirof qilib, rag'batlantirish kerak.
- Fazilatni qabohatga almashtirgan o'jar odamlarga qarshi hokimlar kurashsagina ma'qul tartib bo'lishi mumkin.
- Hokim tartib o'rnatishda do'stlikni paydo qiluvchi tenglikka e'tibor berishi, ularning har ikkalasi ham tartib o'rnatishda katta ta'sir kuchiga ega ekanligini hisobga olishi kerak. Tenglik odamlarning har biriga ato etilgan, o'zi munosib bo'lgan mavqe'dir. Bu tenglikdan muhabbat va do'stlik tug'iladi.
- Agar yashash uchun beriladigan mablag' odamlarning harajatiga to'g'ri kelmasa, turli noma'qulliklar ro'y beradi. Bu burilish eng qiyin ishdir. Kimda kim o'z ixtiyorida bo'lgan mulkni foyda chiqarish uchun muomalaga qo'shmay, o'zi uchun jamg'arsa, juda katta zarar keltiradi. Hokimlar bunday odamlarni nazorat qilishlari (mulkni ishlatmay jamg'arishlarni) man etishlari va boylikni sovurishlariga yo'l qo'ymasliklari kerak. O'zlaridagi mablag'laridan ortiqcha sarflaydiganlarning illatlari davlatga g'oyat katta kulfat va zarar keltiradi.
- Hokimlar, rahbarlar va mansabdorlar qonunlar va saltanatni himoya qiluvchilardir.

- Hokimlar suv masalasiga ham e'tibor berishlari kerak, chunki shahar, (davlat) aholisi uchun suv manbalarini tartibga solmay turib, hayot kechirishlari mumkin emas.
- Qonun chiqaruvchilar va hokimlar suv muammosiga daryolarning o'zaniga katta e'tibor berishlari zarur.
- Soliqlar masalasi ham hokim va qonun sohiblari boshqarishi zarur bo'lgan masaladir.
- Eng katta jinoyat rahbar shaxs tomonidan qilingan jinoyatdir. Bunday holatda boshqa hokimlar uni tarbiyalash va ta'sir o'tkazish choralarini ko'rishlari kerak. Agar bunga e'tibor berilmasa, bunday jinoyatlar shahar (davlat) illatlarining ko'payishiga va shaharning (davlatning) inqiroziga sabab bo'ladi.
- Hokimlar o'z ishlariga beparvo bo'lishlari mumkin emas.
- Odamlar hokimlar ko'rsatgan to'g'ri yo'ldan borishlari va qonunlarning tuzilishi, hamda mohiyati ularda qarab uyg'otmasligi uchun sohibi qonunlar hokimlarni, odamlarni boshqarishga o'rgatishlari lozim.
- Ota-ona va hokimlarni mensimaydiganlarni jinoyatchilarday jazolash zarur.

Hokimiyat vakillari bunday ishlarni o'z zimmalariga, olib, jinoyatchilarni ularning jinoyatlariga qarab, tayoq bilan urib, yoki jarima solib, yo qatl etib jazolashlari kerak¹.

Inson, Forobiyning fikricha, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga munosib va ulug'vor vositalar yordamida erishmog'i lozim.

Yillar o'tishi davomida insonda hayotiy tajriba to'plana boradi va shuning uchun qonunlarni o'rnatishning asosiy ob'ekti yoshlar bo'lmog'i lozim. Forobiy fikricha, ehtiyojlar o'z vaqtida anglab yetilishi kerak va ularga «sovuq mulohaza» bilan yondashmoq lozim. Pedagogik ta'limot va ta'lim tizimining rivojlanishi ana shu masalalardan kelib chiqadi. Ham qonunshunoslar, ham tarbiyalanuvchilar birlari bilan chambarchas holatda harakat qilishlari kerak. qonunshunos hamisha tanqidni ochiq va munosib tarzda qabul qilishga tayyor bo'lishi kerak. Tarbiya

¹ Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri". Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993

jarayonida uzilishlar, tanaffuslar bo'lmashligi lozim, aks holda yoshlik paytda ta'lim-tarbiya ko'rmagan kishini keyinchalik qonun bilan tarbiyalash o'ta mushkul. Qonunlarning bajarilishini muntazam nazorat qilib turmoq lozim.

Forobiy qonunshunoslar (ustozlar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, siyosiy yetakchilar, rahbarlar va boshqalar)ga nisbatan qattiq talablar qo'yadi. Qonunshunoslar pedagogikaning barcha oliy qoidalarini egallagan, so'z san'atini puxta bilgan bo'lishi, auditoriyaning salohiyatini chamalay oladigan va shunga ko'ra ma'ruza qiladigan sinchkov murabbiy bo'lmog'i lozim. Agar kishilar qonunlarning mohiyatini tugal anglay olmasalar, ulardan voz kechish xavfi tug'iladi.

Qonunshunos har qadamda hayotdan saboq olmog'i, har tomonlama mustaqil fikr yuritish aobiliyatiga ega bo'lmog'i kerak. Uni odatlar va ehtiroslar yoki boshqa hukmdor boshqarishi kerak emas. Forobiy fikricha, bu holatda boshqa hukmdorning hukmronligi qonuniy bo'lsa-da, ana shu oliy taxtga hamisha ham sahovatpesha hukmdor kelishiga hech kim kafolat bera olmaydi.

Tarbiya borasida Forobiy oilaning, jumladan, otaning rolini alohida ta'kidlaydi. Aynan bolalikda oilada ijtimoiy qonun-qoidalariga munosabat shakllanayotgan paytdan boshlab ijtimoiy huquqiy madaniyat asoslari yaratiladi.

Forobiy siyosiy-huquqiy tarbiyaning asosiy kategoriyasi sifatida: aql, aqlga intilish, tarbiyalilik, adolatparvarlik, fozillik, botirlik kabilarni ilgari suradi. Aql – bu saxovatdir. «Tarbiya aqlni paydo qiladi, - deydi Forobiy, - kimda tarbiya bo'lmasa, qusurlarni ijobiy xususiyat sifatida qabul qiladi, tarbiyali kishi bo'lsa, faqat fozillikni ulug'laydi. qonun saxovat tomon yo'ldir, shu tufayli tarbiyani mustaqamlash uchun barcha imkoniyatlarni safarbar qilish lozim¹».

Forobiyga ko'ra, siyosiy-huquqiy munosabatlar tizimida tarbiya baxt va fozillikka erishishning asosiy omilidir. Eng avvalo, hukmdorning o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak, aks holda davlat yoki shahar tanazzulga yuz tutadi.

Ushbulardan kelib chiqqan holda, Forobiyning fikriga ko'ra, tarbiya jarayonida ayrim majburlash usullari, xususan, ishontirish yoki manfaatdorlikni

¹ Ал-Фараби. Историко-философские трактаты. С.165.

uyg'otish kabilardan foydalanish ma'qul. Aks holda jamiyatda qullarcha bo'ysunish holati paydo bo'ladiki, bu ham oxir oqibatda jamiyatni emirishga olib keladi. Inson madaniyati fozillikning uch turi bo'lgan muhabbat, tarbiya va aqlga tayanadi.

Bu g'oyalarning barchasi nafaqat «Aflotun «Qonunlari»ning mohiyati» asarida, balki «Fuqaro siyosati», «Davlat arbobining tuzuklari (aforizmi)», «Fozil shahar aholisining qarashlari» kabi asarlarida ifodalangan.

Tarbiya insonning ijtimoiy jihatdan o'z-o'zini anglashi uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Forobiy fikriga ko'ra, kishilarda tug'ma qusurlarning bo'lishi mumkin emas yoki ta'lim-tarbiya berishning imkoniyati bo'lmagan kishilar mavjud emas. Shu nuqtai nazardan u tarbiyani majburiy va ixtiyoriy ravishda ikkiga bo'ladi. Ikki xil kishilar borki, ularning ayrimlari ixtiyoriy ravishda qonunga bo'ysunadilar va bundan lazzatlanadilar. Boshqa tur kishilar esa, jazolanishdan qo'rqib, o'z xohish irodalariga qarshi turgan holda qonunlarga bo'ysunadilar. «Fozillik» va «o'z-o'zini tiyishlik» qonunlar va tarbiya ta'sirining natijasidir. Ham birinchi, ham ikkinchi holatga to'g'ri kelmaydigan kishilar shahardan quvg'in qilinadilar.

Forobiyning qonunga bo'ysunish va axloq borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Ulug' narsalarga va ehtirolarni bo'ysundirishga intilgan kishi ahmoqona ishlar bilan shug'ullanmaydi. Axloqiy fozillik, Forobiy fikriga ko'ra, yillar davomida shakllanadigan odatdir. Bu adolat, donishmandlik, mardlik va hokazolarga bo'lgan odatlardir. «Agar insonda tug'ma kibr-havo va takabburlik kabi xususiyatlar bo'lmasa-da, baribir u o'z qalbini mashq qildirishi kerak, chunki insonda o'z sevikli kishisining ko'pgina jinoyatlarini sezmaslik singari tug'ma xususiyat mavjuddir¹». Bu yerda Forobiy insonning o'z hislarini tuta bilishi, hissiyotni aqlga bo'ysundirishi, bir so'zlilik haqida fikr yuritadi. Insondagi hissiyotni tuta bilish qobiliyati uning fazilati sifatida ulug'lanishi kerak.

Forobiy jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish uchun huquq va huquqiy tarbiyaga katta ahamiyat bergan mutafakkirdir. Chunki aynan huquq va huquqiy

¹ Ал-Фараби. Историко-философские трактаты. С.165.

tarbiyada ijtimoiy taraqqiyot, iqtisodiy va ma'naviy muvaffaqiyatning asoslari yotadi. Forobiy qonunning ustuvorligi ijtimoiy yuksalishning asosi deb tasavvur etadi.

Forobiyning “Fozil shahar”da hokimga quyilgan eng muhim hislat sifatida adolatli bo’lish kerakligini qo’yadi.

Adalat so’zining mazmunida poklik, to’g’rilik, haqiqat, mujassamdir. Insoniyat yaralgandan beri adolatni qadrlab kelgan. Adolat bo’lgan joy gullab – yashnagan, xalq erkin bo’lgan. Adaolat – oyoq osti qilingan joylarda esa razolat hukm surib, jamiyat tubanlikka yuz tutgan.

“Adolatning ikki bosh manbai mavjud: birinchidan , hech bir kimsaga ziyon yetkazmaslik kerak va ikkinchidan, jamiyatga naf keltirish zarur”

“Adolat g’oyasini rad etib bo’lmaydi; u axloq – odob qonunlaridan, aql – idrok qonunlaridan, omma hayotining o’zidan kelib chiqadi; adolat boshdan oxir hayot ufurib turgan so’zdir ”.

“Shubhasiz , hech kim huquq va adolat to’g’risidagi tayyor tushunchalar bilan tug’ulmaydi, biroq inson tabiati shundayki, ma’lum yoshga kelganda bu haqiqatlar tabiiy yo’sunda shakllana boshlaydi. ¹”

Adolat Allohni tanishda, kishilar o’rtasida hukm chiqarganda, oila farzand o’rtasida odillik bilan ish tutishda va boshqa ko’rinishlarda namoyon bo’ladi. Shu o’rinda Arastuning Iskandarga nasihatidagi adolat haqidagi fikrlarni keltirish o’rinlidir. “Bilgilki, adolat buyuk va qudratli xudoning yer yuzidagi o’lchovidir. Uning yordamida zaif bo’lgan haq odam, kuchli bo’lgan nohaqdan o’z haqini oladi. Kimki, Alloh bandalari orasida o’rnatgan ilohiy adolat o’lchovini buzsa va undan chetlashsa, katta nodonliklar qilib, xatoliklarga yo’l qo’yadi. O’z ishlarida ikki sifatni egallashga intilish kerak. Biri, dillarni asir etish. Boshqasi esa ishda sabotli va paysalga solishdan saqlanishdir. Chunki, ishlarni bajarishga fursat topolmay qoladi. Agar uni boshqa kishiga topsharsa, ishi yanada og’irlashib, kattalashib ketadi va keyin uni bajarib bo’lmay qoladi²”.

¹ Tafakkur jurnali, Toshkent, G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1989, 263 – 264 – betlar.

² Amir Temur Kurogoniy. “Zafar yo’li”. Toshkent, “Fan” nashriyoti. 1992, 10 – bet

Adolatparvarlik – insondagi o'tkir aql, sof mulohaza, toza ko'ngil, olijanob va mard ekanini ko'rsatib turuvchi dalildir. Dunyoda adolatparvarlikdan ko'ra ko'rkamroq xalq va tabiat yo'q undan ko'ra sharafliroq hislat va iqbol, ta'sirliroq naf qiluvchi narsani topish amri mahol. Adolatli bo'lish so'zida turish, qat'iylik demakdir.

Forobiyning fikricha, inson doimo kamolotga intiladi. Lekin u quruq intilish bilangina cheklanib qolmasdan, balki hayotdagi juda ko'p narsalardan foydalanish yo'li bilan yoki shu tabiatda bo'lgan juda ko'p ishlarni amalga oshirish bilan qo'lga kiritiladi.

Forobiyning fozil jamoa qurish haqidagi ta'limotiga adolat g'oyasi asos qilib olingan. Unda adolat jamiyatdagi barcha kishilar uchun baxt – saodat eshiklarini ochib beruvchi, barcha uchun kerakli va foydali bo'lgan buyuk ne'mat ekanligi ta'kidlanadi. Uning yuzaga chiqishi uchun muayyan ijtimoiy shart – sharoitlar, eng avvalo, yuksak axloqiy va ma'naviy asoslar ustiga qurilgan fozil jamoa bunyod etilmog'i lozim. Fozil jamoada odamlar faqat sa'y – harakatlari, fazilatli ishlari, hamjihatlik va o'zaro hamkorlik bilan baxtga erishadilar. Demak, adolat fozil hukmdor rahbarligidagi faoliyat natijasida yuzaga chiqadigan ezgu ishlar natijasidir.

Forobiyning fikricha, hamma uchun baxt – saodat eshiklarini ochish imkoniyatini vujudga keltirish fozil jamoaning o'z oldiga qo'ygan yuksak maqsadir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun donolik va aql – farosat bilan ish olib borishimiz lozim. Fozil jamoaning boshqa nomukammal jamiyatlardan farqi shundaki, uning fuqarolari insonning hayotiga bog'liq bo'lgan fazilatli narsalarga erishish maqsadida bir – biriga ko'maklashadilar, jamiyat hayotida o'zaro ishonch, mehr – muhabbatni qaror topishiga olib keluvchi xatti – harakatlarni amalga oshiradilar¹.

Forobiy adolatning barcha sohalarga tarqalishga zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, “adolat – bu avvalombor barcha jamoa a'zolari qaramog'idagi ijtimoiy ne'matlarning (to'g'ri) taqsimotidir, undan tashqari, kishilararo

¹ R.Z.Jumayev, C.Mamashoirov, A.Hukumov va b. “Shaxs va Jamiyat”. Toshkent, “O'qituvchi” nashriyoti, 2005, 63-b

taqsimlangan ne'matlarni saqlab qolish hamdir. Bunday ne'matlar qatoriga farovonlik, boylik, izzat – ikrom, har bir odamning jamiyatda tutgan o'rni va fuqarolarning turmishiga aloqador boshqa ne'matlar kiradi. Chunki jamoa a'zolarining har biri o'zining mehnatiga muvofiq holda bu ne'matlardan tegishli hissasini olishi kerak. Shu bois agar biror kishiga bu ne'matlar kamroq taqsim etilsa, unga nisbatan adolatsizlik bo'ladi sodir bo'ladi"¹.

Ma'lumki, Forobiy dunyoning, shu jumladan, insonning Xudo tamonidan yaratilganligini inkor qilmagan. Ammo inson hech narsaga qodir bo'lmagan, kuchsiz narsa emasdir, u tabiatdigi eng yuqori jonzotdir hamda aql – idroki tufayli dunyoni anglab oladi va o'ziga zarur narsalarni yaratadi, deydi u. Uningcha barcha kishilar bir – biri bilan tug'ulish jihatidan tengdir, ularning taqdiri ko'p jihatdan o'zlariga bog'liq. Biroq atrof – muhit, tarbiya va shaxsning axloqiy kamol topishiga bo'liq holda inson yoki yaxshi, yoki yomon yo'lga kirib ketishi mumkin. Bu ko'p jihatdan tarbiyachilarga va tarbiyaga ma'sul bo'lgan davlat boshqaruvchilariga bo'g'liq. Forobiy ma'rifatli podshoh va davlatda oqil qonun – qoidalarning mavjudligi bilan tabiatan bir xil yaratilgan kishilar har tomonlama kamol tapishi mumkinligiga ishongan.

Forobiy o'simliklar, hayvonot olami va kishilar dunyosi bir – biridan tubdan farq qilishini qayd etadi. U o'zining "Falsafaning asosiy g'oyalari to'g'risida" degan asarida insonning muhim fazilati – uning so'zlovchi mavjudot ekanligidir, deydi. Uning fikricha, barcha kishilar tana tuzulishi bo'yicha bir xildir, biroq ular xarakter nuqtai nazaridan muzdek suv qaynoq suvdan, oq ko'ylak qora ko'ylakdan farq qilganidek, bir – biridan farq qiladi, deydi. Forobiy Aristotelning inson ijtimoiy hayvon, degan fukriga qo'shiladi².

Zero, bugungi kunda adolatli va qat'iyatli, jonkuyar hokim-u amaldorlar, shu yurt kelajagi va xalq farovonligi uchun mas'uliyatli rahbar xodimlarga ega bo'lish davr talabidir. Prezidentimiz aytib o'tganidek, "Agar mendan bugungi hayotimizda aniq siyosatimizni o'tkazishda eng og'ir muammo nima, deb

¹ R.Z.Jumayev, C.Mamashoirov, A.Hukumov va b. "Shaxs va Jamiyat". Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 2005, 64- b

² E.Xoliqov, X.J.Xudoyqulov, M.Q.Isoqov "O'zbek g'ururi – uning odobi". Toshkent, "Fan" nashriyoti. 2008, 123- b

so'rashsa, avvalo shu siyosat uchun, kerak bo'lsa jonini fido qiladigan rahbarini, jonkuyar ijrochilarni topish, deb javob bergan bo'lar edim. Eng muhim vazifa – shunday odamlar safini kengaytirish, har qaysi sohada, boshqaruvda, tarmoqlarni idora etishda, tuman, qishloq va mahallalarni boshqarishda ana shunday fidoyi va jonkuyar odamlarni topib, joy-joyiga qo'yishdan iboratdir¹”.

Darhaqiqat, jamiyatni, davlatni boshqarish, xalqqa rahnamolik qilish – eng og'ir, o'ta murakkab va mas'uliyatli, ayni paytda sharaflı vazifadir. Jamiyat hayotida faol ishtirok etish siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda bevosita qatnashish, rahbarlik lavozimlarida ishlash jarayonida insonning nechog'lik ma'naviyatli-ma'rifatlıligi, imon-e'tiqodlıligi, so'z va ish birligi, halol-u poklıgi, xalqparvar va vatanparvarlıgi, ichki dunyosi orqali namoyon bo'ladi.

Forobiyning siyosiy – huquqiy qarashlarida faylasuf bilan hokim o'rtasida farq borlıgini ta'kidlaydi. Uning fikricha, faylasufning sifati uning xayrli ishlarni bajarishi va omma tomonidan qabul qilingan va ma'qul, deb topilgan faoliyati bilan o'lchanadiki, shuning uchun uni “fozil” deb atash mumkin bo'ladi. Hokimdan keyin keladigan faylasuf sifati uning olim va yo'l boshchılıgi bilan emas, balki ko'proq xayrli ishlarga amal qilishi bilan belgilanadi². Albatta, Forobiyning ushbu qarashlariga Aflotunning ta'siri sezilarlı bo'lib, Aflotunning “Siyosatchi” asaridagi boshqaruvchilar to'g'risidagi g'oyalari ko'zga tashlanadi. “Qonunlar” asarida ham Aflotun fozil faylasuf boshqarayotgan madaniy jamiyatdagi qonunlar mohiyati to'g'risida fikr yuritgan. Jumladan, hokim faylasuf ushbu qonunlarni joyiga qo'yib bajarishining sababi shundaki, uning faoliyati davomida ommani xayrli ishlarga boshlash ta'minlanadi. Aflotunning fikricha, faylasufning tashqi sha'nini himoya qiluvchi va ichki tanazzulining oldini oluvchi faqat uning axloqi va donoligidir. “Mening gumonim yo'qki, toki faylasuflar shaharlarga shox sifatida hukmronlik qilmas ekanlar yoki bugun biz shoh va hokim, deb atayotgan shaxslar amalda falsafani durustroq bilar ekanlar, shaharlar ham, inson zoti ham turli balo-qazolardan qutula olmaydi”. Ushbu fikrini Aflotun, hukumat “hakamlik” va

¹ Karimov I.A. “Ma'naviy yuksalish yo'lida”. Toshkent, O'zbekiston, 1995, 156-bet

² Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida.”Mutafakkir” xalqaro hayriya jamg'armasi. Toshkent “Yozuvchi”.2002 ,37-b.

qo'mondonlik" hunari bo'lib, o'ziga xos san'atdir deb, ta'kidlaydi. Uning fikricha, siyosatning maqsadi va mohiyati axloqdir.¹

Forobiy yuqoridagi fikrlarni qabul qiladi va o'z tafakkuri orqali siyosat va hukumat uyg'unligini topishga harakat qiladi, hamda hokimlar xususidagi fikrlarini ilgari suradi:

- Hokimga ega bo'lish uchun chin istak ekanligini, unga bo'ysunishi zarurligini tushuntiradi va bundan keladigan foydani ko'rsatadi.
- Davlatda hokimlar va bo'ysunuvchilar bo'lgan taqdirdagina u erda qonunlashtirish barkamol bo'lishi mumkin.
- Hokimlar asl olijanob oqsoqollar singari, ulug'vor yoshda va hayotiy tajribaga ega bo'lishi kerak.
- Agar hokimlar tarbiasiz bo'lsa, u holda ularning ishlari ham fuqarolarning ishlari ham inqirozga yuz tutadi.
- Hokimlarning nodonligi esa, xalq uchun katta zarardir.
- Hokimning tarbiyasi, boshqaruvchining ko'ngildagidek bo'lishi shahar (davlat) aholisi uchun juda muhim. Bu badanga ovqat, kemaga malloq (dengizchi) kerak bo'lgani kabi zaruriy narsadir.
- Sohibi qonunning maqsadi aynan hokimlarga qaratilgan bo'lishi belgilangan maqsad cho'zilib ketmasligi, uning qonuniy abadiy bo'lib qolmasligi zarur.
- Hokim qasaddan holi bo'lishi kerak.
- Mamlakat aholisining boshqaruv silsilasidagi qonunlarga rioya qilishlarini va bo'ysunishlarini ta'minlash uchun hokimiyat zarur bo'ladi.
- Mamlakat aholisi xushxulqqa ega bo'lmagan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj tuqiladi.
- Agar hukmdor, zarurat yuzasidan va shahar aholisi uchun emas, balki o'z odatiga ko'ra, hokimiyatga ega bo'lsa, bunday hokimiyat qoralanadi.

¹ Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida."Mutafakkir" xalqaro hayriya jamg'armasi. Toshkent "Yozuvchi".2002 ,52-bet

- Shaharni (davlatni) itoatda saqlash uchun boshqaruvchiga ehtiyoj bo'lishi ham mumkin. U shaharni itoat qildiradi, qonunlarni joriy qiladi va bu qonunlar qanchalik ilohiy, adolatli bo'lsa, shunchalar taqsiinga sazovor hisoblanadi.

- hokimiyat ixtiyoriy qabul qilinganda ko'proq ma'qul va qar tomonlama qulay hisoblanadi, chunki hokim o'z hukmini tavsiya qilish bilan ularga qisqa muddatda o'zlarini tuzatib olishlariga imkoniyat yaratib beradi. Agarda hokim shahar (davlat) o'z hokimiya-tini tavsiya qila olmasa, ishlar mushkullashadi, hokimning foyda keltirishiga imkoniyat bo'lmay qoladi. Xayrli ishlarni amalga oshirish cho'zilib ketadi.

- Yaxshi boshqaruv yaxshi qonunlarga bog'liq, yomon boshqaruv yomon qonunlarga, etuk boshqaruv etuk qonunlarga bog'liq.

- Hokim nimalarga e'tibor berishi kerak? Bu avvalo, moddiy huzur, so'ngra ruhiy keyin o'z navbati bilan ulardan tashqari bo'lgan barcha narsalar.

- Odamlar to'g'ri yo'ldan borishda va amalda qonunlarni hurmat qilish, hamda boshqalar uchun saqlab qolishni majbur qilishda sohibi qonunlarga, hokimlarga taqlid qiladilar.

- Ilohiy qonunni idrok etishga tayyorgarlik ko'rish va quyidagi ikki g'oyani amalga oshirish uchun hokimiyatga muhtojlik paydo bo'ladi. Bu g'oyalardan biri – sa'y harakati. Hunarlari va maqsadlari adolatli qonunlarga, hokimlarga qarashli bo'lgan yovuz niyatli odamlardan shaharni (davlatni) tozalashdir. Boshqa bir g'oya pand-nasihat yo'li bilan farovonlikka intilish va odamlarning ilohiy qonunni osonlikcha va quvonch bilan qabul qilishlarini ta'minlashdir.

Abu Nasr Forobiy g'oyalari faqat Sharqdagina emas, balki Yevropada ham ilg'or ijtimoiy-falsafiy fikrning keyingi taraqqiyotida muhim rol o'ynadi.

Abu Nasr Forobiy jamiyat rivojida yetuklikka tomon intilish, shuning uchun kurash olib borishi va nihoyat fozil shahar, fozil jamiyat darajasiga ko'tarilish haqida fikr yuritadi.

Abu Nasr Forobiy shunday yozadi: «Fozil jamiyat va fozil shahar shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunar bilan shug'ullanishi, chin ma'noda ozod bo'ladilar» deydi.

Abu Nasr Forobiy inson jamoasini katta-kichikligi nuqtai-nazaridan 3 ga bo'ladi.

Buyuk jamoa - bu barcha jamoalarning birlashuvi.

O'rta jamoa - bu ma'lum xalqning birlashuvi.

Kichik jamoa - bu ma'lum xalq yashayotgan xududning ma'lum qismini egallovchi shahar aholisi.

Abu Nasr Forobiy shahar jamoalarining bir-birlari bilan taqqoslab, ularni qator turlarga ajratadi. Avval u shaharni yetuk, fazilatli, mukammal shahar va yetuk bo'lmagan fazilatsiz, past shaharlarga ajratadi.

Abu Nasr Forobiy aqlli inson haqida gapirib shunday yozadi: «Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir muloxazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo'r iste'dodga ega, yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar. Yomon ishlarni o'ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo'lganlarni aqlli deb bo'lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi degan nomlar bilan atash lozim».

Abu Nasr Forobiy «Baxt saodatga erishuv yo'llari haqida risola» asarida o'zining orzu qilgan fozil jamiyatini yana ham yorqin tasvirlaydi. «Davlatning vazifasi insonning baxt-saodatiga olib borishdir, deb yozadi u, - bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritiladi». Abu Nasr Forobiy davlatni yetuk shaxs (monarxiya), yetuk xislatlarga ega bo'lgan bir necha shaxslar (aristokratiya) va saylangan shaxslar (demokratiya) yordamida boshqarish shakllarini qayd etadi.

Abu Nasr Forobiy jamiyat o'z rivojida yetuklikka tomon intilishi, shuning uchun olib borishi va nixoyat fozil jamiyat, fozil shahar darajasiga ko'tarilishi haqida fikr yuritadi.

U shunday yozadi: «Fozil jamiyat va fozil shahar «yoki mamlakat» shunday bo'ladiki, shu mamlakat aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunar bilan

shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi».

Abu Nasr Forobiy bunday fozil jamoani boshqaruvchi podshoh, rahbarlarga ham ma'lum talablar qo'yadi. U xalq haqida doimo g'amxo'rlik qilishi, boshqalar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ya olishi zarur. Bunday jamoani idora etuvchi yoki idora etuvchilar guruxi o'zlarida muhim 6 xislatni ifoda etishlari kerak, ya'ni adolatli, dono bo'lishi, qonunlarga rioya etish va qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko'ra bilishini, boshqalarga g'amxo'r bo'lishi kerak.

Abu Nasr Forobiyning fozil jamoa haqidagi ta'limoti, uning komil inson haqidagi fikrlari bilan uzviy bog'lanib ketadi. Fozil jamoada komil inson xislatlari vujudga keladi. Masalan, axloq odob, yetuk inson 12 fazilatga ega bo'lmog'i lozim. Bu fazilatlar insonlarning o'zaro munosabatlari mustaxkamlanib, yaxshilik tomon yo'nalishi fozil jamoa va komil inson haqidagi g'oyalari so'nggi olim va mutafakkirlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda Abu Nasr Forobiyning fozil jamiyati, komil insonni jamiyati baxt-saodat, o'zaro yordam, dono boshliq, tenglik haqidagi fikrlari o'z davri uchun hayoliydir.

Lekin insonni ma'naviy ozod etishga, uning imkoniyatlarini ochishga, gumanistik yo'nalishni asoslashga qaratilgan bu ta'limot ilg'or ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga buyuk hissa bo'lib qo'shildi. Umumbashariy intilishlarni ifodaladi.

Abu Nasr Forobiy dunyoqarashi xususidagi fikrlarga yakun yasab, shuni aytish lozimki, Abu Nasr Forobiy falsafasidagi g'oyalar va fanlarning tashviqoti jaholatga, idealizmga, hayotiy passivlikka qarshi qattiq zarba berdi. Hozirda O'rta Osiyo va Yevropa olimlari Abu Nasr Forobiy ijodiga hurmat bilan qaramoqda.

Forobiyning "Fozil odamlar shahri" kitobidan keltirilgan yuqoridagi dono fikrlar hozirgi mustaqillik sharoitida yashab faoliyat ko'rsatayotgan shahar, tuman, viloyat rahbarlariga, olimlariga, ziyolilariga, katta-yu-kichik barcha kishiga bevosita taalluqlidir. Forobiyning ilmiy-falsafiy ta'limoti insoniyatning mislsiz ma'naviy boyligi va madaniy-ma'naviy kamoloti yo'lidagi dasturi – amalidir.

2 – bob bo'yicha xulosa

Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy – siyosiy va axloqiy qarashlarining tahlili shundan dalolat beradiki, u axloq va siyosat muammolarini talqin qilishda ilg'or pozitsiyada turgan. Olim inson va uning fazilatlarini, fikr – o'ylari, orzu – istaklari haqida keng va teran fikr yuritib, o'sib kelayotgan avlodning ta'lim – tarbiyasida qayg'uradi.

Forobiy ijtimoiy masalalarni umuminsoniy va insonparvarlik nuqtai nazardan hal qilishga intilgan. Ayniqsa, ijtimoiy – utopik qarashlari, mukammal jamoa, fozil davlat to'g'risidagi g'oyalari o'sha davr uchun nihoyatda ijobiy rol o'ynaydi. Zero bunday g'oyalar o'rta asr istibdodiga, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi qaratilgan edi.

Mutafakkirning e'tiborga molik fikrlardan yana biri uning hamma toifadagi kishilarni teng huquqli deb hisoblashidir. U o'z asarlarida bir kishini ikkinchisidan yuqori qo'ymaydi, ularni kamsitmagan. U adolat hukm surgan jamiyatda hamma bir xil mavqeda bo'ladi, degan aqidani ilgari surgan.

Forobiyning umuminsoniy g'oyalari nafaqat o'z davrida, balki keying davrlarda yashagan olimlar dunyoqarashining shakllanishiga ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. XI – XX asrlar davomida uning risolalari necha bor qayta ko'chirildi, toshbosmalarda bosildi, olimlar tamonidan o'rganilib, risolalariga sharhlar yozildi.

III BOB. ABU NASR FOROBIY ILMIY MEROSINI AKADEMIK LITSEY VA KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH

1. Abu Nasr Forobiy merosini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish

Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida insoniyat jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishining muayyan tabiiy — davlatga bo'lgan ehtiyojlarning paydo bo'lishini, unda adolat va axloqning shakllanishi qonuniyatlarini nazariy jihatdan tasnifini yaratganligi bilan mashhurdir. Shu tariqa olim davlat shakllari va unda boshqaruvning muntazam, izchil siyosiy tizimini yaratishga erishadi, Masalan, fozillar shahrining (davlat nazarda tutilgan) tarkib topishi va unda qanday axloqiy sifatdagi shaxsning rahbar bo'lishi tasniflari bugungi demokratik jamiyat qurishning bevosita nazariy talablari bilan uyg'un keladi, Bu borada A.N.Forobiy — "Ularning o'zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutloq bo'lmaydi. Ular odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan eng olijanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi do'shmandan muhofaza qiladilar" deb davlat boshqaruvida demokratik tamoyillarni ta'minlash bilan borliq axloqiy qadriyatlarni tizimlashtiradi. E'tiborli jihati shundaki, Forobiy qarashlaridagi "hokimi mutloq bo'lmasligi", "saylovchilar irodasi", "ozodlik" kabi fikrlari nafaqat shu davrda, balki, bugunda ham insoniyat madaniyatining — demokratiyaning bosh g'oyasi bo'lib xizmat qiladi.

Ayni paytda, Forobiy fozil shaharlarning (davlatning) ziddi bo'lgan shaharlarning ijtimoiy mohiyatini ochib beradiki, — bu totalitar davlat tizimiga xos keladi. Masalan, razolat va badbaxtlik shahri, obro'parastlar shahri, amalparastlar, hakimiyatparastlar shahri va x.k. turlarini ko'rsatadi. Bunday shaharlar adolatli jamiyat qurish to'g'risidagi ta'limotlarga zid ekanligi ko'rsatiladi.


Inson tug'ilishidan boshlaboq oldingi avlodlar qo'li bilan yaratilgan predmetlar olamiga tushadi va ulardan ma'lum maqsadda foydalanshni o'rganib borish (protses) jarayonidagina odam bo'lib kamol topadi. Shu bilan birga predmetlarni anglash, ular haqida bilishga ega bo'lish, tashqi olamga munosabati insonlarning o'zaro aloqasi, til muomala vositasi orqali yuzaga keladi. Inson tashqi olamga, predmetlarga tushungan, bilgan holda munosabatda bo'lishidir. Ijtimoiy-taraqqiy predmet faoliyati va inson pluttsi orqali ifodalanuvchi tushuncha bo'lmasa, bilim bo'lmasa-ong ham bo'lmaydi. Ong ijtimoiy faoliyat orqali orttirilgan bilim-tajribalar asosida muayyan mazmunga ega bo'ladi. Bilimlar tilda saqlanadigan ma'nolar va mazmun inson his-tuyg'ularini, irodasini, diqqatini va boshqa psixik harakatlarini yo'llab va tafovutlashtirib bir butan ongga birlashtiridi. Tarix tuplagan bilimlar, siyosiy va huquqiy goyalar, san'at erishgan yutuklar, axlok, din va ijtimoiy psixologiya umuman jamiyat ongidan iboratdir. Demak, ong shakllanishidan borlikdan predmet-xodisalar muxim rol o'ynaydi. Chunonchi, qadimgi odamlar daraxtlar mevani uzib olish uchun tayoqlardan foydalanganlar. Bu odam ongining dastlabki ko'rinishidir. Tabiiyki, bu extiyojdan kelib chikadi. Aslida, borlikdagi mohiyat uchlikda namoyon buladi-shaxs (odam), predmet, harakat. Faylasuf tasavvuri bilan keltiradigan bo'lsak-sub'ekt, predmet, predikat ong va jamiyat ongi ham ana usha uchlik asosida yuzaga keladi. Jamiyat ongi borlikdagi predmet-xodisalarni o'rganish bilan, tabiatni o'ziga bo'ysundirish bilan yuklanib boradi. Jamiyat hayotining ikki tomoni mavjud bo'lib-ya'ni moddiy va ma'naviy tomonlar o'ziga bir-biri bilan muayyan aloka va o'zaro ta'sirda bo'ladi. Jamiyatning moddiy hayoti, moddiy ne'matlarni iste'mol qilish va shu iste'mol qilish jarayonida kirishlarda o'zaro munosabatlari ijtimoiy borlikni ifoda etadi. Jamiyatning ma'naviy hayoti-ya'ni qarashlar, tasavvurlar, g'oyalar, siyosiy, huquqiy, axloqiy, falsafiy, din-e'tikod, an'ana va rasm-rusumlar-ijtimoiy ong tasavvurida o'z ifodasini topadi. Ya'ni-ijtimoiy ong deganda jamiyatning ma'naviy hayotini tushunamiz. Yakka shaxs, inson vujudi-rux va jismdan tashkil topgan kabi, butun bir jamiyatning mavjudligi-moddiy va ma'naviy tomonidadir. Jism tufayli rux yoki rux tufayli jism ozor topishi mukarrarligi hammamizga ma'lumdir.

Zero, insonning mavjudligi, borligi-ana o'sha ikkisi tufaylidir. Binobarin, jamiyatning ham mavjudligi, taraqqiyoti ham ikki tomonidan moddiy va ma'naviy hayotining qay darajada yuksalishidadir. Bundan ming yil burun o'zining ajoyib asarini bizga me'ros qilib qoldirib ketgan buyuk ajdodimiz faylasuf Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida ideal jamiyat haqida fikr yuritib, moddiy va ma'naviy hayotining chambarchas rivojlanishida, ham moddiy, ham ma'naviy hayotning birgalikda rivojlanishida ko'radi. Bu xuddi-odam aqliy va jismoniy faoliyatini muayyan me'yorda olib borsagina mukammal baxtga erishgani kabidir. Forobiy jamiyatda insonlar doim o'z baxti-saodatini, o'z urnini topsagina baxtga erishadi, buning uchun avvalo xar bir inson o'zi sevgan kasbni tanlashi va o'z ustida doim izlanishi va bu o'z navbatida moddiy faravonlikning yuksalishiga olib keladi, deb ta'kidlaydi Abu Nasr Forobiy¹. Demak, insonning sevgan kasbiga ega bulishi uning ma'naviy tomoni bo'lsa, ana usha ma'naviyat asosida moddiy faravonlikka erishishi mumkin. Buni butun bir jamiyat miqyosida oladigan bulsak, ya'ni jamiyatda yashovchi xar bir odam muayyan kasb-korga ega bo'lsa, qolaversa, kishilarda o'zaro hamjixatlik munosabatlari barqaror bo'lsa, shu jamiyatda ham ma'naviy, ham moddiy jixatdan yuksalish o'sish bo'ladi.

Abu Nasr Forobiy ijodini o'rganish umumta'lim maktablari hamda akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida o'qitiladi. Asosan, O'zbekiston tarixi va Ma'naviyat asoslari fanlarida ajdodimiz merosi chuqur o'rganiladi. Ushbu boy ilmiy merosni o'rganishda quyidagi interfaol metodlarni taklif qilamiz:

¹ Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri". Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993, 40 – 41 – betlar

Ta'lim mazmunining interfaol metodlar bilan aloqasi



1. MA'RUZA.

Ma'ruzali dars o'tishda o'qituvchi ko'p narsaga e'tibor berishi lozim. Hozirgi davrda texnik vositalari rivojlanganligini, kompyuterlar ishlab turishini hisobga olgan holda, dars boshlashdan bir-ikki kun oldin ma'ruza matnini tinglovchilarga tarqatib, dars o'tish kunida tinglovchilar qisman tanishib chiqqan mavzu bayon etiladi. Bu usul o'quvchilarga ma'ruzani tinglab o'tirishga, qo'lidagi ma'ruza matni bilan ishlashga undaydi

Ma'ruza o'tishning ikkinchi usuli o'qituvchi o'z mavzusi bo'yicha ma'ruzani bayon etadi va ayrim joylarini bir-necha marotaba takrorlaydi. Tinglovchilar ma'ruzachining bayonini ko'zatib turib kerakli ma'lumotlarni yozib oladi (ma'ruzachi bir-necha takrorlagan satrlarni, so'zlarni yozib olish kerakligini ma'ruza boshlanishidan oldin tinglovchilarga aytib o'tish lozim).

Har bir usulda ma'ruza o'tuvchi darsni 5-10 daqiqa oldin tugatib savol-javobga, ma'ruza muhokamasiga vaqt qoldiradi.

2. FILM.

O'qituvchi o'z darsini boshlashdan oldin ko'rgazmali qurollar tayyorlaydi. Bular film, pano, slayd, tablitsa, rasmlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Film o'tilgan yoki o'tiladigan mavzuga taalluqli bo'lishi lozim. Masalan, ajdodlar merosini o'rganishda Abu Nasr Forobiy ijodini o'rganishga oid "Buyuk ajdodlar faoliyati" filmini namoyish qilish tavsiya qilinadi.

3. MUNOZARA.

O'qituvchilar va talabalar orasida umumiy munozara o'tkazish vaqtida ochiq va teng fikrlar almashtirilishiga erishish uchun bir nechta oddiy qoidalar bor. Ushbu qoidalar buyruq maqsadida emas, balki sizlarga aloqa qilish usullarni o'rgatish va ilmiy tekshirish uchun yordam beradi. Munozara qatnashchilarning faollik darajasiga va ularning izohlarga ijodiy baho berish sifatiga ko'ra munozaraning yaxshi o'tishini bilib olishi kifoyatdir. Demak, zavq olishingiz mumkin.

Ba'zi vaqtda munozara uchun «bassis qoidalari»ning to'zishi foydadan holi emas. quyidagi mumkin bo'lgan qoidalarga bir necha misollar:

- har bittasi boshqalarni diqqat bilan tinglashi kerak (fikrlari mos kelmagan takdirada ham);
- gapirayotganning gapini bo'lmaslik;
- bir vaqtda bir kishidan ortiq gapirmaslik;
- bironta ham fikr masqara bo'lmasligi;
- agar ustoz kimdandir norozi bo'lsa, noroziligini o'z fikri bilan bildirib, lekin uni tahlikaga solmaslik;
- boshqalar sizni qanday tushunishlarini umid qilsangiz, siz ham ularni shunchalik tushinishga harakat qiling.

Munozara uchun aniq bir mavzu tanlanadi.

4. KICHIK GURUHLARDA ISHLASH.

Kichik guruhlarda ishlash uchun guruhning hajmiga qarab (24-30 talaba, tinglovchi) 4-7 odamdan bir guruhga ajratiladi. har bir guruh berilgan vazifani bajaradi va guruh Rahbari hulosa qilib beradi. Bu usul hamma tinglovchilarni foalligini oshiradi, qiziqdiradi.

5. ANIQ BIR VAZIYATNI MUHOKAMA QILISH.

Eng avvalo mavzu tanlanadi. Masalan, «Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosi». Guruh bir-necha guruhlarga bo'linadi. har bir guruh shu mavzuga o'zining aniq munosabatini bildiradi. Mavzu misollar tariqasida, ko'rilgan teatr sahnasi, yo'ldagi bo'lgan to'qnashuv, ishxonadagi kelishlovchiliklarini hal qilish va boshqa vaziyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

6. O'YIN DARS.

O'yin darsini boshlashdan bir necha kun oldin Rahbar o'tiladigan vaziyatni bo'yicha rolni qatnashuvchilarga ajratadi va dars boshlangan kungacha o'zi tanglagan roli bo'yicha shaxslarning tavsifnomasi bilan tanishishni, uning holatiga kirishga harakat qilishni topshiradi. Tinglovchilar o'z ixtiyori, xohishi bilan rol tanlashlari lozim. Chunki ayrim salbiy rolni o'ynashida «Men shunday insonmanmi?», «Menga nega bunday rol berasiz?» degan noroziliklar bo'lmasligi lozim. Rolga hozirlik ko'rganlar, o'z aktyorlik maxoratlarini ko'rsatib, vaqtincha

o'ynayotgan insonning qiyofasiga kirishga, u shaxsday bo'lishga harakat qilsa, ko'zatuvchilarda kuchli ta'surot qoladi.

7. AMALIYOT.

Amaliyot mashg'ulotini bir necha xilga bo'lish mumkin. O'qituvchilar uchun dars o'tish amaliyoti o'tkaziladi. Unda aniq bir mavzu bo'yicha rejasi asosida dars o'tiladi. Ko'zatuvchi dars o'tish metodini, amaliyot o'qituvchining tinglovchilar bilan bog'lanishini, nutqini, sinfda o'zini tutishni nazorat qiladi. Dars tugashidan 5 daqiqa oldin Rahbar tinglovchilar bilan o'tilgan dars metodini muhokama qilib yakun yasaydi.

8.YOZMA BAHSLAR.

O'quvchilarga sinfdoshlari, kursdoshlari bilan birgalikda shu onda jamoatchilik fikrini to'liqlantirayotgan mavzularda dialoglar rejalashtirish imkonini berish kerak. Yozma bahslar metodikasi yozma shakldagi bunday dialoglarni sinfdagi barcha o'quvchilar ishtirokida o'tkazish imkonini beradi.

9. SHPARGALKALI NAZORAT ISHI.

O'quvchilarning axborotni mustaqil izlash va uning asosida referatlar yozishiga jalb qilinishlari extiyoji sezilmoqda. Yozma ishlarni berishning an'anaviy usullaridan so'ng ko'pgina muommolar, masalan, o'rtoqlaridan ko'chirib olish, darslikdan butun abzatslarni ko'chirish, nihoyat hamma erdagi o'quvchilar keng tarqalgan fikr, eng yaxshi ish, eng o'zun yozilgan ishdur kabilar paydo bo'ladi. Ko'pgina o'qituvchilar ishlarning yomon shaklidan, shuningdek, yozma ishlarni tekshirish ko'p vaqtni olishidan shikoyat qiladilar.

10. INTERAKTIV METODLAR MAQSADI:

Tinglovchi individual va kollektiv holda quyidagilarni amalga oshira olishi lozim:

- Ma'lumotni qabul qilish va baholash;
- Ma'lumotni muhokama qilishda ishtirok etishi;
- Muammoni hal etishda ishtirok etish va qaror qabul qilish;
- O'z fikr, g'oyalarini o'z guruhiga etkazib bera olish.

Interaktiv metodlarni namoyish qilish bo'yicha tavsiyalar:

1. Tayyorlov ishi
2. Mutaxassislarni jalb etish
3. Rollarni taqsimlash
4. Mashg'ulot ishtirokchilarini tayyorlash
5. Xona, joyni tayyorlash, hozirlash
6. Mashg'ulotni o'tkazish
7. Mashg'ulot shtkazish bo'yicha xulosalar qilish

11.DEBAT- bu interaktiv metodlardan biri bo'lib, fikrlar, dalillarning to'qnashuvidir.

Debatlarning xususiyatlari:

- Adolatlilik (debat ishtirokchilarini pozitsiyasini mustahkamlovchi dalillarni izlashda adolatli bo'lish lozim.)
- hurmat. Dalillar faqat g'oyalarga tegishli bo'lib debat ishtirokchisining shaxsiyatiga tegmasligi lozim.
- Debatlashib o'rganamiz.
- Qarama – qarshi fikr mulohazalarni himoyalash odamni ikki yuzlamachi qilmaydi, shunaqa ham mavjud. “Agar haqligini bilsang nima qilasan tortishib”.
- Yaxshi dalil. Fikr mulohazalarni tan olish;
- Raqib ishtirokchining barcha dalil, fikr, g'oyalarini oxirigacha tinglab so'ng fikr bildirish odatini rivojlantiradi.

Debatning elementlari:

Mavzu

- Tasdiqlovchi taraf
- Inkor etuvchi taraf
- Dalillar
- Dalil va asos
- Isbot
- Sudyalar qarori

Dalillarni tuzish sxemasi :

Argument ----- Isbot ----- Muxofaza

Dalil ----- Mulohaza ----- Xulosa

12. O'YIN DARSLARINI QO'LLASH.

Nima sababdan o'yin darslaridan foydalanamiz?

- Diagnostika uchun
- o'zlashtirilgan bilimni namoyish etish
- xatolarni namoyon bo'lishi
- maxsus bilimlarni singdirish
- kompleks bilimlarni singdirish
- kuzatuv va sharhlashni o'rgatish
- ta'lim samaradorligini baholash

O'yin darslarga tayyorgarlik:

- kutilayotgan natijalarni aniqlash
- stsensariy ishlab chiqish
- o'yin darsini planlashtirish
- studentlarga tarqatma materiallarni hozirlash
- auditoriya moslama va boshqa resurslarni hozirlash

Mashg'ulotni tahliliy plani:

- mashg'ulot mavzusini tanlash
- kutilayotgan natijalarni aniqlash
- terminlar haqida kelishib olish
- o'yin planini tasvirlash
- o'yin darslarini qoidalari haqida tanishtirish
- namoyish etish qoidalari
- rollarni taqsimlash
- o'yin darslariga tayyorgarlik
- rollarni ijro etish
- o'qituvchining sharhi
- o'zga darslar bilan aloqa o'rnatish

- O'qituvchi o'yin darsini o'tkazishda nimalarga intiladi:
- Xato kamchilik, noaniqliklarni namoyishda aniqlash va ularni to'qirlash
- O'z shaxsiy obraz orqali xulq atvor modelini namoyish etish
- Talaba xulq atvorida obrazni shakllantirishga ko'maklashish
- Talabaning o'qituvchi sharhlariga bo'lgan munosabati:
- Xatoni tan olish, yoki aksi tan olmaslik
- O'z o'zini oqlash “men to'g'ri qildim, men umuman boshqa narsani nazarda tutdim”
- Tushunishni “men xato qilganimni tushundim”
- Xatoni to'qirlashga bo'lgan intilish “endi men bunday xato tuzatib boshqacha yo'l tutaman”.

FIKRLAR HUJUMI. Bevosita jamoa bo'lib «Fikrlar xujumi» («Mozgovaya ataka») olib borish. Bu metoddan maqsad mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inertsiasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni echish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni engishdir. Bu metod A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan. Bu metodning asosiy tamoyili va qoidasi baxs ishtirokchilari ishlab chiqqan g'oyalar tanqidini mutlaq taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoibani rag'batlantirishdir. Bu metoddan foydalanishning muvaffaqiyati ko'p jixatdan o'qituvchi - mashg'ulot Rahbariga bog'lik. «Fikrlar hujumi» ishtirokchilari miqdori 15 kishidan oshmasligi kerak. Mashg'ulotning davomiyligi bir soatgacha.

YALPI «FIKRLAR HUJUMI». Bu metod J. Donald Filils tomonidan ishlab chiqilgan. U katta guruhlarda (20 dan 20 tagacha bo'lgan) yangi g'oyalar ishlab chiqish samaradorligini sezilarli darajada oshirishni taminlaydi. Barcha ishtirokchilar kichik-kichik 5-6 kishidan iborat guruhlariga bo'linadi va har bir kichik guruh hal kilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo'yicha 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda o'zaro «Fikrlar hujumi» o'tkazadi. Shundan so'ng har bir kichik guruh vakili o'z guruhlarida ishlab chiqilgan g'oya haqida axborot

beradilar va o'qituvchi Rahbarligida jamoa bo'lib unga baho beradilar va ulardan eng yaxshilari, betakrorlari tanlab olinadi.

«Fikrlarning shiddatli hujumi» - destruktiv berilgan baxo bilan dialog. Bu metod E.A. Aleksandrov tomonidan taklif qilingan. G.Ya. Bush tomonidan o'zgartirilib yo'lga qo'yilgan Dialogning mohiyati shundaki, kollektiv bo'lib g'oyalar yshlab chiqishda ishtirokchilarning ijodiy imkoniyatlari faollashtiriladi va unga zid g'oyalar qo'yiladi.

Mashg'ulot bosqichma-bosqich quyidagi tarzda o'tkaziladi:

1-bosqich. Miqdor va psixologik mulokoti jixatidan maqbul kichik guruhlarini shakllantirish;

2-bosqich. Vazifa, muammodan kelib chiqadigan maqsadlarni ifodalash;

3-bosqich. To'g'ridan-to'g'ri «Fikrlar xujumi» qoidasiga asosan har bir guruhda g'oyalar ishlab chiqish;

4-bosqich. g'oyalarni tartibga solish va tasniflash;

5-bosqich. g'oyalarni destruktivlash, ya'ni amalga oshishi imkoniyatiga karab baholash;

6-bosqich. Avvalgi bosqichlarda biddirilgan tanqidiy mulohazalarga baho berish.

Akademik litsey va kasb-xunar kollejlarida ko'pincha boshqarma vakillari, rahbar xodimlar, metodistlar, o'qituvchilar o'qituvchilarning darslariga kirish, darsni tahlil qilishda nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida ko'pincha bosh qotirishadi. Shu sababdan biz bu to'plamga shu masala yuzasidan ba'zi bir tavsiyalarini kiritdik. Aslida. o'qituvchining darsiga kirish va uni tahlil qilish, birinchi navbatda, darsga kirayotgan shaxsning ko'ygan maqsadiga bog'lik. Masalan: «Men yangi mavzuni bayon qilishdagi tajribangizni (yoki baholashingizni, mavzuni mustahkamlashingizni, to'liq dars jarayonini tashkil etishingizni, o'quvchi-talabalar bilam muloqotingizni va b., o'rganmoqchi (ko'zatmoqchi, ommalashtirmoqchi) edim». Shunga qarab, dars tahlili o'tkaziladi. quyida berilgan tavsiyalar ko'p yillik tajribalar va ko'zatishlar natijasida hamda xozirgi kun talabi asosida tuzilgan.

“TARMOQLAR” – KLASSTER USULI. Bu texnologiya uslub jixatdan aqliy xujum tenologiyasiga yaqin bo’lib, asosan o’quvchilarning o’tilayotgan mavzu bo’yicha mavjud bilim va ko’nikmalarini tekshirishda ishlatiladi. U faqat g’oyalar orasidagi bog’lanishlarni fikrlashni ta’minlash imkoniyatini beradigan tuzilmani aniqlab olishni talab qiladi. Bu usul o’quvchini mavzu yuzasidan mavjud bilimlarini tizimlashtirish va uni tasavvur qilishga yordam beradigan strategiya hisoblanadi. Bu texnologiyadan yakka holda yoki jamoada ham foydalanish mumkin.

Jamoada klaster usulidan foydalanish. O’quvchi tomonidan doska markaziga mavzuning asosiy termini yoziladi. Masalan: Zardushtiylik. O’quvchilardan mana shu termin bilan bog’liq bo’lgan fikrlarini aytishlarini so’raladi hamda doskaga o’quvchilar fikrlari taxlilsiz yozilib strelka yordamida asosiy termin bilan bog’lanadi. Fikrlarga texnologiya so’ngida o’qituvchi tomonidan xulosa yasaladi. Usulning o’ziga xosligi shundaki, bunda o’quvchilar boshqa tengdoshlari fikrlari bilan ham tanisha oladilar.

«TUSHUNCHALAR TAHLILI» TEXNOLOGIYASI. Uslubning mohiyati. Ushbu uslub o’tilgan (chorak, semestr yoki yilida tugagan) o’quv predmeti yoki bo’lim barcha mavzularini talaba (yoki o’quvchi)lar tomonidan yodga olish, biron - bir mavzu bo’yicha o’qituvchi», tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o’z izoxlarini berish, shu orqali o’z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o’qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha talaba (yoki o’quvchi)larni baholay olishgayo’naltirilgan.

Uslubning maqsadi. Talaba (yoki o’quvchi)larni mashg’ulotda o’tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo’yicha tayanch tushunchalarni o’zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o’z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o’zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan karash, shuningdek o’z bilimlarini bir tizimga keltira olishga o’rgatish.

Uslubning qo’llanishi: o’quv mashg’ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki o’quv predmetining biron bir bo’limi

tugallanganda) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin talaba (yoki o'quvchi)larning-bilimlarini tekshirib olish uchun mo'ljallangan. Ushbu uslubni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida yakka, kichik guruh hamda jamoya shaklida tashkil etish mumkin. Ushbu uslubdan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo'ladi.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: tarkatma materiallar, tayanch tushunchalar ro'yxati, qalam (yoki ruchka), slayd.

Izoh: reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda o'qituvchining ko'rgan maqsadi (tekshirshi, mustahkamlash, baholash)ga mos tayyorlan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o'tkazish mo'ljallangai bo' guruh o'quvchilari soniga, agar kichik guruhlarda o'tkazish belgtangan bo'lsa, holda guruhlar soniga qarab tarqatma materiallar tayyorlanadi).

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- talaba (yoki o'quvchi)larni guruhlarga (sharoitga karab) ajratadi;
- talaba (yoki o'quvchi)lar mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talab qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi.
- talaba (yoki o'quvchi)lar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;
- talaba (yoki o'quvchi)lar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o'zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo'lsalar shunday) Izoh yozadilar (yakka tartibda);
- o'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to'g'ri izoxni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning Izohi berilgan slayd orqali (imkoni bo'lsa) tanishtiriladi;
- har bir talaba (yoki o'quvchi) to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarni aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo'ladilar, o'z-

o'zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

Izoh: «Tushunchalar tahlili» uslubini «Chaynvord», «O'zluksiz zanjir», «Klaster», «Blits-zanjir» shaklida ham tashkil etish mumkin.

«Tushunchalar tahlili» uslubidan bir darsning o'zida dars boshlanishida o'tgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash yoki yangi mavzu bo'yicha talaba (yoki o'quvchi)larning dastlabki bilimlari, qanday tushunchalarni egalaganliklari va shu darsning oxirida bugungi mavzudan nimalarni bilib olganliklarini aniqlash uchun ham foydalanish mumkin.

quyidagi mashg'ulotda foydalaniladigan tarqatma materialni misol tariqasida keltiramiz (ilova).

«3 X 4» TEXNOLOGIYASI. Texnologiyannng harakteristikyasi. Ushbu mashg'ulot talaba (yoki o'quvchi)larni aniq bir muammoni (yoki biror mavzuni) yakka holda (yoki kichik jamoa bo'lib) fikrlab hal etish, echimini topish, ko'p fikrlardan keragini tanlash, tanlab olingan fikrlarni umumlashtirish va ular asosida ko'yilgan muammo (yoki mavzu) yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilishga, shuningdek o'z fikrlarini ma'qullay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya talaba (yoki o'quvchi)lar bilan avval yakka holda, so'ngra ularni kichik guruhlariga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi.

Texnologiyaning maqsadi: talaba (yoki o'quvchi)larni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga; jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga; fikrlarni jamlab, ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga; jamoaga o'z fikrini o'tkazishga, uni ma'qullashga; ko'yilgan muammoni echishda va mavzuga umumiy tushuncha berishda o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanishi: seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka tartibda (yoki kichik guruhlariga ajratilgan holda) o'tkazish hamda guruh a'zolarini bir necha marotaba joylarini o'zgartirib berilgan vazifalarni bajarishga mo'ljallangan

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatdagi qog'oz varoqlari (guruh soniga qarab), flomaster (yoki rangli qalam).

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

— o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi)larning umumiy soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlar ajratadi (kichik guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo'lgani maqsadga muvofiq);

— o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi)larga mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga qog'ozning yuqori qismida yozuvi bo'lgan varoqlarni tarqatadi;

— o'qituvchi kichik guruh a'zolarini tarqatma materialda yozilgan asosiy fikrni faqat uchta fikr, ya'ni uchta so'z, yoki so'zlar birikmasi, yoki uchta gap bilan davom ettirishlari mumkinligini uqtiradi va buni amalga oshirish uchun aniq vaqt belgilaydi;

— guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan fikrni yozib davom ettiradilar;

— vazifa bajarilgach, guruh a'zolari o'rinlaridan turib soat mili yo'nalishi bo'yicha joylarini o'zgartiradilar, ya'ni 1-guruh 2-guruhning 2 -guruh 3-guruhning, 3-guruh esa 4 - guruhning (boshqa kichik guruhlar bo'lsa, shu tariqa) o'rniga o'tadilar;

— yangi joyga kelgan guruh a'zolari shu erda koldirilgan tarkatma materialdagi fikrlar bilan tanishib, unga yana yangi uchtadan o'z fikrlarini yozib qo'yadilar;

— guruh a'zolari yana yuqoridagi kabi joylarini o'zgartiradilar, shu tariqa kichik guruhlar o'z joylariga qaytib kelgunlariga qadar joylarini almashtirib, tarqatma materiallarga o'z fikrlarini ko'shib boradilar;

— o'z joylariga qaytib kelgan kichik guruhlar tarkatma materialda to'plangan barcha fikrlarni diqqat bilan o'qib, ularni umumlashtirgan holda bitta yaxlit ta'rif yoki qoida holatiga keltiradilar;

— har bir kichik guruh o'zlarining mualliflik ta'riflari yoki qoidalarini guruh a'zolaridan biri taqdimot qiladi;

— o'qituvchi kichik guruhlar tomonidan berilgan ta'riflar yoki qoidalarga Izoh berib, ularni baholaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

Izoh: Guruhlar taqdimotidan so'ng ular bergan ta'rif yoki qoidalar asosida kichik guruhlarining har bir a'zosi yakka tartibda o'zining mualliflik ta'rif va qoidasini keltirib chiqarib taqdimot qilishi ham mumkin.

Kichik guruhlar soni 4 ta bo'lgani maqsadga muvofik. Bunday holda kichik guruhlar o'z joylarini faqat 3 marta almashtiradilar va bu bilan o'quv jarayonini zerikarli o'tishining oldi olinadi. Agar kichik guruhlar soni 4 tadan ko'p bo'lsa, u holda ularni ikki potokka bulib, kichik guruh a'zolarining almashinuvini har bir potok o'rtasida alohida, taqdimotni esa birgalikda o'tkazish mumkin

Agar auditoriya (yoki sinf) kichik guruhlarining joylarini almashtirishga moslanmagan (yoki almashtirishga noqulayliklar) bo'lsa, u holda talaba (yoki o'quvchi)larni joylarini almashtirish o'rniga guruhlariga tarkatilgan materiallarni almashtirish orqali, ular dastlabki olingan guruhlariga qaytib kelunga kadar almashtirilib, talaba (yoki o'quvchi) fikrlari to'planadi, ulardan umumiy ta'rif (yoki qoida) keltirib chiqariladi va taqdimot qilish ham mumkin.

Mavzu	Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi ma’naviy – axloqiy qarashlar
--------------	--

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli¹

<i>Talabalar soni: 50-70 gacha</i>	<i>Vaqti: 80 daqiqa</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Informasion baxs-munazarali dars
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1.Abu Nasr Forobiy va uning ilmiy merosi. 2. Abu Nasr Forobiyning ma'naviy merosi va uning bugungi kundagi ahamiyati.
<i>Pedagogik vazifa:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i>
1. Abu Nasr Forobiy va uning ilmiy merosi ochib beriladi.	<i>Talabalar Abu Nasr Forobiy va uning ilmiy merosi bilan tanishadilar.</i>
2. Abu Nasr Forobiyning ma'naviy merosi va uning bugungi kundagi ahamiyati yoritiladi	Talabalarga Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi ma’naviy – axloqiy qarashlari va uning bugungi kundagi ahamiyati yoritiladi.
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Ma'ruza, “Nimada?” texnologiyasi, BLUM taksofoniyasi, “FSMU” uslubi, Insert
<i>O'qitish vositalari</i>	Komp'yuter texnologiyasi (“Ma'naviyatning rivojlanish tarixi”fanidan elektron o’quv uslubiy majmua) Slaydlar

¹ M.Lasasov, G.Masharipova,X.Jumaniyozov, E.Tilayev, G.Lafasova “Milliy mafkura fanini o’qitish metodimasi” Nizomiy nomidagi TDPU, 2012, 75 – bet

<i>O'qitish shakli</i>	Jamoa bo'lib ishlash
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Kuzatish, og'zaki nazorat, savol-javobli so'rov, o'quv topshiriq.

1.2. “Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi ma’naviy – axloqiy qarashlar” mavzusidagi ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
<i>1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)</i>	1.1. O'quv kursi nomini aytadi. Ekranga yangi mavzuning rejasi yoziladi. (1-ilova). 1.2. Kursning kirish qismi tushuntirib beriladi. Abu Nasr Forobiy hayoti yoritiladi. 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi.	Tinglaydilar, yozadilar. Tinglaydilar Tinglaydilar
<i>2-bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqa)</i>	2.1. Rower Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi 2.2. Abu Nasr Forobiy ma'naviy merosiga oid ma'lumotlarni beradi. (2-ilova). 2.3. Forobiyning fozil inson kontseptsiyasiga oid ma'lumotlarni beradi; (3-ilova). 2.4. Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asariga oid ma'lumotlarni beradi; (4-ilova). 2.5. “Klaster” metodi asosida o'quv materialini mustahkamlaniladi. (5-ilova).	Yozadilar. Yozadilar. Tinglaydilar, Savollarga javob beradilar. Tahlil qiladilar.
3.	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan	Savollar

Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2. Talabalar bilimlarini mustahkamlash uchun savollarni beradi. Blum taksofoniya metodidan foydalaniladi (6-ilova). FSMU (7-ilova), Insert (8-ilova) dan foydalanib, mavzu mustahkamlanadi.	beradilar. Vazifani yozib oladilar.
------------------------------------	--	--

1-ilova

Mavzu: “Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi ma’naviy – axloqiy qarashlar”

Reja:

- 1. Abu Nasr Forobiy va uning ilmiy merosi.**
- 2. Abu Nasr Forobiyning ma’naviy merosi va uning bugungi kundagi ahamiyati.**

O’quv mashg’ulotining maxsadi: : Abu Nasr Forobiy va uning ilmiy merosini o’rganish, Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi ma’naviy – axloqiy qarashlari va uning bugungi kundagi ahamiyatini yoritishdan iborat.

O’quv faoliyatining natijasi: Talabalar Abu Nasr Forobiy va uning ilmiy merosi bilan tanishadilar. Talabalarga Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi ma’naviy – axloqiy qarashlari va uning bugungi kundagi ahamiyati yoritiladi¹.

¹ M.Lasasov, G.Masharipova, X.Jumaniyozov, E.Tilayev, G.Lafasova “Milliy mafkura fanini o’qitish metodimasi” Nizomiy nomidagi TDPU, 2012, 75 – bet

Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Guruh lar	Savolni ng to'liq va aniq yoritilishi 0-5 ball	Misollar bilan muammoga echim topishi 0- 5 ball	Guruh a'zolarining faolligi 0-5 ball	J ami ball

15 – 13 ball – «a'lo». 12 – 10 ball – «yaxshi». 9 – 6 ball – «qoniqarli».

3-ilova


Abu Nasr Forobiy va uning ilmiy merosi

O'rta Osiyo va butun Sharq uyg'onish davrining buyuk olimi, o'z davri ilg'or falsafiy fikrining asoschisi Abu Nasr Forobiydir.

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O'zlug' Tarxon al –Abu Nasr Forobiy, hozirgi Chimkent viloyatining Farob degan joyida 873-yilda tavvallud topib, 950-yilda Damashqda vafot etgan faylasuf, qomusiy olim Farobiy Toshkentda, Buxoro va Samarqandning oliy madrasalarida ta'lim olgan. U umrining asosiy qismini Bog'dod shahrida yashab, ijod etgan. U yoshligidanoq yunon olimlarining asarlarini qiziqib o'qigan, etmishdan ziyod tillarni bilgan. U umrining oxirigacha Damashqda g'aribona yashab, ilm-fan bilan shug'ullangan. Fan olamida uning 160 dan ortiq asarlari mavjud bo'lib, zamondoshlari uni «Sharq Arastusi», «al Muallim as Soniy» (Arastudan keyingi ikkinchi muallim) deb nomlaganlar. Aflotun, Arastu (Aristotel) O'qlidis, Botilimus (Ptolomey) asarlariga yozgan sharxlari falsafa va mantiqqa oid risolalari sharhu g'arbda mashhur bo'lgan.

Abu Nasr Forobiy o'z asarlarida o'sha davr fanining barcha sohalarini qamrab olgan. «Kalom fi-l javhar» (Substantsiya haqida so'z), «Kitob al-Burxon» (Isbot kitobi), «Ixso al -ulum» (Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi), «Kitob ul musiqa al-kabir» (Musiqa haqida katta kitob), «Risola fil a'zo al-insoniya» (Inson a'zolari haqida risola) va boshqa asarlari fan olamida keng ma'lum va mashhur.

Кластер¹




(Klasterni tuzish qoidasi)

1. Abu Nasr Forobiy haqida birorta so'z ayting.. g'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda ahlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

¹ M.Lasasov, G.Masharipova, X.Jumaniyozov, E.Tilayev, G.Lafasova "Milliy mafkura fanini o'qitish metodimasi" Nizomiy nomidagi TDPU, 2012, 79 – bet

Klaster metodi



4-ilova

Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi ma’naviy – axloqiy qarashlar

Abu Nasr Forobiy o’rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha soxalarida 160 dan ortiq asar yaratgan. U turli bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko’proq qiziqqanligi uchun uning asarlarini ikki guruxga bo’lish mumkin:

Yunon faylasuflari tabiatshunoslarini ilmiy merosini o’rganish, targ’ib qilishga bag’ishlangan asarlar;

Fanning turli sohalariga oid mavzular;

Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-siyosiy va axloqqa oid g’oyalari, ya’ni uning umumbaxt-fozil davlat va ma’rifatparvar, dono, davlat rahbari haqidagi ta’limoti juda mashhurdur.

Abu Nasr Forobiy, Markaziy Osiyo uyg’onish davri falsafasini, ijtimoiy hayotini va tafakkurini boshlab bergan mutaffakir sifatida ham teran o’rganilishi uning mustaqillik sharoitlarida adolatli jamiyat asoslarini yaratish va qurish haqidagi g’oyalarini amalga oshishiga zamin yaratadi.

BLUM TAKSONOMIYASI TOIFALARI

№	Toifa (darajalar)	Talaba faoliyati
1.	BILISh	Dalillarni bilish va ularni tanlash texnologiyasini bilish, rivojlanish qonuniyatlarini bilish, baholash mezonlarini bilish, umumiy tushuncha, qonun-qoidalarini bilish
2.	TUShUNISh	Anglash, o'z so'zi bilan ifodalash, bir til (tizim)dan boshqasiga (masalan, matematik tildan og'zakiga yoki aksincha) aylantiradi, formula , sxema va diagrammalarni talqin aila oladi.
3.	QO'LLASh	Bilimlarni amaliyotda qo'llash (masala yoki misol echish, mehnat operatsiyalarini bajarish, vaziyatlarni hal qilish, qonun-qoidalaridan foydalanish).
4.	TAhLIL	Bir butun tushuncha, qonun-qoidalarini qismlarga ajratish, ular orasidagi o'zaro bog'liqlikni va munosabatlarni o'rnatish, yaxlitlikni tashkil etuvchi tamoyillarni aniqlash.
5.	SINTEZ	Yangi tarkib hosil qilish maqsadida berilgan qismlarni umumlashtirish, insho rejasini tuzish, berilganlarga asoslanib yaxlit qiyofani yaratish. Berilgan mehnat operatsiyalariga asoslanib yaxlit texnologik jarayonni loyixalash.
6.	BAhOLASh	Munosabat bildirish, xulosa yasash; muayyan mezonlarga asosan e yoki bu faoliyat qonun-qoida, tushunchalarning ahamiyatini baholash

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

1-guruh

Savol	Abu Nasr Forobiy haqida nimalarni bilasiz?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

2-guruh

Savol	Abu Nasr Forobiyning komil inson haqidagi fikrlarini bayon qiling?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

Insert jadvalining tuzilishi va uni to'ldirish qoidasi bilan tanishadilar.

Insert jadvali:-ma'lumotlarni sistemalashtirishni (mustaqil o'qish, ma'ruza eshitish jarayonida olingan), uni tasdiqlash, aniqlashtirish yoki rad etish; qabul qilinayotgan ma'lumotning tushunarligini nazorat qilish, avval egallangan ma'lumotni yangisi bilan bog'lash qobiliyatlarini shakllantirishni ta'minlay di;
- o'quv ma'lumotini mustaqil o'rgangandan so'ng qo'llaniladi.

O'qish jarayonida olingan ma'lumotlarni individual holda sistemalashtiradilar;
Matnda qo'yilgan belgilar asosida jadval ustunlarini to'ldiradilar:
V - haqidagi bilimlarimga javob beradi;
«-» - haqidagi bilimlarimga qarama-qarshi;
Q - yangi ma'lumotlar
? - tushunarsiz (aniqlashtirish, to'ldirishni talab qiladi) ma'lumot.

Insert jadvali

V	+	-	?

2 Tajriba-sinov maydonchasi: Oliy ta'lim tizimida o'tkazilgan tajriba sinovlarining natijalari

Magistrlik disertatsiya mavzusi yuzasidan Ma'naviyat asoslari fani o'qitilishi davomida “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” darslarida “Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri ” asarida ma'naviy-axloqiy qarashlar” disertatsiya mavzusini ahamiyati va ushbu mavzuning boblarda berilgan rejalar asosida pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonida tajriba – sinov ishlarining tizimini tashkil qilish va uning haqqoniyligini ta'minlash maqsadida olingan natijalarning amaliy ahamiyatini tasdiqlovchi va bir-birini to'ldiruvchi metodlar majmuasini qo'lladik.

Tajriba 1 marotaba o'tkazildi. Tajriba – sinov eksperiment O'rta maxsus ta'lim tizimi Chilonzor tumani 200 - maktabning 8-“A”, “B” va “V” sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazib ko'rdik.

T a j r i b a s i n o v

Tajriba-sinovni amalga oshirish uchun 2012 yil noyabr dekabr oylari mobaynida Chilonzor tumani 200 – maktabning 8-“A”, “B” va “V” sinf o'quvchilarida o'tkazib ko'rdik. Tadqiqot ishini olib borishda 8 sinflar mos ravishda tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. “Milliy g'oyasi va ma'naviyat asoslari”, “Davlat va huquq asoslari” fanlarii doirasida o'quv dasturiga mos ravishda komil inson, ijtimoiy hamkorlik, ma'naviyat inson va jamiyat negizi, O'zbekistonda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati mavzulari orqali tajriba sinov o'tkazildi.

Bulardan nazorat guruhiga 8 “A”, “B” sinflar, tajriba guruhiga 8 “V” sinf o'quvchilari ajratildi. Shundan 48 ta o'quvchi nazorat guruhlariga, 28 ta o'quvchi tajriba guruhlariga jalb qilindi. Tajriba sinov ishlarida jami 76 ta o'quvchi ishtirok etdi.

1. Tajriba-sinov va nazorat maydonlari tarkibi.

№	Tajriba o'tkazilgan O'quv muassasasi: MAKTAB	Tajriba guruhi	Ishtirokchilar soni	Nazorat Guruhlari	O'quvchilar soni	O'quvchilarning umumiy soni
1	Toshkent shahar Chilonzor tumani 200-maktab	8 V	28	8A,B	48	76
2						
	Jami		28		48	76

Tajriba guruhlarida dars biz taklif etayotgan pedagogik texnologiyalarni qo'llash, orqali hamda magistirlilik disertatsiyasi mazusiga asoslangan holda qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanib, mavzuni yanada rivojlantirish yo'llari orqali dars o'tildi. Nazorat guruhiga esa an'anaviy uslubda dars o'tildi.

Tajriba sinov guruhi 8v sinfida yuqorida keltirilgan noan'anaviy usullar: guruhlar bilan ishlash, FSMU, Insert, Klaster va BLUM taksonomiyasi shaklida dars tashkil etildi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishga sabab bo'ldi. Buning isboti sifatida tajriba guruh a'zolarining DTS asosida ushbu mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari monitoringi aniqlandi.

Tajriba guruh a'zolarining DTS talablari asosida bilim, ko'nikma va malakalari monitoring natijalari.

2012-2013 o'quv yili.

Tajriba guruhi								
№	Guruhlar	O'quvchilar soni	100 %	86 – 100 %	71 – 85 %	55 – 70 %	0 – 54 %	O'rtacha
1	8 V	28		7	11	10	-	71,5 %

Yuqorida jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak 8 V sinfida 28 ta o'quvchi bo'lib, 100 % o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega o'quvchilar mavjud emas. 86 – 100 %

ko'rsatkichga ega o'quvchilar soni 7 tani tashkil etadi. 71 – 85 % ko'rsatkichga ega o'quvchilar soni 11 ta, 55 -70 % ko'rsatkichli o'quvchilar soni 10 tani tashkil etadi. Shunda ularning umumiy o'rtacha monitoring darajasi 71,5 % tashkil qiladi.

Nazorat guruhi a'zolarining DTS talablari asosida bilim, ko'nikma va malakalari monitoring natijalari.

2012-2013 o'quv yili.

Tajriba guruhi								
№	Guruhlar	O'quvchilar soni	100 %	86 – 100 %	71 – 85 %	55 – 70 %	0 – 54 %	O'rtacha
1	8 A	29		3	10	19	-	44,9 %
2	8 B	29		10	9	10	-	65,5 %
	Jami	48		13	19	29		60,4 %

Yuqorida jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak 8 A, B sinflarida 48 ta o'quvchi bo'lib, 100 % o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega o'quvchilar mavjud emas. 86 -100 % ko'rsatkichga ega o'quvchilar soni 13 tani tashkil etadi. 71 – 85 % ko'rsatkichga ega o'quvchilar soni 19 ta, 55 -70 % ko'rsatkichli o'quvchilar soni 29 tani tashkil etadi. Shunda ularning umumiy o'rtacha monitoring darajasi 60, 4 % tashkil qiladi.

XULOSA

Bitiruv-malakaviy ishimizni tugatar ekanmiz, Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarini ijtimoiy hayotimizda tutgan o’rni, shunigdek, yoshlarimizni ma’naviy barkamol inson bo’lib tarbiyalanishda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlash zarur.

Uch bobdan iborat ushbu ishimizdan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

O’rta asr musulmon faylasuflari orasida Abu Nasr Forobiy birinchilardan bo’lib, jamiyatning kelib chiqishi uning maqsadi va vazifalari haqida izchil ta’limot yaratdi.

Odamlar jamoasini boshqarishda ijtimoiy adolat prinsiplari va axloq normalariga rioya qilish darkor ekanligi qayta-qayta takrorlardir.

Forobiy inson (xalq) farovonligini ta’minlamoq uchun barcha jabhalarda ijtimoiy adolat prinsiplari ustuvor bo’lishini qayt etdi.

Mashhur mutafakkir inson ma’naviy qiyofasini har tomonlama o’rganmoq uchun unda mavjud bo’lgan jamiki yaxshi va yomon ijtimoiy fazilatlar, xislatlarni tahlil etdi.

Inson ijtimoiy qiyofasini ifodalanishi mezonlarini, uning yaxshi-yomon odatlari, qiliqlarini aniqlamasdan turib, shaxsda insoniylikning shakllanganligi darajasi, holatini bilish mumkin emasligini isbotlab berdi.

Shunday qilib, Forobiy haqiqatparvarlik, insonparvarlikka asoslangan erkin ideal davlatning o’rnatilishini orzu qiladi, unga erishish manbai – insonlardagi ijobiy xislatlar va ilm-fan ekanligini ta’kidlaydi. Umuman olganda Forobiy o’rta asrning mashhur insonshunos olimi ekanligidan dalolat beradi.

Mustaqil taraqqiyot yillarida yurtimizda huquqiy davlat, demokratik jamiyat, erkin va farovon hayot qurish yo’lida katta o’zgarishlar sodir bo’ldi. Biroq, bu borada hali muammolar, qiyinchiliklar, tushunmovchiliklar, nuqsonlar va to’siqlar mavjudligini ko’zda tutib, ularni bartaraf etish yo’llarini o’tmish ma’naviy merosimiz, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz, milliy davlatchiligimiz tarixi va mentalitetimiz xususiyatlaridan kelib chiqib belgilab bormog’imiz kerak.

Demokratik jamiyatni shakllantirishning ma'naviy asoslaridan biri qator muhim omillarni o'ziga qamrab oladi. Madaniy meros, unga ob'ektiv munosabatda bo'lish, avaylab-asrash ana shunday muhim omillardan biridir.

Demak, demokratik jamiyatni shakllantirish va uning ma'naviy asoslarini qaror toptirishda madaniy merosni avaylab-asrash katta ahamiyat kasb etadi va muhim rol o'ynaydi.

Xalqimiz dunyoqarashini milliy istiqlool ruhida isloh qilish zamonamizning dolzarb vazifalaridan biridir. Farzandlarimizni ozod va demokratik O'zbekistonning munosib o'g'il – qizlari etib tarbiyalash masalasi ma'naviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yo'nalishini tashkil etmog'i kerak.

Millatning tabiatida, qonida, nasl-nasabida ezgulik va ma'rifat sari intilish mafkurasi va qonuniyati jo'sh urishi lozim"¹. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov, - "har bir kishi, millat, xalq o'z tarixini bilishni istaydi, shuning uchun olimlarimiz o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi, o'zligi, ma'naviyati va madaniyati to'g'risida ilmiy yaxlit konsepsiya yaratishlari zarur"², - deb ta'kidlaydi. "Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz". Yurtboshimizning fundamental ahamiyatga ega ushbu ko'rsatmasi sharq mutafakkirlari hayoti va ijodini yanada chuqurroq o'rganish va yangi jamiyat asoslarini yaratishda ulardan unumli va o'rinli foydalanishga zamin yaratadi.

O'zbekistonda xalq ma'naviy merosini o'ragnish va ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati mavzusiga yangicha qarash jamiyatning tadrijiy rivojlanishi uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligi chuqur falsafiy va ilmiy farazlar asosida isbot talab etadi.

Vatanimiz azaldan bashariyat tafakkur xazinasiga unutilmas hissa qo'shib kelgan, asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyati, adolatparvarlik,

¹ Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin. – Toshkent, O'zbekiston, 1998.

² Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q. – Toshkent, O'zbekiston, 1998.

ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlarini targ'ib etgan sharq falsafasi va islom dini ta'limoti asoschilari bilan haqli ravishda faxrlanish hissini shakllantiradi.

Ushbu tadqiqot ishida O'zbekistonda xalq ma'naviy merosini, jumladan, Abu Nasr Forobiyning o'ziga xos qarashlarini o'rganish va ulardan fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratishda, ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati mavzusiga yangicha qarash jamiyatning tadrijiy rivojlanishi uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligi va uning natijalari O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish jarayonlarni ilmiy-amaliy tahlil etishda va fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishda keng foydalanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2000 yil 2 iyun, № UP-2612 .G`G`. www. Rressa-servis. Uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Milliy axborot tizimlarida kopyuter xavfsizligin ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida.
3. Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy va ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. («Xalq so'zi»gazetasi 2006 yil 26 avgust).
4. Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori («Xalq so'zi»gazetasi 2012 yil 28 may)

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., O'zbekiston, NMIU, 2011
3. Karimov I.A. “Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz”.7-jild. Toshkent, O'zbekiston. 1997
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent, O'zbekiston, 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi Kadrlash tayyorlash milliy Dasturi. G`G`Barkamol avlod orzusi. – Toshkent, O'zbekiston, 1999.

6. Karimov I.A. “Ma’naviy yuksalish yo’lida”. Toshkent, O’zbekiston, 1995
7. Karimov I.A. Milliy Istiqlol mafkurası – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. 8-jild. – Toshkent, O’zbekiston, 2000.
8. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent, O’zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – Toshkent, O’zbekiston, 1999.
10. Karimov I.A. Sog’lom avlod – xalqimiz kelajagi. G’G’, Xalq so’zi, 1999, 8 dekabr.
11. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent, O’zbekiston, 2010.
12. Karimov I.A “Ijobiy ishlarimizni oxiriga yetkazaylik”, Toshkent, O’zbekiston. 1994

III. ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Xayrullayev M.M. Forobiy va uning falsafiy risolalari. Toshkent .1963.
2. Хайруллаев М. Мировоззрение Фараби и его значение в истории философии. Тошкент. 1967
3. Хайруллаев М. Фараби. Эпоха и учение. Тошкент. 1975
4. Хайруллаев М. Абу Наср Фараби. Тошкент. 1961;
5. Хайруллаев М. Об изучении научного наследия Абу Насра Фараби в Узбекистане // Общественные науки в Узбекистане., 1961, №4.
6. Хайруллаев М. Абу Наср ал-Фараби .Москва. 1982
7. Хайруллаев М. Фараби и его философские взгляды. Москва. 1975,
8. Хайруллаев М. Фараби - крупнейший мыслитель средневековья. Тошкент. 1973
9. Xayrullaev M. Ikkinchi muallim. G’G’ Guliston. Tpshtkent. 1975, №9

10. Xayrullaev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. T.1971
11. Xayrullaev M. Sharq renessansi va Forobiy. Fan va turmush, Toshket. 1975, 239 –b
12. Хайруллаев М. Культурное наследие и история философской мысли. Ташкент, 1985, с. 171 -172, 175 - 176
13. Григорян С.Н. Средневековая философия народов Ближнего и Среднего Востока. Масква.1966
14. Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана IX-XII вв. Масква.1960
15. Григорян С.Н. Великие мыслители Средней Азии. – Масква.1958
16. Григорян С.Н. Избранные произведения мыслителей цран Ближнего и Среднего Востока IX-XIII в. Масква. 1961
17. Григорян С.Н. Великие мыслители Средней Азии. Масква. 1958, серия ИИ, №77.
18. Бурибойев М.С. и.д. Социально – этические и эстетические взгляды Ал-Фараби. Алма-Ата.1984
19. Бурибойев М.С., Иванов А.С., Харенко Е.Д. и.д. О логическом учении ал-Фараби. - Алма-Ата. 1982.
20. Китааб ас-Сияса ал-маданийя.Расаил Аби Наср ал-Фароби. Мужаллад 4. Ал - Каашира. 1988.s.48.53.
21. Ал-Фараби. Социально – экономические трактаты. – Алма-Ата, 1973, стр. 34.
22. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. – Toshkent, Fan, 1975.
23. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, Abdulla qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
24. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt, saodat va kamolot haqida . – Toshkent, Yozuvchi, 2001.
25. Измайлов А.Е. Народная педагогика: педагогические воззрение Средней Азии и Казакстана. Москва, Педагогика, 1991.

26. Muhiddinova F. “Forobiy siyosiy – huquqiy ta’limotida qonun va qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi”. Toshkent, 2005, 55-bet
27. Аль-Фараби. Философские трактаты. Алма-Ата.: 1970. 303.c
28. Аль-Фараби. Социально-этические трактаты. Алма-Ата.: 1973. 108.c
29. Аль-Фараби. Философские трактаты. Алма-Ата.: 1970. 303.c
30. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. “Mutafakkir” xalqaro hayriya jamg’armasi. Toshkent “Yozuvchi”. 2002, 37-b.

IV. Qo’shimcha adabiyotlar

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik – Toshkent, DITAF, 2000.
2. Abdullo Sher, Husanov B. Axloq va nafosat falsafasi. – Toshkent, Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zMU, Toshkent, 2008.
3. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, O’zbekiston, 1997.
4. Jumaboev I. O’zbekistonda falsafiy va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. – Toshkent, O’qituvchi, 1997.
5. Shermuhammedov Y. “Ikkinchi muallim” insoniy komolot haqida. Fan va turmush. Toshkent, 1975. 10-son
6. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari – Toshkent, Universitet, 1998.
7. Xayrullaev M. O’zbekistonda ijtimoiy falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. – Toshkent, 1995.
8. To’lanov J. Falsafa. – Toshkent, O’zbekiston, 1991.
9. M’anaviyat yulduzlari. Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001 – yil. 74 – 84 – betlar.
10. Mamatqulov R.U “Markaziy Osiyo falsafasi, uning jahon madaniyatidagi o’rni”, Toshkent, 2010, 134-bet

11. S.Otamurodov, S.Hasanov, J.Ramatov “Ma’naviyat asoslari”. Toshkent, “A.Qodiriy” nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002, 160 – bet
12. E.Xoliqov, X.J.Xudoyqulov, M.Q.Isoqov “O’zbek g’ururi – uning odobi”. Toshkent, “Fan” nashriyoti. 2008, 238-b
13. Tafakkur jurnali, Toshkent, G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1989, 263 – 264 – betlar.
14. Amir Temur Kurogoniy. “Zafar yo’li”. Toshkent, “Fan” nashriyoti. 1992, 10 – bet
15. R.Z.Jumayev, C.Mamashoirov, A.Hukumov va b. “Shaxs va Jamiyat”. Toshkent, “O’qituvchi” nashriyoti, 2005, 64- b
16. Haydar Aliqulov. “Gumanistik meros va shaxs ma’naviy kamoloti”. Toshkent. 2008. 22 – b
17. I.Xoliqov, M.Sobirova, M.Rustamov. Ma’naviyatning axloqiy asoslari. Toshkent – 2013, Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi. 83 – b
18. Fozila Suloymonova “Sharq va G’arb” , Toshkent – 1997 yil, O’zbekiston nashriyoti, 222 -225 – betlar
19. Конрад Н.И. Средней века в исторической науке. Избр. труды, М, 1974, с.217
20. Haydar Aliqulov.“Falsafiy meros va ma’naviy – axloqiy fikr rivoji”, Toshkent. 2009. Falsafa va huquq institute, 36 – b
21. Петров. Б.Д. Ибн Сина – великий среднеазиатский ученый – энциклопедист, Т, 1981. Ст. 22
22. Karimov.Sh, Shamsuddinov.R. Vatan tarixi.(birinchi kitob).T. “O’qituvchi” 1997. 238-239 – betlar
23. Jo’raeva.S. Haqiqat manzaralari 96 mumtoz faylasuf.T.: “Yangi asr avlodi” 2007. 186 -187 – betlar
24. Shodmonov.H.Sharq peripatizmi nima? T. 2006,Tafakkur,73 – 74– betlar

25. Nazarov.H. Ergashev.I. va boshqalar. Milliy g'oya va rahbar ma'suliyati. O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. – T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. 509 – 511 – betlar
26. Nazarov.H, Qarshiboev.M,Umarov.B, Xolbekov.A. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.592 – 593 – betlar
27. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi.9-jild.To'ychi Hofiz — Harshara. Tahrir hay'ati A. Azizxo'jaev, B. Alimov, M. Aminov va b. T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. 288 – 292 – betlar
28. Muhiddinova.F. O'zbekiston xalqlarining siyosiy va huquqiy ta'limotlari tarixi.(O'quv qo'llanma).T.:2004.

V. Internet saytlari

2. www.ziyo.net/uz
3. www.milliy/ma'naviyat.uz
4. www.filosofia.ru
5. www.philosophy.nsc.ru
6. <http://vlibrary.freenet.uz>
7. namdumanaviyathttp://fikir.uz/
8. www.bilim.uz
9. www.history.ru
10. www.gow.uz

MAVZUGA DOIR TAYANCH SO'ZLAR

№	O'zbekcha	Ruscha	Inglizcha
1	Ma'naviyat	Духовность	Spirituality
2	Millat	Нация	Nation
3	Milliy	Национальный	National
4	Ozodlik	Свобода	Freedom
5	G'oya	Идея	Idei
6	Mafkura	Идеология	Ideology
7	Vatan	Родина	Native tant
8	Vakil	Делегат	Delegate
9	Demokratiya	Демократия	Democracy
10	Bayroq	Флаг	Flag
11	Ogohlik	Бдительность	Vigilance
12	Dunyoviy	Мировой	World
13	Sadoqat	Преданность	Dedication
14	Mustaqillik	Независимость	Independence
15	Qaramlik	Зависимость	Dependence
16	Sodiq, fidokor	Преданный	Devoted
17	Samimiy	Искренний	Sincere
18	Qahramonlik	Героизм	Heroism
19	Abadiy	Вечный	Eternal
20	Siyosat	Политика	Politics
21	Maqsad	Цель	Aim
22	Kelajak	Будущий	Future
23	Ajdod	Предок	Ancestor
24	Avlod		

25	Xavfsizlik	Безопасность	Safeti
26	Insonparvarlik	Гуманизм	Humanizm
27	Beparvolik	Халатность	Negliaence
28	Buyuk	Великий	Great
29	Birdamlik	Единство	Unite
30	Davlat	Государство	State
31	G'urur	Гордость	Pride
32	Ommoviy	Публичный	Publik
33	Sharq	Восток	East
34	G'arb	Запад	West
35	Janub	Север	North
36	Shimol	Юг	South
38	Dunyo	Мир	World
39	Davlat	Государство	State
40	Qadimiy	Древний	Antigue
41	Tarix	История	History
42	O'rta asr	Средневековье	The middle ages
43	Islom	Ислам	Islam
44	Hukmdor	Правитель	Ruler
45	Manba	Источник	Origin
46	Buyuk ipak yuli	Великий Шелковый пут	Great Silk Road
47	Tamaddun	Цивилизация	Civilization
48	Madaniyat	Култура	Cultore
49	Ilm fan	Наука	Science
50	Muallif	Автор	Author
51	Xujjat	Документ	Paper
52	Jamiyat	Общество	Socienty
53	Inson	Человек	Person

54	Oila	Семья	Family
55	Bola	Ребёнок	Chaild
56	Yosh	Молодость	Yong
57	O'qish	Учит	Learn
58	Ma'lumot	Информация	Information
59	Muammo	Проблема	Problema
60	Global	Глобал	Global
61	Globallashuv	Глоболизация	Globallizion
62	Havfsizlik	Безопасность	Safety
63	Meros	Наследство	Hitage
64	Ijobiy	Позитивный	Positive
65	Salbiy	Отри	Negativly
66	Farqi	Отличия	Insignia
67	Ta'sir	Влияние	Influence
68	Ta'lim	Образование	Education
69	Tarbiya	Воспитание	Bring up
70	Soxa	Специальность	Specialty

ILOVALAR

Abu Nasr Forobiy (873-950).



Abu Nasr Forobiy
FOZIL ODAMLAR
SHAHRI

Forobiy 873 yilda Aris suvining Sirdaryoga quyiladigan joyidagi Forob qishlog'ida tavallud topgan. 950 yilda Damashqda vafot etgan. Abu Nasr Farobiy 160 dan ortiq asarlar yozgan. Ma'lumotlarga ko'ra 70 dan ortiq tillarni mukammal bilgan ekan. "Muallim us-soniy" (ikkinchi muallik) nomi bilan shuhrat topgan. 1973-yilda Farobiyning yubiliyi keng nishonlangan.

Abu Nasr Forobiy asarlarning mazmuniga qarab;

Falsafaning umumiy masalalariga, ya'ni bilimning umumiy xususiyatlari, qonuniyatlari va turli kategoriyalariga bag'ishlangan asarlar:

- «Substantsiya haqida so'z» («Kalom fi-l javhar»);
- «Masalalar manbai» («Uyunul masoil»);
- «Qonunlar haqida kitob» (Kitob fi-l navomis);
- «Falak harakatining doimiyligi haqida» («Kitob fi-l harakat al-falaka doimatun») va boshqalar

Inson bilish faoliyatining falsafiy tomonlariga bag'ishlangan ya'ni bilishning shakllari bosqichlari usullari haqidagi asarlar:

- «Kattalarning aqli haqida so'z» («Kalom fi-l aql al - Kabir»);
- «Yoshlarning aqli haqida kitob» («Kitob fi-l aql as-sa'ir»);
- «Mantiq haqida katta qisqartma kitob» («Kitob al-muxtasar al-kabir fi-l mantiq»);
- «Mantiqqa kirish kitobi» («Kitob al-madxad ila-l mantiq»);
- «Isbot kitobi» («Kitob sharoit al-qiyos»);
- «Jon(rux)ning mohiyati haqida risola» («Risola fi mohiyat an-nafs») va b.;

Falsafa va tabiiy fanlarning fan sifatidagi, tematikasi haqidagi asarlar:

- «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi» («Kitob fi ixso al-ulum va at-tarif», qisqacha nomi «Ihso al-ulum»);
- «Falsafa tushunchasining ma'nosi haqida so'z» («Kalom fi ma'oniyy ism al-falsafa»);
- «Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida kitob» («Kitob fi ashho illati yaxtoju antallama kabl al-falsafa»);
- «Falsafaga izohlar» («Taolih fi-l xikmat») va boshqalar;

Moddaning miqdori, fazoviy va xajmiy munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan, ya'ni matematika fanlari-arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa o'ld asarlar:

- «Hajm va miqdor haqida so'z» («Kalom fi-l xiyz va-l miqdor»);
- «Fazo geometriyasiga kirish haqidagi qisqartma kitob» («Kitob al-madxal ila-l xandasat al-laxmiyyati muxtasarsan»);
- «Astrologiya qoidalari haqida muloxazalarni to'g'rilash usuli haqida maqola» («Maqola fi-il jihat al layati yassexxu alayxo al-havl bi axkom an-nujum»);
- «Musiqa haqida katta kitob» («Kitob ul Musiqa al-kabir»);
- «Musiqa haqida so'z» («Kalom fi-l musiqiy»);
- «Ritmlar turkumlari haqida kitob» («Kitob ul fi-ixso-il-iho»), va boshqalar.

Modda xossalari va turlarini, noorganik tabiatning, xayvonlar va inson organizmining xususiyatlarini o'rganuvchi, yani tabiiy fanlar-fizika, kimyo, optika, tibbiyot, biologiyaga bag'ishlangan asarlar:

- **«Fizika usullari haqida kitob» («Kitob fi usul ilm at-tabiat»);**
- **«Alkimyo ilmining zarurligi va uni inkor etuvchilarga raddiya haqida maqola» («Maqola fi vujub sanoat alkimyo va-r radd ala mubtiluho»);**
- **«Inson a'zolari haqida risola» («Risola fi a'zo al-insoniya»);**
- **«hayvon a'zolari haqida so'z» («Kalom fi a'zo al-xayvon») va boshqalar.**

Tilshunoslik, she'riyat, notiqlik san'ati, xattotlikka oid asarlar:

- **«She'r va qofiyalar haqida so'z» («Kalom fi she'r va-l qavofi»);**
- **«Ritorika haqida kitob» («Kitob fi-l xitoba»);**
- **«Lug'atlar haqida kitob» («Kitob fi-l lug'at»);**
- **«Xattotlik haqida kitob» («Kitob fi san'at al-kitobat») va boshqalar.**

Ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish masalalariga, axloq, tarbiyaga bag'ishlangan, ya'ni huquqshunoslik, etika, pedagogikaga doir asarlar:

- **«Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola» («Risola fi-t tanbih ala asbob as saodat»);**
- **«Shaharni boshqarish» («Al siyosat al madaniyatiya»);**
- **«Urush va tinch turmush haqida kitob» («Kitob fi famoyish va-l xurub»);**
- **«Fazilatli xulqlar» («As-siyrat al-fazila») kabi turlarga bo'linadi.**



FOZIL SHAHAR HOKIMINING FAZILATLARI:

Birinchidan	• to'rt muchasi sog'-solim bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishida biror a'zosidagi nuqson halal bermasligi lozim;
Ikkinchidan	• tabiatan nozik farostli bo'lib, suhbatdoshining so'zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg'ab olishi zarur;
Uchunchidan	• anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarini unutmasligi zarur;
To'rtinchidan	• zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlarini tez bilib, sezib olishi zarur;
Beshinchidan	• fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida, chiroyli so'zlar bilan ifodalay olishi zarur;
Oltinchidan	• ta'lim olishga, o'qish, o'rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo'lishi zarur;
Yettinchidan	• taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat bo'lmasligi, aksincha, o'zini tiya oladigan bo'lishi zarur;
Sakkizinchidan	• haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur;
To'qqizinchidan	• o'z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam bo'lishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi, tug'ma oliyhimmat bo'lishi, ulug', oliy ishlarga intilishi zarur;
O'ninchidan	• bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo'lishi zarur;
O'nbirinchidan	• tabiatan adolatparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan. istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'ruvchi bo'lishi zarur;
O'nikkinchidan	• o'zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qafiyatli, sabotli, jufatli, jasur bo'lishi, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur.